

RAQOBAT HUQUQI

Darslik

The book cover features a background image of a chessboard with several white chess pieces. A horizontal white line is positioned below the title. The bottom right corner is decorated with a complex geometric pattern of overlapping triangles in various shades of blue and cyan. The text 'Darslik' is written in a light blue, serif font below the title.

RAQOBAT HUQUQI

Darslik

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
"Yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalarga darslik
sifatida tavsiya etilgan

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27-martdagi 274-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan

Raqobat huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. 189 bet.

UDK 339.1 (075) (575.1)

KBK: 67.412.2YA73

R32

Mas'ul muharrir: **X.T.Azizov** – TDYU “Biznes huquqi” kafedrasini mudiri, y.f.n., dotsent

Taqrizchilar: **O.Oqyulov** – TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasini professori, y.f.d.
S.Joldasova – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti bosh ilmiy xodimi, y.f.n., dotsent.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi 1990-sonli “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori va Toshkent davlat yuridik universitetining o'quv rejasidagi Raqobat huquqi o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Unda raqobat huquqi tushunchasi, raqobatni ta'minlashning huquqiy asoslari, raqobat va monopolistik faoliyat sohasida qonunchilik, raqobat huquqining subyektlari, ustun mavqe va uni suiiste'mol qilish, monopolistik faoliyat va uning ko'rinishlari, savdolarni va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish, tabiiy monopoliya, tadbirkorlik subyektlarining o'zaro raqobatlashuvida reklamaning o'rni, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik bilan bog'liq mavzular yoritilgan, shuningdek ular milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida tushuntirilgan.

Darslik oliy yuridik ta'lim yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan, shuningdek undan magistrantlar, ilmiy tadqiqot olib boruvchilar va amaliyot xodimlari foydalanishlari mumkin.

ISBN: 978-9943-380-88-2

© Mualliflar jamoasi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018



MUNDARIJA

Mualliflar jamoasi.....	7
Kirish.....	8
Glossariy	11
I bob. raqobat huquqi – huquqiy fan sifatida	13
1.1. Raqobat tushunchasi va uning qonunchilikda aks etishi.....	13
1.2. Raqobat huquqining tushunchasi, predmeti, prinsiplari, tizimi. Raqobat huquqining manbalari	18
1.3. Raqobat huquqining zamonaviy bozor munosabatlaridagi ahamiyati	25
1.4. Raqobat huquqiy munosabatlar tushunchasi va uning turlari	27
II bob. Monopoliyaga qarshi organlar	31
2.1. O‘zbekistonda raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat organi.....	31
2.2. Monopoliyaga qarshi organning raqobat siyosatini amalga oshirishdagi roli	33
2.3. Monopoliyaga qarshi organning reklama faoliyatini tartibga solishdagi, iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishdagi vakolatlari.....	36
2.4. Monopoliyaga qarshi organning huquqlari va javobgarligi hamda faoliyatini tashkil etish	37
2.5. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini monopoliyaga qarshi organ tomonidan tartibga solish	41
2.6. Xorijiy mamlakatlarda raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat organlari.....	43
III bob. Ustun mavqe va uni suiiste’mol qilish.....	47
3.1. Ustun mavqe tushunchasi va uning huquqiy tabiati.....	47
3.2. Tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e’tirof etish	51
3.3. Tovarning monopol yuqori narxi	54

3.4. Tovarning monopol past narxi	56
3.5. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ustun mavqeni suiiste'mol qilishi	57
IV bob. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari.....	61
4.1. Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va ularning umumiy tavsifi	61
4.2. Raqobatni cheklaydigan bitimlarning umumiy tavsifi, turlari va asosiy jihatlari.....	66
4.3. Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlar: xorij qonunchiligi tajribasi	71
V bob. Tovar va moliya bozorida raqobatni cheklaydigan davlat organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining hujjatlari hamda harakatlari.....	82
5.1. Tovar va moliya bozorida raqobatni cheklaydigan davlat organlari hujjatlari va harakatlari tushunchasi hamda ularning tasnifi.....	82
5.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo'lgan tarzda aralashish.....	84
5.3. Davlat organlari va yuridik shaxs birlashmalarining tovar va moliya bozorlarida raqobatni erkin rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi hamda iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsituvchi harakatlari.....	85
5.4. Tovar va moliya bozorida raqobatni cheklaydigan davlat organlarining boshqa harakatlari	88
VI bob. Raqobatga qarshi harakat sifatida insofsiz raqobat va uning ko'rinishlari.....	92
6.1. Insofsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tavsifi	92
6.2. Insofsiz raqobat sifatida noto'g'ri reklama tushunchasi va uning o'ziga xosligi	95
6.3. Reklamani huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi	98
6.4. Reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi	102

6.5. Shaxsiylashtirish vositalari tushunchasi va turlari	107
6.6. Insofsiz raqobat ko'rinishi sifatida tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomidan ruqsatsiz foydalanish.....	108
6.7. Insofsiz raqobat sifatida tijorat siridan ruqsatsiz foydalanish.....	110

VII bob. savdolarini o'tkazishda monopoliyaga qarshi talablar va uning oldini olish.....	117
7.1 Tanlov (savdo)lar o'tkazish tartibi va uning huquqiy asoslari	117
7.2. Tanlov (tender) savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar.....	122
7.3. Tanlov (tender) savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar	125
7.4. Sud tomonidan tanlovni o'tkazilmagan deb topish asoslari	125
7.5. Birja savdolarini o'tkazish tartibi.....	126
7.6. Birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar	128
7.7. Birja savdolarida tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlari.....	129

VIII bob. iqtisodiy konsentrasiyani davlat tomonidan nazorat qilish.....	134
8.1. Iqtisodiy konsentratsiya tushunchasi	134
8.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tashkil etishda monopoliyaga qarshi talablar	135
8.3. Tijoratchi tashkilotlarning ustav kapitalidagi aksiyalar (ulushlar)ni olishda monopoliyaga qarshi qonunchilik ustidan davlat nazorati.....	138
8.4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish monopoliyaga qarshi chora sifatida	142

IX bob. Monopoliyaga qarshi va tabiiy monopoliyani nazorat qiluvchi organning raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ashi va ko'rib chiqishi	147
9.1. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqishga doir huquqiy asoslar.....	147
9.2. Raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishda monopoliyaga qarshi organning vakolatlari va uning roli	149
9.3. Monopoliyaga qarshi organ tomonidan raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni qo'zg'ash.....	153
9.4. Monopoliyaga qarshi organ tomonidan raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni ko'rib chiqish tartibi.....	156
X bob. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.....	165
10.1. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tushunchasi.....	165
10.2. Ayb – javobgarlikka tortish asosi sifatida	168
10.3. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik	171
10.4. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy-huquqiy javobgarlik	176
10.5. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik.....	178
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	183

MUALLIFLAR JAMOASI:

1. **Azizov X.T.**, y.f.n., dotsent – Kirish, III bob;
2. **Atajanov X.K.**, o'qituvchi – VIII bob (Z.S.Umarov bilan hammualliflikda);
3. **Babakulov Z.K.**, mustaqil tadqiqotchi – VI bob (B.K.Xodjaye va M.B.Bahramova bilan hammualliflikda) va X bob (A.D.Umarov bilan hammualliflikda);
4. **Bahramova M.B.**, o'qituvchi – VI bob;
5. **Berdikulov M.A.**, o'qituvchi – V bob;
6. **Ibragimova A.R.**, o'qituvchi – I bob;
7. **Jumagulov A.E.**, o'qituvchi – IV bob (y.f.n. katta o'qituvchi N.M.Qo'shayev bilan hammualliflikda);
8. **Mamatov Sh.A.**, O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi tashqi iqtisodiy faoliyat va huquqiy ta'minlash departamenti huquqshunosi – VII bob;
9. **Qo'shayev N.M.**, y.f.n. katta o'qituvchi – IV bob (A.E.Jumagulov bilan hammualliflikda);
10. **Saydaxmedov U.M.**, o'qituvchi – II bob;
11. **Umarov A.D.**, o'qituvchi – X bob (B.K.Xodjaye va Z.K.Babakulov bilan hammualliflikda);
12. **Umarov Z.S.**, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati – VIII bob (X.K.Atajanov bilan hammualliflikda);
13. **Xodjaye B.K.**, Yaponiyaning Nagoya universiteti doktoranti, y.f.n. – VI bob (Z.K.Babakulov va M.B.Bahramova bilan hammualliflikda);
14. **Xudoybergenov B.B.**, TDYU tayanch doktoranti – IX bob.

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida tadbirkorlik munosabatlarining tobora rivojlanib borayotganligi mahsulot bozorida tovar, ish va xizmat turlarining sifat jihatdan yaxshilanishiga, narx-navoning iste'molchi ehtiyojidan kelib chiqib belgilanishiga olib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, bozorda erkin raqobat muhitining qanchalik darajada ijobiy rivojlanayotganligi va tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyat olib borish mexanizmining samaradorligi natijasi sifatida qarash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...ishlab chiqarish va sanoat jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, uning tarkibi tubdan yangilanmoqda, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar ishga tushirilib, ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilinmoqda, iqtisodiyotimizning raqobatdoshligi oshmoqda"¹.

Raqobatlashish bozor munosabatlari bilan bog'liq tushuncha bo'lib, ushbu tushuncha, o'z navbatida, o'zida ham iqtisodiy, ham huquqiy jihatlarini qamrab olib, tom ma'noda bozor munosabatlari ishtirokchilarining belgilangan qonun-qoidalarga muvofiq halol, oshkora o'zaro hurmat hamda bir-birini kamsitmagan holda daromad topish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 137-bandiga asosan iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitini yaratish hamda mahsulotlar va xizmatlar bozorida bosqichma-bosqich monopoliyani qisqartirish nazarda tutilgan bo'lib, unda korxonalarining birlashishi va qo'shib olinishida monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olish talablarini birxillastirish; raqobatni cheklovchi kelishuvlar, bitimlar va kelishilgan harakatlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish; ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarining aksiyalar va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik subyektlarining hujjatlarini ko'rib chiqish tartibini soddalashtirish; manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish maqsadida sho'ba korxonalar tomonidan ta'sisning ustav fondidan ulush sotib olishini va sho'ba korxonalar vakillarining ta'sischi kuzatuvlar kengashida a'zolicini taqiqlash masalalarini hal etish belgilandi.

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Birinchi Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2015. – 6-dekabr.

Raqobat munosabatlarining qaror topishi va uni huquqiy tartibga solish mexanizmi o'zida ikki muhim jihatni qamrab oladi. Birinchidan, bozor munosabatlarida erkin raqobatni tartibga solish ushbu sohada mavjud normativ-huquqiy hujjatlar vositasida amalga oshiriladi. Raqobatni huquqiy tartibga solishning mazkur jihati o'zida imperativ qoidalarni mujassam etib, huquqni buzgan shaxsga nisbatan tegishli huquqiy ta'sir chorasini qo'llashni nazarda tutadi; ikkinchidan, erkin raqobat munosabatlari ishtirokchilarining mavjud qonun-qoidalarga ixtiyoriy ravishda so'zsiz amal qilishi sifatida qarash mumkin. Raqobat munosabatlariga nisbatan yondashishning mazkur ikki jihatini umumiy ma'noda insofli va insofsiz xatti-harakatlar bilan tavsiflash mumkin.

Raqobatning huquqiy tabiatidan kelib chiqib ajratilgan insofli va insofsiz raqobatlashish bozor munosabatlarida mavjud bo'lgan hamda doimiy mavjud bo'ladigan faoliyat tushuniladi. Chunki ayni tadqiqot obyekti tovar va moliya bozorida raqobatlashish munosabatlarida ishtirokchilarining tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish hamda uni realizatsiya qilish bilan bog'liq harakatlarini huquqiy baholashdan iborat.

Tobora rivojlanib borayotgan bozor munosabatlaridan kelib chiqib, erkin raqobat munosabatlarini o'rganish o'zida bir qator dolzarb masalalarni aks ettiradi. Xususan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar, sharoitlar, imtiyoz va afzalliklar berilayotgani, xo'jalik yurituvchi subyektlar sonining ko'payayotgani, bunda erkin raqobat munosabatlarining rivojlanishi hamda ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalarini o'rganishga talabning oshib borishi bilan asoslanadi. Shu munosabat bilan ushbu sohada yuridik kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'limning yurisprudensiya yo'nalishida raqobat huquqini o'qitish, erkin raqobat munosabatlarini shakllantirish va ularni huquqiy tartibga solishda vujudga keladigan kelishmovchilik va nizolarni hal etishda talabalardan muayyan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Mazkur darslik oliy yuridik ta'lim yurtining talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, raqobat huquqi tushunchasi, raqobatni ta'minlashning huquqiy asoslari, raqobat va monopolistik faoliyat sohasida qonunchilik, raqobat huquqining subyektlari, ustun mavqe va uni suiiste'mol qilish, monopolistik faoliyat va uning ko'rinishlari, savdolarni va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish, tabiiy monopoliya, tadbirkorlik subyektlarining o'zaro raqobatlashuvida

reklamanning o'rnini, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan mavzular yoritilgan.

Ushbu darslik mazkur fanning o'quv rejasi va dasturi talablari asosida yozilgan.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 1990-sonli qaroriga muvofiq Toshkent davlat yuridik universitetida qo'llanilayotgan o'quv jarayonini ta'lim berishning modulli tizimiga asoslangan holda tayyorlangan.

GLOSSARIY

Insafsiz raqobat – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlari.

Kelishib olingan harakatlar – tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har biriga oldindan ma‘lum bo‘lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlari

Konfident – tijorat sirini uning mulkdori bilan tuzilgan shartnoma asosida egalik qilishga va foydalanishga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Konsentratsiya – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta‘sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish.

Mahsulot – tovarlar, ishlar, xizmatlar.

Moliya bozori – banklar hamda boshqa kredit, sug‘urta va o‘zga moliya tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatning, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy bo‘linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida bunday xizmatni ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Raqobat – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.

Reklama – bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va texnologiyalar to‘g‘risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot.

Raqobatga qarshi harakatlar – raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi).

Tijorat siri – uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohaslarida hamda boshqa sohalarda tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot mulkdori uning maxfiyligini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi.

Tijorat sirini oshkor etish – tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning uchinchi shaxslarga bunday axborot mulkdorining yoki konfidentning roziligisiz yoxud mehnat shartnomasi (kontrakt) yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaga xilof ravishda, mumkin bo'lgan har qanday shaklda (og'zaki, yozma, boshqa shaklda, shu jumladan texnika vositalaridan foydalangan holda) ma'lum bo'lib qolishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlik.

Tijorat siri rejimi – tijorat siridan foydalanishni cheklaydigan huquqiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi – bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir.

Tovar kelib chiqqan joy nomi – mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy obyektning (bundan buyon matnda jo'g'rofiy obyekt deb yuritiladi) tovarni belgilash uchun ishlatiladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy obyektga xos tabiiy sharoitlar bilan yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nom.

Tovar bozori – tovarning (shu jumladan, bir-birining o'rnini bosadigan tovarning) O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida tovarni olish yoki realizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt – tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor.

1.1. Raqobat tushunchasi va uning qonunchilikda aks etishi

Asli iqtisodiy tushuncha bo'lgan raqobat tushunchasi haqida ko'p qirrali tasavvurlar mavjud bo'lib, mazkur tushunchani turlicha talqin etish hollari uchraydi.

“Raqobat” arabcha so'z bo'lib, “nazorat, kuzatish” ma'nolarini anglatadi¹. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur so'zga, iqtisodiy ma'noda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi(korxonalar)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda, o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurash, deb ta'rif berilgan².

“Raqobat” atamasi rus tilida “конкуренция”, ingliz tilida “competition”, nemis tilida “wettbewerb” shaklida uchraydi. Bu atamalarning barchasi lotin tilidan kelib chiqqan “concurrentia” – “to'qnashuv” so'zidan kelib chiqqan. Umumiy ma'noda raqobat muayyan bir muhitda shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning nisbatan yaxshiroq natijalarga erishish uchun o'zaro musobaqalashuvini anglatadi³.

Raqobat bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmi bo'lib, u kompaniyalarning o'z tovarlari va xizmatlarini iste'molchilarga eng qulay narxlarda taklif qilishlarini rag'batlantiradi⁴.

Iqtisodchi olimlar K.Xoliqov va R.Do'sanovlarning fikricha, raqobat – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o'z mavqeyini mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imidjga ega bo'lish uchun kurashdan iborat jarayondir⁵.

N.Beknozovning ta'kidlashicha esa, raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi¹.

¹ Ўзбек тилининг изохли лугати. А.Мадвалиев тахрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат миллий нашриёти. – Тошкент, 2006–2008. – 360-бет.

² O'sha ma'lumot.

³ Иллюстрированный энциклопедический словарь (электронное издание, воспроизведенное по изданию 1995 года). – М., 1997.; Xuddi shu mazmundagi izoh ingliz lug'atlarida ham keltiriladi: Longman dictionary of contemporary English. – Edinburgh, 2001. – P. 270.

⁴ DG COMP website at http://ec.europa.eu/competition/antitrust/overview_en.html.

⁵ Холиков К.О., Дўсанов Р.Х. Рақобат: назарияси, шакллари ва усуллари. Илмий рисола. ТермДУ. “Молия” кафедраси, 2009. – Б.6.

¹ Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Mas'ul muharrirlar: I.f.d., prof. J.T.Ro'ziyev. – T., 2005. – B.170.

Tom ma'noda raqobat tovar oldi-sotdisi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda bozor qatnashchilari o'rtasidagi o'zaro kurash demakdir. Raqobat tovarlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi hamda ishlar bajaruvchilarni olg'a intiluvchi kuch, bozordagi tovarlar, ishlar va xizmatlarning sifatiga hamda narxiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm hisoblanadi.

Raqobat narxlarning pasayishini ta'minlaydi, iste'molchilar uchun tanlov doirasini kengaytiradi, shuningdek samaralilik va yangilikka intiluvchanlikni rag'batlantiradi².

Raqobatning mavjud bo'lmashligi raqobatga zid xatti-harakatlarning sodir etilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazadi, balki iste'molchilar huquqlarining ham poymol bo'lishiga olib keladi.

Ayni shu masalada, butun Yevropa Ittifoqi hamda dunyoda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan holatlardan biri keltirib o'tish o'rindir.

Yevropaning vitamin ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mashhur kompaniyalaridan bo'lgan Shveysariyaning Hoffman-La Roche, Germaniyaning BASF va Merck, Fransiyaning Aventis SA, Gollandiyaning Solvay Pharmaceuticals va Yaponiyaning Daiichi Pharmaceuticals, Esai va Takeda Chemical Industries kompaniyalari Yevropa hududida o'n yillar davomida o'zaro kelishgan holda harakatlanishgan. Ular savdo hajmi haqidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda almashinib turganlar, narxlarni kelishib olganlar, yillik daromadlar va ishlab chiqarish hajmi monitoringini amalga oshirganlar hamda aynan shu kelishib olingan harakatlari uchun ham jazolanganlar. Tadbirkorlik subyektlarining mazkur kelishib olingan harakatlari 2001-yilda yuqori miqdordagi jarimaga tortilishlariga sabab bo'lganligi bilan tarixda qolgan. O'sha paytda, ya'ni 2001-yilda yuqorida sanab o'tilgan kompaniyalar 1 milliard yevro jarimaga tortilganlar. Xususan, jarimaning eng katta qismi Shveysariya kompaniyasi hissasiga tushgan bo'lib, jarima miqdori – 462 million yevroni tashkil etgan edi³.


Asosan iqtisodchilar, moliyachilar hamda marketologlar diqqat-markazida bo'lgan raqobat nafaqat iqtisodiy kategoriya, balki yuridik kategoriya hamdir.

Raqobatni yuridik kategoriya sifatida o'rganish uchun har tomonlama asosimiz bor. Xususan, 2012-yil 6-yanvardagi O'RQ-319-sonli O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu Qonunning maqsadi tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi

² Moritz Lorenz. An introduction to EU competition law. Cambridge University Press, 2013, – P.1.

³ Кондратьева Н.Б. Конкуренция в ЕС: экономика, политика, право / Н.Б.Кондратьева; Институт Европы РАН. – М.: Рус. сувенир, 2009. – С.6. – (Доклады Института Европы. №248). – ISBN 978-5-91299-078-6.

munosabatlarni tartibga solishdan iborat, deb belgilangan. Qonunning 4-moddasida raqobat tushunchasiga huquqiy ta'rif berilgan. Unga ko'ra, raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi, deb ta'riflangan.



“Raqobat to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyekt deganda, tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor tushuniladi.

Bundan kelib chiqadiki, raqobat – bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) tovarlar oldi-sotdisi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishida sifat, narx, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish darajasini belgilash orqali bozorda kengroq o'rin egallashga qaratilgan faoliyatidir.

Raqobat tushunchasining aksi sifatida “monopoliya” tushunchasini kuzatishimiz mumkin. Mazkur termin yunon tilidan olingan bo'lib, mono – “tanho”, poleo – “sotaman” degan ma'nolarni anglatadi.

Monopolistik faoliyat esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining raqobat faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga xilof bo'lgan, raqobatga yo'l qo'ymaslikka, raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligidir.

Joriy qonunchiligimizga binoan, monopolistik faoliyat tushunchasiga legal ta'rif mavjud emas. Ammo “Raqobat to'g'risida”gi Qonunda “Raqobatga qarshi harakatlar”deb nomlangan alohida bob mavjud bo'lib, unda ustun mavqeni suiiste'mol qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning

raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini taqiqlash, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlarini taqiqlash, insofsiz raqobatni taqiqlash kabi institutlar, shuningdek "savdolarni va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish" deb nomlangan bobda tanlov (tender) savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar, birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish, qo'shib yuborish va qo'shib olishga doir monopoliyaga qarshi talablar, aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishda monopoliyaga qarshi talablar, oldindan rozilik olish tartibi, jismoniy shaxsning xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv organlaridagi ishtiroki, xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish kabi subinstitutlarda aks ettirilgan.

Mazkur holat yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, garchi qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri monopolistik faoliyat tushunchasi keltirib o'tilmagan bo'lsa-da, mohiyatan monopolistik faoliyatga qarshi institutlarga oid normalar aks ettirilgan.

Shu o'rinda raqobat tushunchasiga xorij davlatlari qonunchiligida berilgan ta'riflarni ko'rib chiqish ham maqsadga muvofiqdir. Xususan, Yaponiyaning 1993-yil 19-maydagi "Insofsiz raqobatning oldini olish to'g'risida"gi 47-sonli Qonuni¹ mavjud. Mazkur qonunning maqsadi biznes vakillari o'rtasida adolatli raqobatni hamda bu boradagi tegishli xalqaro kelishuvlarning bajarilishini ta'minlash, shu bilan birga, insofsiz raqobatning oldini olish choralarini ko'rish va insofsiz raqobat natijasida yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish, buning natijasida esa xalq xo'jaligining sog'lom rivojlanishiga hissa qo'shish hisoblanadi. Mazkur qonunni tahlil qiladigan bo'lsak, unda raqobat tushunchasining legal ta'rifini uchratmaymiz. Ammo insofsiz raqobatni o'zida aks ettiruvchi harakatlar sanab o'tiladi. Bunda yapon qonunchiligi insofsiz raqobatning oldini olish va unga qarshi kurashish orqali adolatli raqobatni ta'minlash yo'lini tutadi.

Koreya Respublikasining 1961-yil 30-dekabrda qabul qilingan 2011-yil 30-iyundagi 10810-son Qonun bilan o'zgartishlar kiritilgan "Insofsiz raqobatning oldini olish va tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni № 911-son²da ham raqobat tushunchasining ta'rifi keltirilmagan bo'lsa-da, ammo insofsiz raqobatni qaysi harakatlarda ifodalanishi tasniflangan.

¹ Unfair Competition Prevention Act (Act No. 47 of May 19, 1993, as amended up to Act No. 30 of April 30, 2009. <http://www.wipo.int>

² Unfair Competition Prevention and Trade Secret Protection Act (Act No. 911 of December 30, 1961, as amended up to Act No. 10810 of June 30, 2011. <http://www.wipo.int>

Ayni holatda Yaponiya va Koreya Respublikasining bu boradagi yondashuvining o'xshashligining guvohi bo'lamiz.

Hozirgi paytda bu boradagi qonunlarning nomlanishida dunyoda yagona standart mavjud emas. Qonunlarning nomlanishi, qoida tariqasida, qonunlarning maqsadi va ularning mamlakat qonunchiligi iyerarxiyasida egallagan o'rniga, shuningdek mamlakatning qonunchilik an'analriga bog'liq¹.

Butun dunyoda barcha davlatlar tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida hamda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash uchun raqobat to'g'risidagi qonunchilikni shakllantirishga keng e'tibor qaratiladi. Bu turdagi qonunlar barcha davlatlarning qonunchilik tizimidan muhim o'rin egallagan.


Misol uchun, 1889-yilda qabul qilingan Kanadaning² antimonopol qonuni raqobat borasidagi qonun shaklidagi hujjatlarning birinchisi deyish mumkin. Mazkur qonun raqobatni rag'batlantirish va Kanadaning dunyo savdosiga chiqishini maqsad qilib qo'ygan edi. Raqobatni muhofaza qilishga doir dastlabki qonunlar AQSHda Fuqarolar urushi tugashi bilan qabul qilingan. AQSH qonunchiligiga ko'ra bunday turdagi qonunlar antitrust qonunlari sifatida qayd etiladi. Bu ingliz tilidagi "Antitrust Law" atamasi asosida vujudga kelgan. Bunday qonunlarning birinchisi Merilend shtatida 1867-yilda qabul qilingan qonun hisoblanadi. 1890-yilda AQSHda "Sherman qonuni" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan Federal qonun kuchga kirgan. Mazkur qonunga ko'ra, shtatlararo savdo aloqalarini cheklashga qaratilgan bitimlarni tuzish, muayyan turdagi tovarlar savdosida monopolistik faoliyatni vujudga keltirish taqiqlab qo'yilgan.

Yevropada esa bu boradagi dastlabki qonun 1923-yilda Germaniyada qabul qilingan. Bu qonunning qabul qilinishiga sabab xususiy sektordagi tadbirkorlar tomonidan narx-navoning haddan ortiq oshirib yuborilgani edi. Lekin bu qonun iqtisodiy jarayonni deyarli tartibga sola olmagan.

G'arbiy Yevropada tom ma'nodagi antimonopol qonun 1950-yillarda vujudga keldi. 1958-yil 1-yanvarda Yevropa iqtisodiy ittifoqini tashkil etish to'g'risida Rim shartnomasi kuchga kirdi. Mazkur shartnomadagi raqobatni muhofaza qilishga qaratilgan normalar hozirgi kunga qadar ham a'zo davlatlar huquq normalaridan ham ustun turuvchi normalar hisoblanadi.

¹ Типовой закон о конкуренции. Серия документов ЮНКТАД по проблематике законодательства и политики в области конкуренции // Проект комментариев к возможным элементам статей типового закона и типовых законов. Женева. 2000. с.20., <http://www.un.org>

² Закон Канады «О предотвращении и подавлении объединений, направленных на ограничение торговли» ("Act for the prevention and suppression of combinations formed in restraint of trade", <http://www.mccarthy.ca>



Rim shartnomasi raqobatga zid xatti-harakatlarni taqiqlovchi ikki holatni o'zida aks ettirgan:

Raqobatga zid kelishuvlarni, assotsiatsiyalar, kompaniyalarning raqobatga zid qarorlari, raqobatga zid kelishib olingan xatti-harakatlarni taqiqlash, shuningdek, assotsiatsiya va kompaniyalarning yo'l qo'yilishiga ruxsat beriladigan kelishuvlari haqida qayd etilgan

Tovar bozorlarida kompaniyalarning ustun mavqeni suiste'mol qilishini taqiqlashga doir holat.

Dunyo miqyosida raqobatni huquqiy tartibga solish borasidagi normalarni 1883-yildagi Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasida ham uchratish mumkin. Xususan, mazkur konvensiyada insofsiz raqobat tushunchasiga ta'rif berilgan. Ushbu konvensiyaning 10-bis moddasiga ko'ra, Ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlar a'zo davlatlarning fuqarolarini insofsiz raqobatdan samarali himoya qilishini ta'minlash shart.

Mamlakatimizda raqobat tushunchasining legal ta'rifi mavjudligi ijobiy holat hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mazkur tushunchaning yuridik ma'nosi bilan birgalikda iqtisodiy kategoriya sifatidagi ahamiyatini ham unutmashlik maqsadga muvofiqdir.

1.2. Raqobat huquqining tushunchasi, predmeti, prinsiplari, tizimi.

Raqobat huquqining manbalari

Raqobat huquqi iqtisodiy va huquqiy bilimlar kesishuvidan paydo bo'lgan huquq sohasi bo'lib, xususiy va ommaviy manfaatlarni muhofaza qilish maqsadidagi raqobat subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi hisoblanadi.

Raqobat huquqi atamasi raqobatni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va himoya qilish maqsadini nazarda tutib, o'zida ham ommaviy huquqiy, ham xususiy huquqiy institutlarni aks ettiradi. Mazkur institutlar raqobatning rivojlanish jarayoni, unda tadbirkorlar ishtiroki hamda himoyasi, iste'molchilar manfaatlarining inobatga olinishi kabilarni qamrab oladi.

Musobaqalashuvchi subyektlarning o'z iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini ishga solib, ijodkorlik va yaratuvchanlik ko'nikmalari asosida

erkin bozor sharoitida faoliyat yuritishlari, turli vositalar (chegirmalar, aksiyalar, bonuslar) yordamida bozor ishtirokchilarini jalb etishlari hamda bu borada o'z erk-irodalari (erk muxtoriyati)dan kelib chiqqan holda harakatlanishlari raqobatning xususiy elementlarini o'zida aks ettiradi.

Raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning davlat tomonidan belgilab qo'yilishi, musobaqalashuvchi subyektlarning raqobatga qarshi xatti-harakatlarining oldini olishga hamda bunday xatti-harakatlar sodir etilgan taqdirda tegishli choralar ko'rishni nazarda tutuvchi holatlarning belgilab qo'yilishi ommaviy xususiyatlarni qamrab oladi.

Raqobat huquqini huquq tarmog'i, yuridik fan va o'quv kursi sifatida talqin qilish mumkin.

Raqobat huquqi – huquq tarmog'i sifatida sog'lom raqobatni ta'minlash, insofsiz raqobat, ustun mavqeni suiiste'mol qilish hamda monopoliyaga qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tizimidan iborat.

Raqobat huquqi – yuridik fan sifatida raqobat huquqi institutlarini, raqobat huquqining asosiy tushuncha va tamoyillarini, shuningdek raqobat huquqi normalarini tadqiq etuvchi, o'zida huquqiy bilimlar bilan birgalikda iqtisodiyot hamda marketing qoidalarini qamrab olgan yuridik fandır.

Raqobat huquqi fanini o'qitishdan maqsad, raqobat huquqining nazariy jihatlarini o'rganish hamda raqobat faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil etishdan, raqobat sohasidagi huquqiy institutlar va jarayonlarni tavsiflash, izohlash va bashorat qilish, raqobat faoliyatining huquqiy tartibga solinishi real holatini aniqlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqobat muhitini mustahkamlovchi huquqiy himoya usullarini hamda tadbirkorlar faoliyatida raqobat muhitini muhofaza qilishning yanada samarali muhofaza choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Raqobat huquqi fanining predmeti bo'lib, raqobat huquqiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, mazkur normalarning tadbirkorlar hamda ma'muriy organlar tomonidan amaliyotda qo'llanilishi, raqobat huquqining O'zbekistonda va xorijda rivojlanishi, raqobat huquqini o'rganish va takomillashtirish usullari, raqobatni huquqiy tartibga solish mexanizmlarining afzalliklar va nuqsonlarini o'zida aks ettiruvchi munosabatlarni tadqiq etish hisoblanadi.

Fanning nazariy asoslari sifatida "Davlat va huquq nazariyasi", "Tadbirkorlik (biznes) huquqi", "Fuqarolik huquqi", "Ma'muriy huquq" kabi fanlarni ko'rishimiz mumkin hamda raqobat huquqi fani bilan mazkur fanlar uzviy ravishda bog'liqdir.

Xususan, "Davlat va huquq nazariyasi" barcha huquq fanlari uchun nazariy asos hisoblansa, "Raqobat huquqi" uchun "Tadbirkorlik (biznes) huquqi" tayanch fan, o'ziga xos "alma mater" hisoblanadi. Faollik va samarali

tashabbuskorlikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatini harakatlantiruvchi kuch raqobat bo'lar ekan, raqobat institutiga oid normalari bilan, garchi umumiy rakursda bo'lsa-da, eng birinchi navbatda "Tadbirkorlik (biznes) huquqi" fani orqali tanishamiz. Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlari davomida o'zaro musobaqalashadilar, reklama qonunchiligiga rioya etadilar, iste'molchilar huquqlarini ta'minlashga intiladilar, agarda tadbirkorlik subyektlari bu boradagi tartib-qoidalarga rioya etmasalar, qonunchilik talablarini buzsalar monopoliyaga qarshi organ tomonidan tegishli ta'sir chorasi qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Fuqarolik huquqiga oid tushunchalar va institutlar ham Raqobat huquqida keng qo'llaniladi. Xususan, huquq subyektlari, bitimlar, bitimlarni haqiqiy emas deb topish shartlari, bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, shartnomaviy munosabatlarga oid normalardan Raqobat huquqida keng foydalaniladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan raqobat qonunchiligiga zid bo'lgan, ustun mavqening suiiste'mol qilinishiga olib keluvchi bitimlar tuzilishi holatlari qonunchiligimizda qayd etilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuzladigan bitimlarga oid umumiy qoidalar, bitimlarning haqiqiy emaslik shartlari va mazkur toifadagi bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlari, shartnoma taraflarining umumiy xarakterdagi huquq va majburiyatlari esa bevosita fuqarolik huquqi orqali o'rganiladi.

Raqobat huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solishda tegishli davlat organlarining ishtiroki talab etilar ekan, raqobat huquqini o'rganishda ma'muriy huquq fanining ahamiyati ham beqiyosdir. Chunki monopoliyaga qarshi organlarning vakolatlarini va boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarini aniq bilish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni tahlil qila olish qobiliyati ham juda zarur. Bu holat, ayniqsa, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini, tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzilishi hollari yuzaga kelganda yaqqol seziladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 178-moddasi "Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini, tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ham raqobat huquqiy munosabatlarga taalluqli normalar bor. Masalan, Jinoyat kodeksining 183-moddasi "Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlanadi. Bundan kelib chiqadiki raqobat huquqi jinoyat huquqi bilan ham bog'liq ekan.

Shuni qayd etish lozimki, mazkur fanni o'rganishda iqtisodiyot, marketing, menejmentga oid bilimlarning zaruriyati ham sezilarlidir.



Raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi barcha huquq normalari raqobat huquqining manbasini tashkil etadi.

Raqobat huquqi manbalari o'z navbatida bozordagilar raqobatchilar faoliyati va ularning o'zaro faoliyati, potensial raqobatchilar faoliyati, bozordagi subyektlar tarkibini davlat tomonidan tartibga solish, monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatni cheklab qo'yish, iqtisodiy konsentratsiyalarning antimonopol nazorati, vayron etuvchi xorijiy raqobatning oldini olish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va turli imtiyozlarni taqdim etish, bozorga kirish va undan chiqishdagi to'siqlarni nazorat qilish kabi masalalarni tartibga solishi maqsadga muvofiqdir.

Raqobat huquqini tartibga solish ikkiyoqlama xarakterga ega, ya'ni raqobat huquqiy munosabatlar ham ommaviy-huquqiy, ham xususiy-huquqiy xarakterdagi normalar bilan tartibga solinadi. O.R.Chudinov mazkur holatni raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi dixotomiya (ikkiyoqlamalik)¹ deb ataydi. Unga ko'ra, birinchi tarafdin, davlat antimonopol xatti-harakatlar (bizning qonunchiligimizga ko'ra, raqobatga zid xatti-harakatlar)ni taqiqlovchi normalar davlat tomonidan mustahkamlanadi, ikkinchi tarafdin esa, davlat organining raqobat qonunchiligi buzilgan taqdirda vujudga kelgan nizolarni xususiy-huquqiy normalardan foydalangan holda hal etishi tushuniladi. Misol uchun, yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda tovarni realizatsiya

¹ O.P.Чудинov. Дихотомия в регулировании конкурентных отношений правом Франции. – vestnik.pstu.ru.


qilinsa, huquqi buzilgan taraf insofsiz raqobatga yo'l qo'yilganligi tufayli xo'jalik sudiga murojaat qilganda, davlat organi bo'lgan sud mazkur masalani ko'rib chiqib huquqlari buzilgan tarafning huquqlarini tiklab beradi. Mazkur vaziyatlarda tadbirkorlik subyektini o'zining haqligini isbotlash uchun xususiy huquq normalaridan foydalanadi, davlat organi esa betaraf, xususiy subyektlar o'rtasidagi nizoni hal etuvchi sifatida ishtirok etadi.

Barcha huquq sohasidagi normalar umumiy hamda maxsus ko'rinishdagi normalarga bo'linar ekan, raqobat huquqi normalarini ham bu qoidadan istisno qila olmaymiz. Ma'lumki, umumiy normalar, odatda, umumiy xarakterdagi munosabatlarni tartibga solish, asosiy tushunchalar va qoidalarni belgilab berish kabi funksiyalarni bajaradi. Maxsus normalar esa nisbatan aniq belgilangan doiradagi munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqning asosiy masalalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, qonunlar va qonunosti hujjatlari umumiy masalalarni tartibga soluvchi normalarga misol bo'lsa, bevosita raqobat huquqiy munosabatlarga taalluqli normalar raqobat huquqining maxsus normalari sanaladi.

Hozirgi paytda, raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi eng asosiy maxsus qonun bu 2012-yil 6-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-319-sonli Qonunidir. Mazkur qonun 7 ta bob 40 ta moddadan iborat.

Mustaqil O'zbekistonning raqobat qonunchiligining ilk tartibga solinishi 1992-yil 2-iyuldagi "Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonunga borib taqaladi.



Keyinchalik mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi hamda diversifikatsiyalanishi, tovar va moliya bozorlarining yanada rivojlanishi, sog'lom raqobatni shakllantirish vazifasining dolzarblashuvi natijasida mavjud qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Buning natijasida, 1996-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risidagi"gi Qonun qabul qilindi.

2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonunning o'rniga mutlaqo yangi ko'rinishdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklifini ilgari surildi.

"Hamimiz yaxshi tushunamizki, bozor munosabatlarining asosi bo'lgan raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o'ynaydi. Ammo amaldagi "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonun bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni e'tiborga olgan holda, "Raqobat to'g'risida"gi yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz zarur. Ushbu qonunda monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solishni nazarda tutish lozim. Shuningdek, birja savdolarida ham monopoliyaga qarshi mexanizmlarni, aksiyalarni sotib olish, qo'shish va birlashtirish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo'yicha normalarni ushbu qonunga kiritish maqsadga muvofiqdir!" degan edi I.A.Karimov o'z nutqida.

Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 14-noyabrda "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, Senat tomonidan 2011-yil 5-dekabrda ma'qullandi. Ushbu qonun 2012-yil 6-yanvarda prezident tomonidan imzolanib, 2012-yil 7-yanvarda matbuotda rasman e'lon qilindi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda davlat sektorining yetakchiligi yoki haqli ravishda monopol ekanligini inobatga olgan holda, texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emasligi jihatidan yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi tabiiy monopoliyalarning mavjud bo'lishini hamda tabiiy monopoliyalarni tartibga soluvchi huquqiy asos yaratilishini taqozo etadi. Ayni shu maqsadda, 1997-yil 27-aprelda

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза, 2010 йил 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. 1999-yil 19-avgustda esa mazkur qonun "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga asosan yangi tahrirda tasdiqlandi.

Raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga solishda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan "Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish hamda tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-dekabrda 344-son qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to'g'risida"gi nizom bu borada muhim qonunosti hujjatlaridandir.

Shuningdek, bevosita raqobat huquqiy normalarni tartibga soluvchi normalarni ham raqobat huquqining umumiy masalalarini hal etuvchi, shuningdek raqobat huquqining maxsus institutlarini tartibga soluvchi normalarga bo'lishimiz mumkin.

Raqobatga oid umumiy qonunchilik normalarining umumiy hamda maxsus xarakterdagi normalarga tasniflanishi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi № O'RQ-319-sonli "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, mazkur qonunning 1-bobi "Umumiy qoidalar" deb nomlangan. Unda bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar, insofsiz raqobat, iqtisodiy konsentratsiya, iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish, kamsituvchi shartlar (sharoitlar), kelishib olingan harakatlar, moliya bozori, noto'g'ri taqqoslash, raqobat, raqobatga qarshi harakatlar, tovar, tovar bozori, xo'jalik yurituvchi subyekt kabi tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan.

Maxsus normalar sifatida esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan "Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar

guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish hamda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan "Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish hamda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomlarni misol keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqobat huquqi fani raqobat huquqining asosiy tushunchalarini, raqobat huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organlari, ustun mavqeni suiiste'mol qilishga oid masalalar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari tavsifi, tanlov(savdo)lar o'tkazishda monopoliyaga qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari, insofsiz raqobatning belgilari, raqobat muhitida reklama to'g'risidagi qonunchilikning ahamiyati, chet el raqobatchilarining salbiy harakatlaridan milliy bozorni himoya qilishning huquqiy asoslari, iqtisodiy konsentratsiyani davlat tomonidan nazorat qilish usullari, raqobat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik turlari, monopoliyaga qarshi va tabiiy monopoliyani nazorat qiluvchi organning raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishga doir masalalarning huquqiy asoslarini o'rganish hamda nazariy jihatdan tahlil qilish masalalarini o'z ichiga qamrab oladi.

1.3. Raqobat huquqining zamonaviy bozor munosabatlaridagi ahamiyati

Zamonaviy sharoitda bozor munosabatlarining samarali rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tizimining sifatiga bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning sog'lom hamda barqaror bo'lishini ta'minlab beruvchi omillardan biri bu raqobatdir. Bugungi kunda mamlakatimiz tovar va moliya bozorlarida raqobatning amal qilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi yaratilgan hamda ular hozirgi kunda ham takomillashtirilmoqda.

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi¹.

Raqobatning bir qator ijobiy xususiyatlari mavjud bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, bozor talablariga javob bermaydigan tovarlar, ishlar, xizmatlar sifat va narx jihatdan talabga javob bermasa o'z-o'zidan bozorni tark etadi. Bu orqali raqobatning sog'lomlashtirish funksiyasi namoyon bo'lib, raqobatbardosh bo'lmagan subyektlardan bozor tozalanadi;

ikkinchidan, raqobat rag'batlantirish xususiyatiga ega. Bunda raqobatlashuvchilar nisbatan yaxshiroq sifat va mutanosib narxni shakllantirish uchun tinimsiz ravishda o'z tovarlari (ishlar, xizmatlar)ning sifatini yaxshilashga intiladi. Shuni qayd etish lozimki, ko'pchilik holatlarda, ma'muriy ta'sir etish vositalariga nisbatan xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro raqobati tovarning narxi va sifatiga samaraliroq ta'sir ko'rsatadi;

uchinchidan, raqobat orqali iste'molchilarning manfaatlari ham ta'minlanadi. Agar bozorda raqobat mavjud bo'lmasa, tabiiyki, iste'molchida tanlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Raqobatning mavjudligi hamda muqobil tovarlar, ishlab chiqaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilarning mavjudligi iste'molchi uchun tanlov maydonini yuzaga keltiradi.

Raqobat muhitining muhofaza etilishi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida musobaqalashuvchi shaxslarning mustaqil va tashabbuskor faoliyat olib borish erkinligi ta'minlanadi, tadbirkorda o'ziga xos "kim o'zar"likka intilish hissi kuchayadi.

Bugungi kunda raqobat huquqi borasida yuristlarga ehtiyoj o'sib bormoqda, bu holat qonunchilik normalarining takomillashayotgani hamda murakkablashayotgani, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanayotgani va ular o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayayotgani, ma'muriy hamda sud amaliyotining ko'payayotganligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan kelib chiqib, bugungi kunda ushbu sohada faoliyat olib borayotgan yuridik soha mutaxassisligida raqobat huquqi fanining o'qitilishi zamon talabidir.

¹ Бosh мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамадан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодийотимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир // Ўзбекистон Республикаси Бириччи Президенти Ислам Қаримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда иқтисодий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган вазирлар маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. 16.01.2016. <http://uz.uz/uz/politics/>

1.4. Raqobat huquqiy munosabatlar tushunchasi va uning turlari

Har bir huquq sohasining tartibga solinadigan munosabatlari bo'lgani kabi raqobat huquqining ham tartibga solinadigan munosabatlari mavjud. Mazkur munosabatlar raqobat huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, raqobat huquqining predmetini raqobat huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Raqobat huquqiy munosabatlar boshqa huquqiy munosabatlardan o'zining subyekti, obyekti va mazmuni bilan farq qiladi.

Raqobat huquqiy munosabatlarning subyektlari mazkur munosabatda ishtirok etuvchilar hisoblanadi, raqobat huquqiy munosabatlarning obyekti bo'lib esa raqobat huquqiy munosabatlar subyektlarining diqqat-markazida bo'lgan masalalar hisoblanadi.

Raqobat huquqiy munosabat obyekti bu mazkur munosabat subyektlarining e'tibori qaratilgan tovarlar, ishlar va xizmatlardir. Bunda tovarlar deganda, faqat moddiy ne'matlarni tushunmaslik lozim. "Raqobat to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, tovar – faoliyatning olish va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan mahsuli, shu jumladan ishlar va xizmatlardir. Demak, raqobat huquqida tovar deganda, biz moddiy ne'matlar bilan birgalikda, bajariladigan ishlar va xizmatlarni ham tushunishimiz lozim. Raqobat huquqiy munosabat ishtirokchilarining mazkur munosabat obyektiga nisbatan amalga oshiradigan xatti-harakatlari esa raqobat huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Raqobat huquqiy munosabatning mazmuni deganda, mazkur munosabat subyektlarining huquq va majburiyatlari e'tirof etiladi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro musobaqalashuv jarayonida qanday huquqlarga ega ekanligi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritishlari uchun qanday majburiyatlarga egaliklari, shuningdek, monopoliyaga qarshi organning hamda raqobat huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan boshqa organlarning huquqlari hamda majburiyatlari tushuniladi.

Raqobat huquqi o'zida ham ommaviy, ham xususiy elementlarni aks ettirar ekan, raqobat huquqiy munosabatlar ham ommaviy-huquqiy, ham xususiy-huquqiy xarakterga. Mazkur holatni raqobat huquqiy munosabatlarning alohida turlarini tasniflaganimizda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonun mohiyatidan kelib chiqqan holda, raqobat huquqiy munosabatlarni quyidagicha tasniflaymiz:

1. davlat tomonidan raqobatning tartibga solinishi bilan bog'liq munosabatlar;
2. raqobatga qarshi harakatlarni cheklashga qaratilgan huquqiy munosabatlar;

3. savdolari va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solishga oid huquqiy munosabatlar;

4. tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar;

5. raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning oldini olishga qaratilgan huquqiy munosabatlar.

Raqobat huquqiy munosabatlarni quyidagi turdagi huquqiy munosabatlarga tasniflash mumkin:

1. Davlat tomonidan raqobatning tartibga solinishi bilan bog'liq munosabatlar;

2. Davlat tomonidan raqobatning tartibga solinishi bilan bog'liq munosabatlar;

3. Savdolari va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solishga oid huquqiy munosabatlar;

4. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar;

5. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishni oldini olishga qaratilgan huquqiy munosabatlar.

Davlat tomonidan raqobatning tartibga solinishi bilan bog'liq munosabatlar deganda, raqobatni tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishida davlat organlarining ishtiroki va raqobat munosabatlarida ishtirok etuvchi davlat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirishlari bilan bog'liq munosabatlar tushuniladi.

Aynan mazkur turdagi munosabatlar raqobat huquqining ommaviy-huquqiy elementini o'zida aks ettiradi.

Raqobatga qarshi harakatlarni cheklashga qaratilgan huquqiy munosabatlar deganda, ustun mavqeni suiiste'mol qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari, shuningdek insofsiz raqobatni taqiqlash hamda mazkur holatlarga qarshi kurashishga oid huquqiy munosabatlar nazarda tutiladi.

Protsessorlar ishlab chiqaruvchi Intel kompaniyasi kompyuterlar ishlab chiqaruvchi zavodlarga subsidiyalar ajratganlar. Buning evaziga esa ular turli texnologiyalarni yetkazib beruvchi boshqa zavodlar bilan aloqani uzishlari lozim bo'lgan va shunday ham qilganlar. 2009-yilda Intel kompaniyasi 1 mlrd. yevro jarimaga tortilgan¹.

¹ Кондратьева Н.Б. Конкуренция в ЕС: экономика, политика, право / Н.Б.Кондратьева; Институт Европы РАН. – М.: Рус. сувенир, 2009. – С.7. – (Доклады Института Европы. №248). – ISBN 978-5-91299-078-6.

Savdolarini va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solishga oid huquqiy munosabatlar deganda, tanlov (tender) savdolariga doir, birja savdolariga doir, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish, qo'shib yuborish va qo'shib olishga doir hamda aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishda monopoliyaga qarshi talablarni amalga oshirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar ko'zda tutiladi.

Nintendo kompaniyasi va uning yettita distribyutorlari Yevropa Ittifoqining yagona bozorini "bo'lib olganlari"lari va iste'molchilar ko'proq pul to'lay oladigan joylarda narxlarni asossiz haddan tashqari oshirib yuborganliklari uchun 1990-yillarda 168 million yevro jarimaga tortilganlar. Bu g'ayriqonuniy kelishuvning ishtirokchilari o'yin jihozlarining turli tillardagi tarjimalarga tabiiy zarurat mavjudligidan foydalanib, turli tillardagi versiyalar narxi o'rtasidagi farqni sezilarli ravishda saqlab turish imkonini topganlar. Mavjud tovarning nemis tilidagi namunalari cheklanganligi sababli Germaniyadagi tovarning narxi Buyuk Britaniyadagi ayni shu tovarning narxidan 65 foizga qimmat edi. Narxlar o'rtasidagi farqni tovarni Buyuk Britaniyadan sotib olib, Germaniyada sotadigan mustaqil dillerlar orqali bartaraf etish mumkin edi. Nintendo esa bunday firmalarning vujudga kelishiga to'sqinlik qilgan!

Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar deganda, vakolatli davlat organining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, tovar bozorlarida tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish, iste'molchilar, davlat va tabiiy monopoliya subyektlari manfaatlarining mutanosibligini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar tizimi tushuniladi.

Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishni oldini olishga qaratilgan huquqiy munosabatlar deganda, raqobat, reklama, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, tabiiy monopoliyalar faoliyatiga oid qonun hujjatlarining buzilishi, bu boradagi tegishli organlarning vakolatlari, mazkur holatlar sodir bo'lganda qo'llaniladigan ta'sir choralari va tegishli huquqiy javobgarlikka tortishga oid huquqiy munosabatlar nazarda tutiladi.

¹ Кондратьева Н.Б. Конкуренция в ЕС: экономика, политика, право / Н.Б.Кондратьева; Институт Европы РАН. – М.: Рус. сувенир. 2009. – С.7. – (Доклады Института Европы. №248). – ISBN 978-5-91299-078-6.

Nazorat savollari:

1. Raqobat tushunchasining yuridik kategoriya sifatidagi xususiyatlarini tavsiflab bering.
2. Raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga solish bilan O'zbekiston Respublikasining raqobat huquqiy munosabatlar bilan bog'liq qonunchilik va ularning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Raqobat huquqining boshqa huquqiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligini izohlang.
4. Raqobat huquqiy munosabat turlarini tavsiflang.

1-kazus

Futbol koptoklari ishlab chiqaruvchi "Nargiz" MChJ va "Nurbek" MChJ o'z koptoklarining tannarxi 9500 so'm bo'lgan holatda, ushbu koptoklarning narxini 9870 so'm sifatida bozorga kiritish hamda koptoklarning narxini bu summadan oshirmaslikka o'zaro kelishib oldilar. Bozordagi boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif etilayotgan narx 12000 so'mdan kam bo'lmaganligi sababli bir hafta davomida ular tomonidan ishlab chiqarilgan koptoklar xaridi keskin ravishda tushib ketdi.

Savol: Sizningcha, "Nargiz" MChJ va "Nurbek" MChJning xatti-harakatlarida qonunchilikka zid holat mavjudmi? Mazkur holat "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning tegishli normalari bilan tartibga solinishini izohlang.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Qo'l terisi uchun yumshatuvchi kremlar ishlab chiqaruvchi "Umida" MChJ javobgar "Sezam" MChJning ustidan Xo'jalik sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qildi. Da'vogar "Umida" MChJ 2010-yildan beri bozorga "Baxmal qo'llar" nomi ostida qo'l terisi uchun yumshatuvchi kremlar ishlab chiqarayotganligi, 2014-yil may oyidan javobgar "Sezam" MChJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan "Mayin qo'llar" nomi ostidagi shu turkumdagi kremlarni "Umida" MChJning mahsulotlari bilan bir xil o'ramlarda hamda bir xil hajmdagi idishlarda qadoqlayotganligini ma'lum qilib, javobgar "Sezam" MChJni insofsiz raqobatda aybladi

Savol: Sizningcha, intellektual mulk obyektlariga nisbatan raqobat qonunchiligi qo'llaniladimi? Mazkur holatda insofsiz raqobat elementlari mavjudmi?

Yuqoridagi holatga huquqiy baho bering.

II BOB. MONOPOLIYAGA QARSHI ORGANLAR

2.1. O‘zbekistonda raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat organi

Har bir davlatda raqobat qonunchiligi ijrosini ta‘minlash hamda monopoliyaga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi o‘zining maxsus vakolatli organlari faoliyat yuritadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, monopoliyani tartibga solish va unga qarshi kurashish uchun nafaqat mustahkam qonunchilik bazasi, balki aholining, ishbilarmon doiralarning, tadbirkorlik subyektlarining va davlat organlarining ochiqchilik va shaffoflik, mustaqillik asosida faoliyat olib boradigan monopoliyaga qarshi kurashuvchi organga bo‘lgan ishonchi ham lozim bo‘ladi.

Turli raqobatga qarshi harakatlarning jamiyatga keltiradigan zararlarini salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ko‘pgina davlatlarda monopoliyani tartibga soluvchi qonunchilikka rioya etishni nazorat qilish uchun turli maxsus organlar orqali amalga oshiradi.

Respublikamizda raqobat muhiti mavjud bo‘lgan iqtisodiyotda tadbirkorlik va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining erkin bo‘lishi, ularning istalgan tovarlar bozorida faoliyat ko‘rsatishlari va ushbu munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hisoblanadi.

Qabul qilingan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishdagi muhim vazifa sifatida xususiy mulkning ustuvor rolini kuchaytirish va xususiylashtirilgan obyektlar negizida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Xususiylashtirilgan korxonalarining mavjud ulkan iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga olgan holda, ishlab chiqarishni kengaytirish, eksportni jadallashtirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish hisobiga ular iqtisodiy o‘shishning lokomotivi bo‘lib qolishlari kerak. Xususiylashtirilgan korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yaqin yillarda respublika mintaqalari va butun mamlakatni rivojlantirishda kuchli omil bo‘lishini ta‘minlashi darkor. Bularning barchasi xususiylashtirilgan korxonalarni

qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq masalalarni hal etishni respublika Hukumatining va tashkil etilayotgan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining g'oyat muhim vazifalaridan biri etib qo'yganligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar samaradorligini tubdan oshirishni, xususiylashtirilgan korxonalar negizida amalga oshirilayotgan loyihalarni tizimli va manzilli qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, shuningdek, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vakolatli organlar faoliyatini zarur darajada muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 18-apreldagi PQ-2895-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarordan kelib chiqib, xususiylashtirilgan davlat mulki negizida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini sifat jihatdan o'zgartirishni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini xususiylashtirilgandan keyin amaliy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmonga asosan xususiylashtirilgan korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tiklash va samaradorligini oshirishni har tomonlama keng qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydigan yangi ish o'rinlarini yaratish, vakolatli davlat organlari, moliya hamda boshqa bozor tuzilmalarining Savdo-sanoat palatasi hamda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan mustahkam hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining g'oyat muhim vazifasi deb hisoblanishi belgilab berildi.

Masalan AQSH va Yevropa Ittifoqida bunday maxsus vakolatli organlar keng vakolatlarga ega bo'lgan mustaqil idoralar, Gretsiya, Shvetsiya kabi davlatlarda vazirliklar tizimida bo'lgan bir necha minglab xodimlarga ega bo'lgan monopoliyaga qurshi kurashuvchi boshqarmalar bo'lishi mumkin¹.

Ushbu farmonni ijro etish hamda qo'mitaga yuklatilgan asosiy vazifa va funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston

¹ <https://econolawresearch.wordpress.com>

Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 18-apreldagi PQ-2897-sonli qarori qabul qilinib, ushbu qarorga binoan tashkil etilgan qo'mitaning asosiy vazifalari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2.2. Monopoliyaga qarshi organning raqobat siyosatini amalga oshirishdagi roli

Monopoliyaga qarshi organlar turli sohalardagi, yana ham umumiy qilib aytganda tovar va moliya bozorida (asosan, raqobatga qarshi harakatlar, ustun mavqeni suiiste'mol qilish, iqtisodiy konsentratsiya, insofsiz raqobat, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga tashqi aralashuvlar) tabiiy monopoliyalar sohasida, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasida, ba'zi hollarda davlat xaridlarini tartibga solish, kapital qurilishda narx monitoringini olib borish, davlatning qo'llab-quvvatlashi orqali narxlarni tartibga solishda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiradi.

Shuning bilan bir qatorda farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

– tarmoqlar, hududlar va turli xususiylashtirish shakllari bo'yicha muttasil yangilanib turuvchi ma'lumotlar bazasini hamda xususiylashtirilgan obyektlar reyestrini, shuningdek, davlat aktivlari reyestrini shakllantirish;

– xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati moliyaviy-iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini soliq, iqtisodiyot va statistika organlari bilan birgalikda doimiy asosda tahlil qilib borish, buning asosida faoliyat ko'rsatmayotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarini, bo'sh yotgan va samarasiz foydalanilayotgan obyektlar hamda yer uchastkalarini aniqlash;

– ilgari xususiylashtirilgan korxonalar samaradorligining pastligi hamda ishlayotganligi sabablari va omillarini, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari, bo'sh yotgan va qurilishi tugallanmagan obyektlarni aniqlash;

– yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish va modernizatsiyalash hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ruxsat beruvchi hujjatlarni

olishda, kommunikatsiyalarga ulanishda va tijorat banklaridan kreditlar ajratilishida ularga ko'maklashish maqsadida aniq xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirishning "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlash;

– Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda xususiylashtirilgan obyektlar negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga biznes yuritish va biznes-rejalarni ishlab chiqish asoslari, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa fanlarni kasb-hunar kollejlari bazasida o'tkaziladigan kurslarda o'qitishni tashkil qilish, bunda tajriba almashish uchun respublikamizda ishlayotgan katta muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

– bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va yangi investorlarni jalb etish dasturlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda ishtirok etish;

– davlat aktivlarini boshqarish, davlat ulushiga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlari faoliyatini monitoring qilish va tahlil etish, ularda korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlari va metodlarini joriy etish, shuningdek davlat aktivlarini xususiy mulkdorlarga, shu jumladan, "nol" xarid qiymati bo'yicha sotishning ochiq-oydinligi va shaffofligini ta'minlash, investorlar tomonidan qabul qilingan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi ustidan monitoring olib borish;

– monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, raqobatni va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish, baholash, riyeltorlik va birja faoliyatini litsenziyalash, reklama bozorini tartibga solish;

– kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, rahbar va mutaxassislar, shu jumladan, idoraviy tuzilmalar rahbarlari hamda mutaxassislarining ish shakllari va uslublarini takomillashtirish, zimmasiga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun ularning mas'uliyatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining asosiy vazifalari:

➤ respublika iqtisodiyotida xususiy sektor o'rni va ahamiyatini tubdan oshirish hamda mazkur tarmoqda davlat ulushini yanada kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda, davlat korxonalari va tashkilotlarining, shu jumladan Davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan davlat korxonalari va tashkilotlari, shuningdek ustav fondlarida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining davlat mulki hisobini va reyestrini yuritishni ta'minlash;

➤ boshqaruvchi kompaniyalar va davlat ishonchli vakillarining davlat ixtiyoridagi, shu jumladan chet ellardagi mulkni samarali boshqarish yuzasidan faoliyati samaradorligi monitoringini olib borish;

➤ Davlat mulki (ulushlari) mavjud bo'lgan korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ularda zamonaviy menejmentni joriy etish, marketingni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

➤ bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va xususiy mulk ortishini rag'batlantiruvchi davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ korxonalarni keyinchalik xususiy mulk sifatida sotish uchun ularni xususiylashtirishdan keyin va sotishdan oldin samarali tayyorlashni joriy etish;

➤ davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investorlar o'rtasida respublikamizda ular uchun berilgan imtiyozlar va kafolatlar to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

➤ aksiyalarning davlat paketlarini va obyektlarini xususiylashtirish va sotish tartibotlarini maksimal darajada soddalashtirish va oshkoraliligini ta'minlash;

➤ aksiyadorlar, kuzatuv kengashlari va boshqa idoraviy organlarning davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishdagi, korxonalar ijroiya organlarining korxonalar faoliyati natijalari uchun mas'uliyatini oshirishdagi rolini tubdan oshirishga qaratilgan korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;

➤ qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy bazani soddalashtirish va oshkoraliligini ta'minlash, qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy barqaror investitsion tuzilmalarni rivojlantirish, uning infratuzilmasini mustahkamlash va zamonaviy moliyaviy yondashuvlarni joriy etish uchun qulay va zarur shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatimiz fond bozorini xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

➤ tizimli va samarali reklama-axborot ishlarini amalga oshirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish va sotish jarayonlarining oshkoraliligi va ochiqligini ta'minlashdan iborat bo'ladi.


Misol uchun, Meksikada telekommunikatsiya sohasida monopoliyaga qarshi siyosatni Telekommunikatsiyalar bo'yicha federal komissiya, Braziliyada Markaziy Bank moliya bozorlarida iqtisodiy konsentratsiya va raqobatga qarshi harakatlarda nazoratni amalga oshirish huquqiga ega. Italiyada bank sohasida monopoliyaga qarshi harakatlarni tartibga solish faqat Italiya banki tomonidan tartibga solinadi.

2.3. Monopoliyaga qarshi organning reklama faoliyatini tartibga solishdagi, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishdagi vakolatlari

Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash maqsadida 2005-yilning 12-oktabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 225-son qarori bilan "Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomi tasdiqlandi.

Ushbu Nizomga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi ishlarning O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining va uning hududiy organlari tomonidan ko'rib chiqilishining tashkiliy va huquqiy asoslari yaratildi.

Ushbu Nizomga binoan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi reklama faoliyatini tartibga solish sohasida:



2.4. Monopoliyaga qarshi organning huquqlari va javobgarligi hamda faoliyatini tashkil etish

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

✓ o'z vakolatlari doirasida xususiylashtirish, davlat mulkini boshqarish va tasarruf etish, baholash, birja va riyeltorlik faoliyatini litsenziyalash, monopoliyaga qarshi tartibga solish, raqobatni rivojlantirish, tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, reklama va bankrotlik, mol-mulkn va intellektual mulkn baholash standartlarini, birja standartlarini, riyeltorlik faoliyati, birja savdolari elektron tizimlari standartlarini, ustav fondida davlat ulushi bo'lgan, muassislaridan biri davlat organlari, davlat korxonalari va tashkilotlari bo'lgan davlat korxonalari, muassasalari va xo'jalik birlashmalarini tashkil etish (qayta tashkil etish, tugatish) masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va metodik materiallarni tasdiqlash hamda ko'rsatib o'tilgan hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish va ularni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish;

✓ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha sudlarga da'vo arizalari va arizalar berish, normativ-huquqiy hujjatlar qo'llanilishi va buzilishi bilan bog'liq ishlarni sudda ko'rib chiqish jarayonida qatnashish;

✓ davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlardan, shu jumladan tijorat banklaridan va boshqa tashkilotlardan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va materiallarni so'rash va bepul olish;

✓ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar buzilishi bilan bog'liq jinoyatlar belgilari bo'yicha jinoiy ish qo'zg'ash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun tegishli organlarga materiallarni yuborish;

✓ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitavakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha, shu jumladan korporativ boshqarishni, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, davlat aktivlarini samarali

boshqarish, monopoliyaga qarshi tartibga solish, raqobatni rivojlantirish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, bankrotlik va korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning davlat organlari va boshqa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish;

✓ davlat mulki obyektlarini xususiylashtirishdan, yangidan ta'sis etilayotgan davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotishdan tushgan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning hududiy organlarining maxsus g'aznachilik shaxsiy hisob raqamlarida jamlash, ularni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlash;

✓ davlatga tegishli aksiyalar (ulushlar)ni va mol-mulkni sotish, shuningdek ularni tashqi bozorlarda xo'jalik jamiyatlarining aksiyalariga (ulushiga) va mol-mulkiga almashtirish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;

✓ investorlar tomonidan investitsion va/yoki boshqa majburiyatlar bajarilishini, shu jumladan investitsiya qo'yish obyektiga borib o'rganish;

✓ muayyan davrga o'zaro majburiyatlar va xususiylashtirilgan obyekt faoliyati shakllari to'g'risida bitim tuzish;

✓ shu jumladan, nostrategik kompaniyalarda davlat aksiyalari paketlari (ulushlari), shuningdek boshqa mol-mulk hisobiga ustav fondlarini shakllantirish yo'li bilan yangi yuridik shaxslar tashkil etish, ularga o'zining investitsion jalb etuvchanligini oshirish vazifalarini yuklash.

✓ joyiga borgan holda xatlovdan o'tkazish va davlat mulkidan foydalanish samaradorligini tekshirish;

✓ idoraviy bo'ysunishdan, idoraviy bo'ysunish mavjud bo'lmaganda hududiy bo'ysunishdan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kengashlarga yoki xo'jalik jamiyatlarining yig'ilishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslariga, davlat boshqaruvi organlariga, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlariga asoslangan taqdimnomalar kiritish yo'li bilan ustav fondida davlat ulushi bo'lgan davlat korxonalari, xo'jalik jamiyatlari rahbarlarini almashtirish masalalari tashabbusi bilan chiqish;

✓ davlat unitar korxonalarida, ustav fondida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida tashabbus ko'rsatiladigan auditorlik tekshirishlari o'tkazish uchun auditorlik kompaniyalarini tanlov asosida aniqlash;

✓ aksiyadorlik jamiyatlari, boshqa xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining aksiyalarini (ulushlari, paylarini) sotib olish;

✓ amaliy tadqiqotlarni bajarish, ekspertiza o'tkazish, normativ-metodik hujjatlarni ishlab chiqish, ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarda modernizatsiyalash samaradorligini oshirish va marketingni rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot, auditorlik, advokatlik, konsalting tashkilotlarini va boshqa tashkilotlarni, mustaqil ekspertlarni shartnoma asosida jalb etish;

✓ korporativ boshqarish, menejment, moliya va qimmatli qog'ozlar sohasida ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ularni ustav fondida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining kuzatuvchi kengashlari tarkibiga kiritish uchun jalb etish;

✓ raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, bankrotlik va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish va qonun buzilishlarini aniqlash, ular bo'yicha ish qo'zg'ash va (yoki) ko'rib chiqish, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birjalar, baholash va riyeltorlik tashkilotlarini ular tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan tekshirish, qonun buzilishlaridan dalolat beruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda esa rejadan tashqari tekshirishlar o'tkazish;

✓ raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarni, davlat organlarini, ularning mansabdor shaxslarini va boshqa jismoniy shaxslarini tegishli javobgarlikka tortish;

✓ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlarga, davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga, sud boshqaruvchilariga raqobat, tabiiy monopoliyalar, bankrotlik, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish va (yoki) ularning oqibatlarini bartaraf etish, dastlabki holatni tiklash to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, shuningdek berilgan ko'rsatmalar bajarilishini nazorat qilish;

✓ ustunlik mavqeyini egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish zarurligi to'g'risida ko'rsatma berish, shuningdek ko'rsatib o'tilgan ko'rsatmalar ular tomonidan bajarilmagan taqdirda ustunlik mavqeyini egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ularni ajratib chiqarish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilish;

✓ berilgan vakolatlar doirasida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

✓ xo'jalik yurituvchi subyektlarga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va ularning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda jarimalar solish;

✓ raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi ishlari bo'yicha qarorlar qabul qilish, shu jumladan raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi natijasida asossiz ravishda olingan daromadni (foydani) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlardan olib qo'yish va (yoki) iste'molchilarga qaytarish, shuningdek jarima solish to'g'risida qaror qabul qilish;

✓ iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini belgilangan tartibda tahlil qilish (o'rganish, ko'rikdan o'tkazish);

✓ hay'at qarori asosida xo'jalik yurituvchi subyektning arizasi bo'yicha, agar mablag'larni olib qo'yish to'g'risidagi qarorni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ijro etish xo'jalik yurituvchi subyektning bankrotligiga olib kelishi mumkin bo'lsa, undirilishi kerak bo'lgan summani bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish;

✓ tegishli davlat organlariga litsenziyalashni joriy etish yoki bekor qilish, bojxona tariflarini o'zgartirish, kvotalarni joriy etish yoki bekor qilish, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha imtiyozlar berish yoxud imtiyozlarni bekor qilish, imtiyozli kreditlar berish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning boshqa turlarini taqdim etish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritish;

✓ zarar ko'rib ishlayotgan iqtisodiy nochor korxonalarini tarkibiy qayta o'zgartirish, ixchamlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish dasturlarini shakllantirishda qatnashish, shuningdek ularning amalga oshirilishi monitoringini olib borish;

✓ ustav fondida davlat ulushi bo'lgan, iqtisodiy tavakkalchilik guruhida turgan korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini normallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berish;

✓ davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda sudgacha sanatsiyaning borishi monitoringini olib borish, shuningdek ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining bankrotlik taomillari amalga oshirilishini nazorat qilish;

✓ ijtimoiy infratuzilma obyektlarini, shuningdek tarkibiy qayta o'zgartirish va sanatsiya amalga oshirilayotgan korxonalarining umumiy foydalaniladigan ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning funksional mansubligi bo'yicha tegishli xo'jalik birlashmalari balansiga berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflar kiritish;

✓ qonun hujjatlariga muvofiq sud boshqaruvchilari faoliyatini nazorat qilish, sud boshqaruvchisining faoliyatida qonun hujjatlari muntazam ravishda yoki bir-marta qo'pol ravishda buzilishi aniqlangan taqdirda uni majburiyatlarni ijro etish boshqaruvchisidan ozod etish haqida xo'jalik sudiga ariza bilan murojaat qilish, sud boshqaruvchilariga berilgan attestatlarning amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turish va to'xtatish;

✓ ustav fondida davlat ulushi bo'lgan va xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb e'tirof etilgan xo'jalik jamiyati bo'yicha tugatish ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

✓ zarur hollarda boshqa davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlar chiqarish, shuningdek xulosalar olish uchun boshqa organlarning mutaxassislarini jalb etish;

✓ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun komissiyalar, kengashlar va boshqa maslahat organlari tashkil etish, shuningdek ularning nizomlari va tartibini tasdiqlash, zaruriyat bo'lganda ularga boshqa vazirliklar, idoralarning va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va ekspertlarini jalb etish;

✓ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'larini belgilangan tartibda tasarruf etish.

2.5. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini monopoliyaga qarshi organ tomonidan tartibga solish

Monopoliyaga qarshi tartibga solish, raqobat muhitini rivojlantirish va tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatini nazorat qilish sohasida:

– monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish, raqobatni rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi, ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, boshqa davlat organlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuboradi;

– raqobatga qarshi xatti-harakatlarni va tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ning shuningdek tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar yoki shaxslar guruhi tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlarga narxlar asossiz o‘shishini aniqlaydi va ularning oldini oladi;

– tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitining holatini o‘rganadi va xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhlarining ustunlik mavqeyini aniqlaydi, shaxslar guruhlari qatnashchilarining tarkibini aniqlaydi;

– tovar yoki moliya bozorida ustunlik mavqeyini egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tabiiy monopoliyalar subyektlari davlat reyestrlarini shakllantiradi va yuritadi;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish, ularni qo‘shish yoki birlashtirishda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondida (ustav kapitalida) aksiyalarni (ulushlarni) sotib olishda raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish, shuningdek tabiiy monopoliyalar subyektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatishda tabiiy monopoliyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– tabiiy monopoliyalar subyektlarining tovarlari (ishlari, xizmatlari)ga narxlar va tariflarni tahlil qiladi hamda tabiiy monopoliyalar subyektlari tomonidan taqdim etiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining asossiz oshirib yuborilishidan va sifati pasayishidan iste‘molchilarning huquqlarini himoya qiladi;

– tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ga va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga ustama narxlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– tabiiy monopoliyalar subyektlari va ustunlik mavqeyini egallagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini narxlarni shakllantirishda deklaratsiya qilish (tasdiqlash) uchun taqdim etilgan hisob-kitoblarning asoslanganligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshiradi;

– raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat organlari reyestrini yuritadi va e‘lon qiladi;

– markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan kapital qurilishda boshlang‘ich narxlar shakllanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– o‘z vakolatlari doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni insofsiz raqobatchilardan va davlat organlarining noqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzuvchi xatti-harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilishni ta‘minlaydi;

– o‘z vakolatlari doirasida davlat organlari va ustunlik mavqeyini egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tovar yoki moliya bozorlariga kirishini ta‘minlash bo‘yicha qonun hujjatlari va boshqa hujjatlar ijro etilishini nazorat qiladi;

– mahsulotlarning monopol turlarini birja savdolariga qo‘yish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qiladi;

– mahsulotlarning yuqori likvidli va monopol turlarini birja savdolariga qo‘yilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

– tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazishda raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat qiladi;

– tabiiy monopoliyalar subyektlari tomonidan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi va majburiy xizmat ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan iste‘molchilar ro‘yxatini aniqlash yuzasidan takliflar kiritadi;

– ustunlik mavqeyini egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tabiiy monopoliyalarning tovarlariga (ishlariga, xizmatlariga) xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

– yuridik shaxsning individuallashtirilgan vositalariga va tovarni individuallashtirish vositalariga mutlaq huquqni sotib olish bilan bog‘liq insofsiz raqobat holatlarini aniqlaydi;

– tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar yoki moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha shaxslar guruhi tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar narxlari ustidan monitoring olib boradi.

2.6. Xorijiy mamlakatlarda raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat organlari

Har bir davlatda biror bir sohani tartibga solishga qaratilgan qonunchilik ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu qonunchilikni ijrosini ta‘minlashga qaratilgan davlat organlari mavjud bo‘ladi. Bozor iqtisodi shiddat bilan rivojlanishi bilan raqobat ham birday rivojlanib boradi. Monopoliyaga qarshi organlari faoliyati bilan ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak.

Rossiya Federatsiyasida raqobatni tartibga solishga vakolatli organ Federal monopoliyaga qarshi xizmat hisoblanadi.

Federal monopoliyaga qarshi xizmat tovar bozorlarida va raqobat sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, tabiiy monopoliya va reklama subyektlari faoliyatida, moliya xizmatlari bozorida raqobatni himoya qilish hamda ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish funksiyasini amalga oshiruvchi ijro hokimiyatning vakolatli organi hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu organ mahalliy va davlat ehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar, xizmatlarni ayirboshlash sohasidagi shartnomaviy munosabatlarga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirida, Rossiya Federatsiyasida xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ham nazorat funksiyasini bajaradi.

Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2014-yil 25-dekabrda 1489-son qaroriga binoan Federal monopoliyaga qarshi xizmatiga Mudofaa buyurtmalari bo'yicha Federal xizmatning davlatning mudofaa buyurtmalari sohasida nazorat funksiyasi o'tkazildi. Ushbu qaror 2015-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentning 2015-yil 21-iyuldagi 373-son Farmoniga ko'ra Federal monopoliyaga qarshi xizmatiga tariflarni boshqarish sohasida funksiyalar berildi.

Ushbu organ Rossiya Prezidentining 2004-yil 9-martdagi 314-son Farmoniga binoan tashkil etilgan. Hukumat tomonidan 2004-yilning 30-iyunida "Federal monopoliyaga qarshi xizmat to'g'risidagi Nizom" qabul qilingan.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida Federal monopoliyaga qarshi xizmatning 84 ta hududiy organlari o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda¹.

Janubiy Koreyada raqobatni tartibga soluvchi organ Koreya Respublikasining adolatli savdo bo'yicha komissiyasi hisoblanadi. Ushbu organ 1980-yil 31-dekabrda "Monopoliyani tartibga solish va adolatli savdo to'g'risida"gi 3320-son Qonunini qabul qilinishi bilan 1981-yilda tashkil topgan. Ushbu organ raisi vazir darajasiga tenglashtirilgan. Xitoyda raqobat sohasini tartibga soluvchi organ Xitoy Xalq Respublikasi Tijorat vazirligi (avvalgi Iqtisodiy hamkorlik va tashqi savdo vazirligi) hisoblanadi. Ushbu vazirlikning asosiy vazifalari tashqi savdo masalalari bo'yicha siyosatni ishlab chiqish, eksport va importni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish, ikki va ko'ptomonlama savdo bitimlarini tuzish va raqobat bozorini tartibga solishdan iborat.

¹ <http://fas.gov.ru/about/overview/obshhee.html>

Vazirlik majburiyatiga, shuningdek maxsus ma'muriy hududlar (Gonkong va Makao) bilan mustahkam iqtisodiy hamkorlik o'ratish kiradi¹.

Qozog'iston Respublikasi raqobatni tartibga soluvchi organ bo'lib, hukumat tarkibiga kirmaydigan Qozog'iston Respublikasi tabiiy monopoliyalarni tartibga solish bo'yicha agentlik hisoblanadi. Agentlik tabiiy monopoliyalar sohasida va bozorni tartibga solish, shuningdek telekommunikatsiya va pochta aloqasi, temir yo'l transporti sohasida tovarlar va ishlar tartibga solish, elektr va issiqlik energiyasi, gaz va neftmahsulotlari, fuqaro aviatsiyasi hamda Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan o'ratilgan narx siyosatini ham tartibga soladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi mavqeni ustun deb e'tirof etilishi uchun qanday belgilarga ega bo'lishi lozim?

2. Qonunchilikka asoslanib, bozordagi ulushi 35% dan 50 % gacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt ustun mavqega ega bo'lishini izohlang.

3. Ustun mavqega ega bo'lishning o'zi monopolistik faoliyat deb hisoblanadimi? Hisoblansa, amaldagi qonunchiligimizga tayanib izohlab bering.

4. Ustun mavqeyini belgilab beruvchi daraja ko'rsatkichi turli davlatlarda turlicha. Bu bevosita shu davlat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq. Rivojlangan davlatlar qonunchiligiga tayanib ustun mavqe tushunchasiga ta'rif bering.

1-kazus

Shakar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi "AJ Sugar Candy" kompaniyasi 2013-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra tovar bozorida shakar ishlab chiqarish borasidagi ulushi 40.8 % miqdorni tashkil etdi. 2014-yilning birinchi choragida esa "AJ Sugar Candy" kompaniyasida talab taklifdan oshib ketganligi bois tovar bozorida o'z mahsulotini sotish borasida muammolarga duch keldi. Shuning uchun kompaniyaning direktorlar kengashi shakar mahsuloti narxini pasaytirish to'g'risida qaror qabul qildi. Bundan esa shakar ishlab chiqaruvchi boshqa korxonalar zarar ko'rishdi hamda "AJ Sugar Candy" kompaniyasiga nisbatan Toshkent shahar raqobat boshqarmasiga ariza bilan murojaat qilishdi. Toshkent shahar raqobat boshqarmasi esa, o'z navbatida, "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi ikkinchi qismi hamda 10-moddasiga binoan "AJ Sugar Candy" kompaniyasining xatti-harakatini ustun mavqeni suiiste'mol qilish deb baholadi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

¹ <http://russian.mofcom.gov.cn/>

2-kazus

Salqin ichimliklar ishlab chiqaruvchi "The Coca Cola Company" MChJ 2014-yilning-avgust oyidan boshlab "Coca Cola" ichimligini ishlab chiqarishni to'xtatib qo'ydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "The Coca Cola Company" MChJning tovar bozorida salqin ichimliklar ishlab chiqarishdagi umumiy ulushi 52 foizni tashkil etgan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur MChJning tovar bozorida ustun mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Tabiiyki, "Coca Cola" ichimligini ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yilishi bozorda mazkur ichimlikka nisbatan talabning keskin oshishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, ushbu ichimlikning bozordagi tan narxida o'zgarish yuz berib, oldingi sotilayotgan narxidan 2 barobar oshib ketdi. Ushbu holat yuzasidan iste'molchilarning bir guruhi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga ariza bilan murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining pozitsiyasini aniqlang. Yuqoridagi holat "The Coca Cola Company" MChJning bozordagi ustun mavqesini suiiste'mol qilish deb baholashga asos bo'ladimi?

3.1. Ustun mavqe tushunchasi va uning huquqiy tabiati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim jihatlari – bu bozor iqtisodiyotining eng asosiy elementlaridan hisoblangan raqobatni rivojlantirish, monopol va ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlari va xizmatlarining sifati hamda kafolatini kuchaytirish, ularning tannaxrlari muqobilligini ta'minlash, iste'molchilarning xarid talabini qondirish orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni yanada oshirishga qaratilganligidan iboratdir.

Ustun mavqe bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish qator qonun va qonunosti hujjatlari bilan amalga oshiriladi.

Jumladan, 2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri), 2001-yil 30-avgustdagi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 230-sonli qarori, 2010-yil 28-oktabrdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 239-sonli qarori bevosita ushbu munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Ustun mavqe – tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish. tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holat

Tovar bozorida qaysi xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi


- 1) Ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa:
- 2) o'ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo'lishi

Xo'jalik yurituvchi subyektning Tovar bozorida ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo'lib turishi, Tovar bozorida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorida bo'lib turishi

Ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga imkoniyat bo'lishi shartkari belgilangan bo'lsa, shu xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqei ustun deb e'tirof etiladi

Moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillik yillarida davlat tomonidan samarali raqobat siyosati amalga oshirilishi natijasida tovar va xizmatlar bozorlarining monopollashish darajasi sezilarli ravishda pasaydi.



Ushbu ko'rsatkichlar xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobatni yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratib berilganligi hamda tovar va moliya bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan subyektlar soni sezilarli darajada qisqarganligidan dalolatdir.

Hozirgi paytda bozordagi tovari (ish, xizmati)ning ulushi 50% va undan ko'pni tashkil etadigan xo'jalik yurituvchi subyektning mavqeyi ustun deb hisoblanadi. Biroq xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi 50% va undan ortiq bo'lgani bilan uning mavqeyi ustun deb e'tirof etilmasligi ham mumkin. Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyekt raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatmayotganligini asoslab berishi lozim.

Bozordagi ulushi 35% dan 50% gacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt ustun mavqega ega bo'lmaydi. Biroq monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan mazkur holat ustun mavqe deb e'tirof etilishi ham mumkin. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushining barqarorligi, bozordagi raqobatchilarga tegishli ulushlarning miqdori, mazkur bozorga yangi raqobatchilarning kira olishlari va boshqa mezonlar inobatga olinadi. 35% gacha bo'lgan ulush esa ustun mavqe holatini vujudga keltirmaydi.

Jumladan, bu boradagi rivojlangan davlatlar amaliyotiga e'tibor qaratish mumkin.

AQSHning monopoliizmga qarshi qonuni amaliyotdagi qat'iy belgilangan qonunlardan biri hisoblanadi. XIX asr oxirlariga kelib, ushbu mamlakat jamoatchiligi stixiyali bozor mexanizmini ayrim firmalar egallab olishidan, ularning yakka hokimlikka olib keluvchi kelishuvlaridan himoya qilinmagan degan xulosaga kelishgan. Raqobatchilarning iqtisodiyotdan tashqari yakkalanishi hollarining, shuningdek bozorlarni taqsimlab olish va narxlarni oshirish haqidagi bitimlarning ko'payishi AQSH Kongressini 1890-yilda trestlarga qarshi birinchi qonunini – "Raqobat tizimining konstitutsiyasi" deb ataladigan Sherman hujjatini qabul qilinishiga sabab bo'lgan. Sherman hujjati bozorni o'sha davrda hukmron bo'lgan tarmoq monopoliyalaridan himoya qilishni ko'zda tutadi. Keyinchalik Sherman qonuni AQSHda ham boshqa mamlakatlarda ham monopoliizmga qarshi qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, monopoliizmga qarshi qonunchilikni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi ishlab chiqildi, u o'z ichiga turli davlat muassasalari, parlament, hukumat, turli darajadagi sudlar faoliyatini qamrab oldi. Bu hujjat o'sha davrdagi ishlab chiqarishni tartibga solish va monopolistik faoliyatga yo'l qo'ymaslik, halol raqobatni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etishga yordam berdi.

Yaponiyaning monopoliyaga qarshi qonuni ustun mavqeni taqiqlash, savdo-sotiqni va insofsiz savdo usullarini cheklash, iqtisodiy hokimiyatning haddan ziyod bir joyda to'planishining oldini olishga qaratilgan qoidalarni o'zida mustahkamlagan. U ishlab chiqarish, sotish, narxlar, texnologiyalar va boshqalarni noto'g'ri cheklashni bartaraf qilish, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining noqonuniy manfaatlarida qo'shilib ketishi, birlashishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Mazkur qonun tadbirkorlarning ijobiy tashabbusini rag'batlantirib, ularning ishdagi faolligini oshirish orqali erkin va haqqoniy raqobatni qo'llab-quvvatlashga, bandlikni ta'minlanishiga va aholining real daromadini ko'paytirishga, buning natijasida iqtisodiyotni demokratik tarzda va sog'lom rivojlanishini, shuningdek iste'molchilarning manfaatlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Germaniyaning “Raqobatni cheklashga qarshi” Qonunida kichik va o‘rta biznes subyektlarini himoya qilish, monopoliyaga qarshi choralar belgilash, raqobatni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq maxsus normalar belgilangan. Ular sog‘lom raqobatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada raqobatni himoyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda iste‘molchilar uchun tanlash imkoniyatini ko‘paytirish, innovatsiyalar va investitsiyalashni joriy etish uchun rag‘batlantirishni ta‘minlash, Buyuk Britaniya xalqaro kompaniyalari obro‘cini yuksaltirishga qaratilgandir.

Rossiya Federatsiyasida subyektlarning bozordagi ustunligidan g‘araz niyatlarda foydalanishi dominant xo‘jalik subyekti yoki bir necha xo‘jalik subyektlarining tovar bozorida o‘rnini bosuvchilar yo‘qligi tufayli bozorga va unda faoliyat olib borayotgan subyektlarga o‘zining ta‘sirini o‘tkazish imkonini beruvchi holatdir.

Dominant holat subyektning bozordagi ulushi 65% va undan ko‘p bo‘lgandagina tan olinadi, agar xo‘jalik subyekti dominant holatda emasligini isbotlab bersa, bundan mustasno bo‘ladi. Lekin xo‘jalik subyektlarining bozordagi ulushi 65% dan kam bo‘lgan holatda ham ustun holat bulishi mumkin. Bunday holatda antimonopol organlar tomonidan uning bozordagi ulushi barqarorligi va boshqa firmalarning bozorga kirishini qiyinlashtirishi mumkinligini isbotlashi kerak.

Agar xo‘jalik subyektining bozordagi ulushi 35% dan kam bo‘lsa ustun holatga ega bo‘la olmaydi.

Rossiya Federatsiyasi “Tovar bozorlari monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi qonunda ustunlik holatida bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklovchi, chetlashtiruvchi va bunga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan harakatini taqiqlaydi. Bu kabi harakat yoki harakatsizlik holatiga quyidagilar kiritilgan:

Bozorda taqchillikni qo‘llab-quvvatlash va yaratish maqsadida javohgarsonini kamaytirish va buning natijasida narxlarning ko‘tarilishi;

Tovar bozorida bir subyektning boshqasiga nisbatan notekis holatga nushuruvchi holatni yaratish;

Bozorga kirish (chiqish) taraflarning to‘siqlarning yaratilishi;

Monopol darajasida yuqori va past narxlarning qo‘yilishi va boshqalar;

3.2. Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish

Xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish qonunchilikda tovar va moliya bozorlari uchun alohida tartibni belgilaydi.

Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi mavjudligini aniqlash quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

1. Tovarlar va moliyaviy xizmatlarning bir-birining o'rnini bosishini hisobga olgan holda Tovar yoki moliya bozori chegaralarini aniqlash.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektning va (yoki) shaxslar guruhining bozor ulushini aniqlash.

3. Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish.

Tovar yoki moliya bozori – O'zbekiston Respublikasi hududida Tovar yoki moliyaviy xizmatlarning yoxud O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin bo'lgan muomaladagi hamda ularni sotib olish va xizmat ko'rsatish imkoni mavjud bo'lgan chegaralardagi qismining muomala doirasi

Bozor ulushi – bu xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining aniq tovar bozorida savdo-sotiqlar hajmining umumiy hajmidagi ishtirokini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi

Tovar bozorida bozor ulushi – xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan ishlab chiqarilgan tovar realizatsiya qilingan hajmining tovar bozor chegaralari doirasida ushbu tovar bozorning barcha ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarni realizatsiya qilishning umumiy hajmiga nisbati

Tovar bozorida bozorlar ulushlarini hisoblab chiqish uchun hisob-kitobga tovarlarni realizatsiya qilish ko'rsatkichlari asosan natura ko'rinishida (ifodasida), xizmatlar bozorida esa qiymat shaklida qabul qilinadi. Natura ko'rinishidagi (ifodasidagi) tegishli ko'rsatkichlar mavjud bo'lmaganda, qiymat shaklidagi ma'lumotlar qabul qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining bozor ulushi ushbu subyektning yoki shaxslar guruhining ishlab chiqarilgan tovarni realizatsiya qilish hajmining tovar bozori hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi hamda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$BU = V_o \times 100 / V_p,$$

Bu yerda

Bu – xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining bozor ulushi

V_o – tovar bozori hududida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovarni realizatsiya qilishi hajmi

V_p – quyidagi tarzda hisoblanadigan tovar bozorining miqdori

Moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi mavjudligini aniqlash uchun foydalaniladigan ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar miqdori;
- tegishli moliya bozorida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yxati;
- xo'jalik yurituvchi subyektning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- xo'jalik yurituvchi subyektning hamkorlikdagi faoliyat bilan bog'liq shartnomalar nusxalari;
- moliyaviy xizmatlar uchun tariflar (narxlar);
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yuzasidan tuzilgan shartnomalar nusxalari

Tovar bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi mavjudligini belgilash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- 1) tovarlar ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, import va eksport qilish miqdorlari;*
 - 2) tegishli bozordagi tovarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ro'yxati;*
 - 3) ta'sis hujjatlari;*
 - 4) xo'jalik yurituvchi subyektning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi givohtonomaning nusxasi;*
 - 5) xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamkorlikdagi faoliyati bilan bog'liq shartnomalar nusxalari;*
 - 6) tovarlarga narxlar;*
 - 7) tovarlarni realizatsiya qilish uchun tuzilgan shartnomalar nusxalari;*
 - 8) tovarning texnik hujjatlari (GOST, TSH va boshqalar).*
-

Monopoliyaga qarshi organ moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi mavjudligini aniqlash uchun boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan zarur hujjatlar va axborotlarni belgilangan tartibda o'zaro axborot hamkorligi yo'li bilan, shu jumladan elektron tarzda mustaqil ravishda oladi.

Ustun mavqe mavjudligini aniqlashda axborot agentliklari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa axborot manbalaridan, shuningdek moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan so'rovnomalar o'tkazish natijalari orqali olingan ma'lumotlardan foydalaniladi. Ma'lumot monopoliyaga qarshi organning so'rovi asosida so'rov olingan kundan o'ttiz kalendar kundan oshmaydigan muddatda taqdim etiladi. Zarur hollarda va ma'lumotlar yetarli bo'lmagan taqdirda monopoliyaga qarshi organ tegishli ma'lumotni qo'shimcha ravishda so'rab olishi mumkin. Moliya bozorida ustun mavqeyini egallagan deb e'tirof etilgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi "Tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish hamda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomda nazarda tutilgan tartibda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reyestriga kiritiladi.

Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reyestri tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va shaxslar guruhining faoliyati monitoringi va nazoratini amalga oshirish, monopoliyaga qarshi harakatlarini cheklash va ularning oldini olish hamda ular tomonidan ustun mavqeyini suiiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun yuritiladi.

3.3. Tovarning monopol yuqori narxi

Bizga ma'lumki, agar moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar narxi, agar ushbu narx moliya bozori chegaralari doirasida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan belgilangan narxlarning o'rtacha qiymatidan o'n foizdan ziyodga oshsa, monopol yuqori narx deb hisoblanadi.

Tovarning monopol yuqori narxi to'g'risidagi qoidalar 2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida" Qonunning 7-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra:

Tovarning tovar bozorida ustun mevqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan belgilanadigan narxi, agar ushbu narx

Bunday tovarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan harajatlar hamda foyda summasidan yuqori bo'lsa

Asossiz harajatlarning o'zini qoplashga yoki tovarning sifatini pasaytirish natijasida qo'shimcha foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa, monopol yuqori narx hisoblanadi.

Ammo, tovarning narxi birja savdolari yakunlariga ko'ra shakllangan taqdirda u monopol yuqori narx deb e'tirof etilmaydi.

Tovarning moliya bozoridagi monopol yuqori narxi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlanadi. Bu Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan "Xizmatlarning moliya bozorida monopol yuqori va monopol past narxlarni aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida aniqlanadi.

Moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning monopol yuqori narxini aniqlash O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Moliya bozorida monopol yuqori narx moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining xizmatlariga narxlarni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga o'xshash bo'lgan va (yoki) o'zaro almashinadigan xizmatlar narxlari bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Taqqoslash moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan belgilangan narx bilan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rtacha narxlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar moliya bozorida faqat bitta xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi faoliyat yuritayotgan subyekt yoki shaxslar guruhi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ushbu xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi xizmati narxi, agar ushbu narx:



Xizmatni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan harajatlar va foyda miqdoridan oshsa hamda ushbu xizmatni ko'rsatishdan asoslanmagan foyda olish imkonini bersa.



Ko'rsalilayotgan xizmatning sifat tavsiflari pasayishi natijasida asossiz harajatlarni kompensatsiya qilishga yoki qo'shimcha foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa, monopol yuqori narx hisoblanadi:

Xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan xarajatlar va foyda miqdorining oshishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi xarajatlari va foydasining iqtisodiy jihatdan asoslanganligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Xarajatlar va foydaning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi moliyaviy xizmatlar tannarxiga kiritilgan xarajatlar tarkibini o'rganish yo'li bilan aniqlanadi. Monopoliyaga qarshi organ moliya bozorlarini tartibga solish sohasidagi tegishli vakolatli organlardan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi xarajatlari va foydasining iqtisodiy jihatdan asoslanganligi masalasi bo'yicha xulosa olishi mumkin.

3.4. Tovarning monopol past narxi

“Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida tovarning monopol past narxi borasidagi qoidalar mustahkamlangan.



Tovar bozorida sotuvchi yoki sotib oluvchi sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarning tannarxidan past darajada va ushbu tovarni sotishdan zarar keltiradigan darajada belgilanadigan, natijada raqobatning cheklanishiga olib keladigan narx **tovarning monopol past narxi**dir.

Tovarning moliya bozoridagi monopol past narxi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda, ya‘ni Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan **Xizmatlarning moliya bozorida monopol yuqori va monopol past narxlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom** asosida aniqlanadi.

Moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning monopol past narxini aniqlash xuddi monopol yuqori narxni aniqlash kabi O‘zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xizmatlarning monopol past narxi xizmat ko‘rsatish uchun zarur xarajatlar qiymatini qoplamaydigan va foyda olishni ko‘zda tutmaydigan, buning natijasida raqobatni cheklash, bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish va raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga zid oqibatlari bo‘lgan moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan belgilangan narx hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi sudi Post Danmark kompaniyasi (Daniya) ishini ko‘rib chiqib, ustun mavqedagi subyektning butun biznesi hududidagi o‘rtacha xarajatlarini qoplamaydigan, lekin o‘rtacha tannarxdan yuqori bo‘lgan narxlarni monopol past narx deb hisoblanmasligi haqida qaror chiqargan¹.

Moliya bozorida monopol yuqori yoki monopol past narxlar mavjudligi va qo‘llanishi aniqlanganda monopoliyaga qarshi organ belgilangan tartibda ish qo‘zg‘atadi hamda monopol yuqori yoki monopol past narxlar qo‘llashni bartaraf etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.


¹ Moritz Lorenz. "Introduction to EU Competition Law" Cambridge University Press, – New York. 2013. – p.231

3.5. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ustun mavqeni suiiste'mol qilishi


Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ustun mavqega ega bo'lishning o'zi monopolistik faoliyat deb hisoblanmaydi. Monopolistik faoliyat bo'lishi uchun, albatta, xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining ustunlik mavqeyini suiiste'mol qilishi kerak. O'z mavqeyini suiiste'mol qilish xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatni cheklash yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarida namoyon bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning ustunlik mavqeyini suiiste'mol qilishi bilan bog'liq harakatlarni ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinci guruhda monopolistik faoliyat xo'jalik yurituvchi subyektning bir tomonlama harakatlarni sodir etishi orqali amalga oshiriladi.



Ikkinchi guruhda monopolistik faoliyat xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnomalar tuzishida namoyon bo'ladi.



Yuqorida sanab o'tilgan uchala holatda ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt o'zi uchun foydali, kontragent uchun foydali bo'lmagan shartlar asosida shartnoma tuzadi. Bu esa unga qo'shimcha daromad keltiradi va uning ustunlik mavqeyi yanada kuchayadi. Biroq xo'jalik yurituvchi subyektning monopolistik faoliyati bilan bog'liq harakatlari ba'zi hollarda qonuniy deb topilishi ham mumkin. Buning uchun ushbu harakatlarning ijobiy hamda salbiy tomonlari taqqoslab ko'riladi.

Yevropa Ittifoqining "Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risida"gi shartnomasining 102-moddasi ustun mavqeni suiiste'mol qilishga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra ustun mavqega ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini olib borishda erkindirlar, ammo ularning bozorda raqobatni cheklamaslik uchun "maxsus javobgarligi" mavjud. Mazkur atama birinchi marta Yevropa Ittifoqi sudi tomonidan Mishelin (Michelin) kompaniyasining ustun mavqeyini ko'rib chiqqan sud ishida ilk marta ishlatilgan bo'lib, unda sud kompaniyaning yuk mashinalari, avtobuslar va shu toifadagi avtomobillar shinalarini qayta yangilashda bonus va chegirmalar tizimini qo'llagan holda ustun mavqeyini suiiste'mol qilganlik masalasini ko'rib chiqqan. Mazkur ish bo'yicha chiqarilgan qarorda sud "ustun mavqega bo'lishning asoslaridan qat'iy nazar, tadbirkorlik subyektining bozorda raqobatni cheklamaslik uchun maxsus javobgarligi mavjud" degan qarorga kelgan. Shunday qilib, yuqoridagi shartnomaning 102-moddasi ustun mavqeni taqiqlamaydi, ustun mavqega ega bo'lgan kompaniyalarga maxsus cheklovlarni o'rnatgan¹.

Xo'jalik yurituvchi subyektning pirovard natijada raqobatni cheklashga va (yoki) boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini kamsitishga olib keladigan harakatlari, shu jumladan quyidagi harakatlari:

- *muomalada bo'lgan tovarlarning hajmini tovar yoki moliya bozorida taqchillikni keltirib chiqarish yoki saqlab turish maqsadida narxlarning oshishiga olib keladigan tarzda qisqartirishi;*

- *tovarning monopol yuqori yoki monopol past narxlarini belgilash;*

- *shartnoma predmetiga taaluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobating cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishi;*

- *shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar) tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni olishini yoki realizatsiya qilishini taqiqlashi yoxud cheklashi;*

¹ Meritz Lorenz. "Introduction to EU Competition Law" Cambridge University Press. – New York, 2013. – P.188

• *kontragent tomonidan boshqa tovarlarni olish yoki realizatsiya qilish yoxud kontragentning tovarlarni o'zga xo'jalik yurituvchi subyektlarga realizatsiya qilishdan o'zini tiyishi sharti bilangina shartnoma tuzishga rozilik berishi;*

• *tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo'la turib, shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortish;*

• *tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga to'siqlar qo'yishi tovar yoki moliya bozorida ustun mavqe'ni suiiste'mol qilish deb e'tirof etiladi.*

Nazorat uchun savollar:

1. Xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar gurubi mavqeni ustun deb e'tirof etilishi uchun qanaqa belgilarga ega bo'lishi lozim?

2. Bozordagi ulushi 35% dan 50 % gacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt ustun mavqega ega bo'ladimi? Bo'lmasa, amaldagi qonunchiligimizga tayanib izohlab bering.

3. Ustun mavqega ega bo'lishning o'zi monopolistik faoliyat deb hisoblanadimi? Hisoblansa, amaldagi qonunchiligimizga tayanib izohlab bering.

4. Ustunlik mavqeyini belgilab beruvchi daraja ko'rsatkichi turli davlatlarda har xil. Bu bevosita shu davlat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq. Rivojlangan davlatlar qonunchiligiga tayanib ustun mavqe tushunchasiga ta'rif bering.

1-kazus

“Bravo” MCHJ tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Ushbu korxonada o'z ishlab chiqargan tovar mahsuloti xarajatlar va foyda summasidan ortiq qilib belgiladi va realizatsiya qildi. Natijada, raqobat qo'mitasi tomonidan uning faoliyati tekshirilganda asossiz ravishda narxni oshirganligini aniqlandi. Bunga qarshi “Bravo” MCHJ asossiz oshirilgan narxni xayriya maqsadlarida sarflanishini ta'kidladi.

Mazkur holatda “Bravo” MCHJ asossiz monopol yuqori narx belgilagan deb topishga asos bo'ladimi. Agar ushbu holat asossiz deb topilsa “Bravo” xususiy firmasiga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir chorasini keltiring

2-kazus

Tovar bozorida 5 yil davomida “Bravo” MCHJ uy hayvonlari uchun turli ko'rinishdagi ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarib keladi. Mazkur turdagi ozuqa mahsulotlarining iste'molli oshib borayotganligini bilgan

bir necha shaxslar birgalikda "Bron" nomli xususiy korxonaga tashkil etadi. Natijada ushbu firma hamda uy hayvonlari uchun turli ko'rinishdagi ozuqa mahsulotlarini "Bravo sobaka" tovar belgisidan foydalangan holda ishlab chiqara boshlaydi. O'z navbatida "Bravo" MCHJ uni bozorga kiritmaslik uchun turli vositalardan foydalanadi. Xususan u bilan shartnoma tuzmoqchi bo'lgan shaxslarga o'z ta'sirini o'tkazadi. "Brav sobako" tovar belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni o'z mahsuloti sifatida past holda reklama qiladi. Shuningdek, sudga "Brav sobako" tovar belgisi "Bravo" nomi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi hamda "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunlaridan kelib chiqqan holda tahlil qiling.

IV BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATNI CHEKLAYDIGAN KELISHIB OLINGAN HARAKATLARI VA BITIMLARI

4.1. Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va ularning umumiy tavsifi

Ma'lumki, monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni o'rnatish hamda monopolistik faoliyatni cheklash va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilib borish, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirish, raqobatning cheklanishiga yo'l qo'ymaslik, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorlarida birinchi navbatda ichki iste'mol bozorida va reklama sohasida nohalol raqobatchilikka chek qo'yish chora-tadbirlarini amalga oshirish bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiyot rivojining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Ushbu yo'nalishlarda kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish bozorlarda raqobat muhitini shakllantirish, biznesni bozor iqtisodiyoti tamoyillarini buzmaydigan tarzda tashkil etish, bozorlarda vujudga keladigan nomutanosibliklarni bartaraf etish, tezkor ta'sir o'tkazishning bilvosita tartibga solish usullari orqali iqtisodiyotda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga imkon beradi.

Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari, raqobatga qarshi xatti-harakatlarni, narxlar va tariflarni tartibga solish, ularning asossiz ravishda o'sishi yoki kamayishini aniqlash, mahsulotlarni birja savdolariga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilish, tanlov (tender) va birja savdolarini o'tkazishda amaldagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish kabi chora-tadbirlarning o'rni nihoyatda muhimdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari bevosita 2012-yil yangi tahrirda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi Qonunda ham o'z aksini topgan bo'lib, ushbu qonunning asosiy maqsadi tovar va moliya bozorlaridagi raqobatga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Chunki mazkur qonunning mazmun-mohiyati shu bilan izohlanadiki, unda tovar va moliya bozorlaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatga qarshi harakatlarini, insofsiz raqobatni cheklashga hamda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining g'ayriqonuniy harakatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan raqobatga doir davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ belgilangan. Qonunda raqobatga qarshi

harakatlarni taqiqlashning huquqiy normalari belgilangan bo'lib, bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqeyini suiiste'mol qilish, raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini tuzish, shuningdek davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlari (harakatlari) hamda insofsiz raqobat taqiqlangan. Bundan tashqari tanlov (tender) va birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish, qo'shib yuborish va birlashtirishga doir hamda aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishdagi monopoliyaga qarshi talablar kiritilib, ushbu harakatlarni amalga oshirishda monopoliyaga qarshi davlat organining oldindan roziligini olish tartibi belgilangan.

Shu bilan birga, tabiiy monopoliyalarning ustunligi hamda monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni amalga oshirish, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish, korxonalarining va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, umuman, mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirishni rag'batlantirish borasidagi tashkiliy va amaliy chora-tadbirlarni shakllantirish bilan bog'liq ko'pgina masalalar tizimli ravishda bosqichma-bosqich hal etib borilmoqda. Shu jihatdan olganda "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan me'yor va talablarni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda tovar va moliya bozorlarida raqobatni cheklashga hamda ustunlik mavqeyini suiiste'mol qilishga olib keladigan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka, shuningdek nohalol raqobatni, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning narxlarini sun'iy ravishda oshirish yoki tushirib yuborishni taqiqlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu ishlarni faollashtirish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlarni jamlash, xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bo'yicha ishlarning bajarilishini ta'minlaydigan davlat institutlarini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Qonunning 4-moddasida bevosita ushbu mavzuga oid asosiy tushunchalar ham berilgan. Unga muvofiq kamsituvchi shartlar (sharoitlar), xo'jalik yurituvchi subyekt, kelishib olingan harakatlar, raqobatga qarshi harakatlar kabi asosiy tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan.

Kamsituvchi shartlar (sharoitlar) – tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish, olish, realizatsiya qilish, o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish shartlari (sharoitlari) bo'lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektini o'zga xo'jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda teng bo'lmagan holatga solib qo'yadi.

Kelishib olingan harakatlar – tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har biriga oldindan ma'lum bo'lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardir.

Raqobatga qarshi harakatlar – raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi).

Xo'jalik yurituvchi subyekt – tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor.

Ushbu Qonunning 11-moddasi bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini taqiqlashga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra:

– tovar yoki moliya bozorida o'zaro raqobatlashayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan potensial raqobatchilar bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kelishib olingan harakatlar va bitimlar, agar bunday kelishib olingan harakatlar va bitimlar:

– sun'iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlarni yoki ustama narxlarni belgilashga yoki saqlab turishga;

– narxlarni sun'iy ravishda oshirgan yoki pasaytirgan holda erkin bozor narxlarining qaror topishiga to'sqinlik qilishga;

– ishlab chiqarish ustidan mahsulot sotish bozorlari va kapital qo'yilmalar ustidan nazorat o'rnatishga;

– taklif hajmini sun'iy ravishda o'zgartirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olishga;

– shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatni cheklovchi boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishga;

– aukSIONlarda, birjalarda va boshqa savdolarda narxlarni oshirishga, pasaytirishga yoki saqlab turishga;

– shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishga;

– tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi bo'yicha, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;

– boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tegishli tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari sifatida bozorga kirishini cheklashga yoki ularni bozordan chetlashtirishga yoxud xo‘jalik yurituvchi subyektlarni muayyan tovarlar bozoriga qo‘ymaslikka olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, taqiqlanadi.

Biri tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan, boshqasi esa sotuvchi yoki sotib oluvchi bo‘lgan, o‘zaro raqobatlashmayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kelishib olingan harakatlari va bitimlariga, agar bunday kelishib olingan harakatlar va bitimlar pirovard natijada raqobatni cheklab qo‘ysa yoxud cheklab qo‘yishi mumkin bo‘lsa, shu jumladan:

Sotuvchi yoki sotib oluvchining hududni yoki sotib oluvchilar doirasini mustaqil belgilashini cheklaydigan;

Tovarlarni qayta sotish uchun narxlarga cheklovlar belgilaydigan;

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni realizatsiya qilishni taqiqlaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu taqiq tovarlarni tovar belgisi, firma nomi va sotuvchining intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlari orqali realizatsiya qilishni sotib oluvchi tomonidan tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirishi, agar bunday muvofiqlashtirish ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan oqibatlarga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, taqiqlanadi.

Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qonunning 3-bobi savdolarini va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish haqida bo‘lib, uning 14 va 15 moddalari bevosita tanlov (tender) hamda birja savdolariga doir

monopoliyaga qarshi talablar keltirilgan. Jumladan, 14-moddada tanlov (tender) savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan quyidagilar taqiqlanadi:

Savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish;

Savdolarning tashkilotchilari (yoki) buyurtmachilari tomonidan savdolar ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

Xo'jalik yurituvchi subyektlardan savdolarida qatnashish uchun hujjatlarni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish;

Savdolar ishtirokchilarini asossiz ravishda chetlashtirish;

Savdolarimig bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarida qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish, shu jumladan axborotdan foydalanish orqali imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish;

Tovarning aniq ishlab chiqaruchisini ko'rsatish.

Ushbu belgilangan monopoliyaga qarshi talablarning buzilishi tanlov (tender) savdolarining qarorlarini va shu savdolar natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Qonunning 15-moddasiga asosan birja savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan:

Birja savdolarini o'tkazish jarayonuga ta'sir ko'rsatadigan harakatlar;

Birja savdolari ishtirokchilarining kelishib olingan harakatlari natijasida joriy birja narxlarining keskin ko'tarilishiga yoki qat'iy belgilanishiga olib keladigan harakatlar;

Birja savdolarida talabning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq harakatlar taqiqlanadi.

Ushbu belgilangan monopoliyaga qarshi talablarning buzilishi birja savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga aylantirildi. Ushbu qo'mita oldingi qo'mitaning huquqiy vorisi sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini nazorat qilib borish va monopoliyaga qarshi samarali tartibotlar o'rnatish hamda tovar va moliya bozorlarida raqobat cheklanishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini amalga oshirish, monopolistik faoliyatni cheklash va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilib borish vazifalarini bajaradi.

4.2. Raqobatni cheklaydigan bitimlarning umumiy tavsifi, turlari va asosiy jihatlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan bitimlarni bevosita tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha 2013-yil 20-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 230-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan "Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom "Raqobat to'g'risida"gi Qonunga muvofiq tovar yoki moliya bozorida raqobatlashadigan, shu jumladan potensial raqobatchilar hisoblanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

ulardan biri tovar bozorida ustun mavqega ega bo'lgan, ikkinchisi esa sotuvchi yoki sotib oluvchi hisoblanadigan raqobatlashmaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik shaxslarning birlashmalari o'rtasidagi kelishib olingan harakatlarni va raqobatni cheklaydigan bitimlarni aniqlash tartibini belgilab beradi.

Ushbu Nizomda yuqorida Qonunda ko'rsatib o'tilgan asosiy tushunchalardan tashqari kelishib olingan bitimlar, harakatlar, gorizontial bitimlar, vertikal bitimlar kabi yana bir nechta asosiy tushunchalar ham kiritildi.

Kelishib olingan bitimlar – raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan biron-bir harakatlarni sodir etish to'g'risida yozma yoxud og'zaki shaklda ikki yoki undan ko'p xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida tuzilgan bitimlar

Gorizental bitimlar – bitta tovar yoki moliya bozorida raqobatchilar, shu jumladan potensial raqobatchilar hisoblanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kelishib olingan harakatlar va bitimlar

Vertikal bitimlar – ulardan biri tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan, ikkinchisi esa sotuvchi yoki sotib oluvchi hisoblanadigan raqobatlashmaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kelishib olingan harakatlar va bitimlar

Ushbu Nizomga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan quyidagi kelishib olingan harakatlari va bitimlari taqiqlanadi:

a) gorizental bitimlar, agar bunday bitimlar quyidagilarga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa:

– narxlar, tariflar, chegirishlar, ustamalar, qo'shimcha haqlar yoki qo'shimcha narxlarni sun'iy belgilash yoki saqlab turishga;

– narxlarning o'sishi yoki pasayishini sun'iy ravishda keltirib chiqargan holda erkin bozor narxlarini o'rnatishga to'sqinlik qilishga;

– ishlab chiqarish, sotish bozorlari va kapital qo'yilmalar ustidan nazorat o'rnatishga;

– takliflar hajmini sun'iy o'zgartirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini kelishishga, shuningdek ularga talab mavjud bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishni qisqartirish yoki to'xtatishga;

– shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'lar, boshqa mol-mulklar, mulkiy huquqlarni berishga taalluqli asossiz talablarni, shuningdek raqobatni cheklaydigan boshqa harakatlarni sodir etish bo'yicha talablarni majburan qo'yishga;

– aukSIONlarda, birjalarda va boshqa savdolarda narxlarni oshirish, pasaytirish yoki saqlab turishga;

– shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishga;

– tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, sotish yoki xarid qilish hajmi bo'yicha, tovarlar turlari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki ularning xaridorlari, buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;

– tegishli tovarlarni sotuvchilar yoki ularning xaridorlari, buyurtmachilari sifatida bozordan foydalanishni cheklashga yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni undan chetlatishga yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlarni muayyan tovarlar bozoriga kiritmaslikka;

– professional va boshqa birlashmalarda qatnashish shartlarini belgilashga, agar bunday shartlar raqobatni cheklasa, shuningdek ularda o‘zaro raqobatlashuvchi moliya tashkilotlari qatnashmasdan zarur moliyaviy xizmatlarni ko‘rsata olmaydigan to‘lov yoki boshqa tizimlarda qatnashish uchun to‘siq hisoblanadigan asossiz mezonlarni belgilashga;

b) vertikal bitimlar, agar bunday bitimlar o‘z natijasi bilan raqobatni cheklasa yoki cheklashi mumkin bo‘lsa, shu jumladan:

– sotuvchi yoki xaridorning keyinchalik tovarni qayta sotish maqsadida hududni yoki xaridorlar doirasini mustaqil belgilashini cheklasa;

– tovarlarni qayta sotish narxlarini belgilashni cheklasa;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqargan tovarlarni sotishini taqiqlasa.

Bundan tashqari Nizomga muvofiq davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki yuridik shaxslar birlashmalariga kelishib olingan harakatlar va bitimlarning qatnashchilari sifatida qaralishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki yuridik shaxslar birlashmalarining quyidagilarga olib keluvchi kelishib olingan harakatlar va bitimlarda qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

– narxlar yoki tariflarni oshirishga, pasaytirishga, saqlab turishga;

– tegishli bozorni hududiy prinsip bo‘yicha, sotish yoki xarid qilish hajmi bo‘yicha, tovarlar turlari bo‘yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki ularning xaridorlari, buyurtmachilari doirasi bo‘yicha bo‘lib olishga;

– bozordan foydalanishni cheklashga yoki undan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni chetlatishga.

Yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirish taqiqlanadi.

Ushbu Nizomda nazarda tutilgan taqiqlar intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni berish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlarga tatbiq etilmasligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Nizomga ko‘ra kelishib olingan harakatlar va bitimlar belgilarini quyidagi tartibda aniqlash mumkin.

Kelishib olingan harakatlar va bitimlarning belgilarini O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari tomonidan tovar va moliya bozorlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning, davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining

murojaatlarini, ommaviy axborot vositalarining xabarlarini hamda tegishli organlarning kelishib olingan harakatlar va bitimlar belgilarining mavjudligini ko'rsatadigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan ko'rsatmalarini o'rganishni nazorat qilish funksiyalarini belgilangan tartibda amalga oshirish davomida aniqlanadi.

Quyidagilar kelishib olingan harakatlar va bitimlar belgilari faktini aniqlashning asosiy bosqichlari hisoblanadi:

a) kelishib olingan harakatlarni sodir etgan yoki bitimlarda qatnashgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va (yoki) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik shaxslarning birlashmalari doirasini aniqlash;

b) quyidagilarni:

– bir-birining o'rmini bosishini hisobga olgan holda muayyan tovarning muomalada bo'lish chegaralarini;

– kelishib olingan harakatlarni sodir etgan bitim qatnashchilariga yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarga to'g'ri keladigan bozor ulushlarini;

– yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirishini qiyinlashtiradigan to'siqlarning mavjudligini;

– ishlab chiqarish sharoitlarining o'xshashligini hamda tovarni ishlab chiqarish xarajatlarining taqqoslanuvchanligini, tovarning qiymatidagi yagona narxlarni belgilashga va bitimlar tuzishga ko'maklashuvchi doimiy xarajatlar salmog'ini;

– bitimlarning turini;

– iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish hamda kelishib olingan harakatlar va bitimlarga ko'maklashadigan axborotlarni almashinish uchun baza taqdim etishlari mumkin bo'lgan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik shaxslar birlashmalari mavjudligini;

– tovar yoki moliya bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reyestrda tovarlarni ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilarning, shuningdek ularning tovarlariga narxlarning davlat tomonidan tartibga solinishini o'rganish;

– aksiyalarning nazorat paketlariga ega bo'lish orqali boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yetkazib beruvchilar yoki iste'molchilar ustidan nazoratning mavjudligini aniqlash;

d) bozorda narxlarning qaror topayotgan o'zgarishlarini o'rganish va sharoitlari bo'yicha o'xshash bo'lgan boshqa bozorlardagi narxlar bilan ularni taqqoslash;

e) kelishib olingan harakatlar va raqobatni cheklaydigan bitimlar tuzish sodir etilishining bevosita yoki bilvosita dalillarini aniqlash;

f) tovar yoki moliya bozorida davlat tomonidan tartibga solish mavjud bo'lgan taqdirda raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga qarama-qarshiliklarning mavjud emasligini aniqlash.

Quyidagilar kelishib olingan harakatlarni va raqobatni cheklaydigan bitimlarni amalga oshirish belgilari hisoblanadi:

- narxlarni bir vaqtda yoki 30 kun mobaynida oshirish (pasaytirish);
- o'xshash tovarni ishlab chiqarishga yoki sotib olish yoxud realizatsiya qilishga xarajatlarning turli miqdorlarida yagona narxlarni belgilash;
- bozorda yagona narxlarni belgilash maqsadida tovar qoldiqlarini qo'shimcha baholash;
- o'xshash tovarlarga bir xil narxlardan bir vaqtda chegirmalar belgilash;
- bozorda tanqislik va narxlar yuqori bo'lgan taqdirda kelgusida tovarlarni qayta sotish uchun ishlab chiqarilgan, amalda sotib olingan / import qilingan, tovarlarni bozorga yetkazib berish hajmlarini kamaytirish;
- turli yetkazib beruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan tovarlarga yuqori narxlarni sun'iy tarzda saqlab turish;
- boshqa xaridorlar yoki sotuvchilar bilan shartnoma tuzilgan xuddi shu shartlarda muayyan xaridorlar yoki sotuvchilar bilan shartnomalar tuzishni rad etish;
- tovarlarni muayyan mintaqalarda sotishni to'xtatish.

Xo'jalik subyektlari o'rtasida yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki yuridik shaxslarning birlashmalari o'rtasida raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlarni va bitimlarni amalga oshirish holatlarining dalillari Nizomga ko'ra quyidagilar hisoblanadi:

- tovar yetkazib berish hajmlarini kelishish;
- narxlarni sun'iy tarzda oshirish yoki pasaytirish to'g'risida ahdlashuv;
- bir xil preyskurantni yoki narxni tasdiqlaydigan buyruq (protokol, farmoyish)ni qo'llash;
- tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish hajmlariga cheklashlar (kvotalar) belgilash, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Raqobatni cheklaydigan bitimlar tuzish holatlarining dalillari bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin.

Shartnomalar shartlarini, schyotlar, yuk xatlari, preyskurantlar, to'lov topshiriqnomalari, qarorlar (shu jumladan, protokollar), xatlar va shu kabilarni o'rganish davomida aniqlanadigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarning hujjatli tasdig'i raqobatni cheklaydigan bitimlar tuzish bevosita dalillar hisoblanadi.

Kelishib olingan harakatlar va bitimlarni tasdiqlovchi bilvosita dalillar muayyan davrda bozorda yoki savdolar jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning xatti-harakatini qiyosiy tahlil qilish davomida aniqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik shaxslarning birlashmalari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari o'rtasida axborotlarni og'zaki yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ayirboshlash, narxlarni oshkora e'lon qilish, shuningdek ular tomonidan bunga asosli sabablar bo'lmagani holda bir xil va sinxron harakatlarni amalga oshirish raqobatni cheklovchi bitimlar tuzishning bilvosita dalillari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kelishib olingan harakatlar yoki bitimlar belgilari aniqlangan taqdirda qo'mita tomonidan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida, belgilangan tartibda ish qo'zg'atiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki yuridik shaxslarning birlashmalari o'zlari sodir etgan harakatlar va bitimlarning kelishib olinmaganligi va raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid emasligi to'g'risidagi dalillarni taqdim etishga haqli. Qo'mitaga axborotni taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik, ishonchsiz yoki soxta ma'lumotlar taqdim etganlik uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik shaxslarning birlashmalari va ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

4.3. Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlar: xorij qonunchiligi tajribasi


O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha biz xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini yuqorida yetarlicha tahlil qildik. Endi bevosita ushbu yo'nalishda xorijiy davlatlar qonunchiligida qanday huquqiy normalar mavjudligi va ular qay tarzda tartibga solinishini keltirib o'tsak.

AQSH. AQSHda xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari haqida Sherman Qonunining 1-moddasida shunday deyiladi:

Trest shaklidagi har xil bitim (kontrakt) yoki birlashish, yoki bir nechta shtatlar, yoki millatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni yoki tijoratni cheklash maqsadida boshqa turdagi kelishib olishlar qonuniy emas deb hisoblanadi

Shu bilan AQSHning raqobatga qarshi kelishib qilinadigan harakatlarini man qiladigan qonunchilik normasi tugaydi.

Modda esa barcha kerakli elementlarga ega:



Ushbu modda ta'siriga tushgan harakatlar ro'yxati Sherman Qonuni amalda bo'lgan vaqt davomida o'zgarib kelgan va Umumiy huquq (sud pretendenti) asosida shakllantirilgan. AQSHning huquqni qo'llash amaliyoti hozirgi kunda raqobatga qarshi kelishilgan harakatlarni gorizontal va vertikal harakatlarga, shuningdek noqonuniy per se harakatlar to'g'ri yondashish qoidasi asosida ko'riladi.

Per se noqonuniy kelishilgan harakatlarga asosan narxlarni belgilash, bozorlarni taqsimlash va bo'lib olish, vertikal kelishuvlarda narxlarni bog'liqligi, ya'ni bitta shaxs bozorga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hukmronlikka ega bo'lishini keltirib chiqaradigan gorizontal kartel kelishuvlar kiradi. To'g'ri yondashish qoidasiga binoan ko'rib chiqiladigan kelishilgan harakatlar ro'yxati (qachon raqobatga qarshi harakatlar samarasi ijobiy samara ehtimoliga qarama-qarshi tortiladi) birmuncha kengdir.

Yevropa Ittifoqi. Yevropa Ittifoqi raqobat huquqiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu sohaning mutaxassisi, Halle universiteti o'qituvchisi Moritz Lorens o'zining "Yevropa Ittifoqi raqobat huquqiga kirish" kitobida (Moritz Lorenz, *An introduction to EU competition law*, 2013) hamda Smit va Kinglarning "Raqobat huquqi iste'molchilarni yetarli himoya qiladimi?" nomli kitoblarida (Smith and King, 'Does Competition Law Adequately Protect Consumers?', *European Competition Law Review*, 28 (2007) keltirilishicha Yevropa Ittifoqi umumiy bozorida raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarning tuzilishiga asosiy sababchi qilib davlat hokimiyati organlari va vakillarini ko'rsatishgan¹.

¹ Moritz Lorenz, *An introduction to EU competition law*, 2013, Chapter 7: The limitations of the market mechanism, p.23. Smith and King, 'Does Competition Law Adequately Protect Consumers?', *European Competition Law Review*, 28 (2007)

Ya'ni turli davlat va hukumat miqyosidagi uchrashuvlarda yirik biznesmen va ishbilarmon soha vakillari uchrashib, o'zlari chiqarayotgan tovarlarini yoki ko'rsatayotgan xizmatlarini muhokama qilish jarayonida, o'zlariga ma'qul narxlarni, sifatlarni, shartlarni ham belgilab olishlari mumkin va shunday ham bo'lmoqda. Ularning bunday xatti-harakatlarini Adam Smit o'zining 18-asrda yozib qoldirgan "Millatlar boyligi" kitobida (Adam Smith, *The Wealth of Nations* 1776) "ko'rinmas qo'l" (invisible hand) deb nomlab, qolgan shaxsiy yoki kichik biznes vakillariga nisbatan adolatsizlik bo'layotgani va raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlar doirasiga kirishini ta'kidlashgan¹.

Bundan tashqari, "Yevropa Ittifoqining faoliyati to'g'risida"gi Bitimning (TFEU – Treaty on the Functioning of the European Union) 101- moddasi raqobatga qarshi bitimlar (anticompetitive agreements), 102-moddasi ustun mavqeni buzish (abuse of dominance), 107-109-moddalaridagi davlat yordami (State aid) kabi moddalar hamda Yevropa Ittifoqining "Kompaniyalar qo'shilishi to'g'risida"gi Reglamentning (EU Merger Regulation) tegishli boblarida ham raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlar haqida so'z ketgan².

Bundan tashqari Rim Shartnomasining 81-moddasi raqobatga qarshi kelishilgan harakatlarni taqiqlashni AQSHdagi Sherman Qonuniga qaraganda ko'proq keltirgan.

Quyidagilar umumiy bozorga mos kelmagani uchun man qilinadi: umumiy bozor chegarasida raqobatni oldini olish, cheklash yoki buzish maqsadiga ega bo'lgan va a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiqqa ta'sir (salbiy) ko'rsatishi mumkin bo'lgan korxonalar o'rtasidagi barcha bitimlar, korxonalar assotsiatsiyalarini qarorlari va kelishilgan harakatlari, ya'ni:

¹ Adam Smith, *The Wealth of Nations* 1776. Book 4, Chapter 2: Of restraints upon importation from foreign countries of such goods as can be produced at home.

² TFEU - Treaty on the Functioning of the European Union (consolidated version), OJ No. C 115 of 9 May 2008, p. 47, EU Merger Regulation.

Sotish va sotib olish narxlarini yoki savdo-sotiqni boshqa shartlarini bevosita yoki bilvosita belgilaydilar;

Ishlab chiqarishni, bozorlarni, texnik rivojlanishini, yoki investitsiyalarni cheklaydilar yoki nazorat qiladilar;

Bozorlarni yoki yetkazib berish manbalarini taqsimlaydilar;

Savdo-sotiq bo'yicha boshqa hamkorlar bilan ekvivalent bitimlarga teng bo'lmagan shartlarni qo'llaydilar va shu bilan raqobatchilarni noqulay ahvolga soladilar.

Shunday qilib, moddada ushbu bitimlarni indikativ sifatida beshta asosiy turidan iborat ro'yxatini keltiradi. Asosiy mezonlar:

Harakatlar tomonlar o'rtasida kelishilgan (mumkin) bo'lgan barcha shakllarda).

Harakatlarni maqsadi yoki samarasi raqobatni oldini olish, cheklash yoki buzish.

Biroq Rim Shartnomasining 82-moddasi ma'lum mezonlarga javob beruvchi istisnolarga ruxsat beradi:

...(kelishib qilingan harakat) ishlab chiqarishni yaxshilashga va tovarlarni tarqatishga yoki texnika taraqqiyotiga hissa qo'shadi, shu bilan birga iste'molchiga oxirgi foydadan insofli ulushni beradi:

a) ko'rilayotgan korxonalariga ushbu maqsadga erishish uchun majburiy bo'lmagan cheklashlarni qo'ymaydi;

b) ushbu korxonalariga ko'rilayotgan bozor qismlarida raqobatni cheklash imkonini bermaydi;

Yuqorida eslab o'tilgandek, Yevropa Komissiyasi yuqoridagi norma asosida istisnolarni chiqarishga vakolatli bo'lib, yakka tartibda hamda butun tarmoqlarga nisbatan guruhlashgan (block exemptions) bo'lishi mumkin.

Rossiya. Rossiyaning "Raqobatni himoya qilish to'g'risida"gi qonunining yangi tahriri Yevropa Ittifoqi huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligi ko'zga tashlanadi (xususan, Rim Shartnomasining 82-moddasi va hukumat va vakolatli organ tomonidan istisnolarni berish amaliyoti). Birinchi qism ushbu taqiqlashga tushadigan 9 ta holatning ro'yxatini keltiradi. Jumladan, 6-moddada xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan bitimlari yoki kelishib qilingan harakatlarini taqiqlash quyidagicha ta'kidlab o'tilgan:

1. Muayyan tovar bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklab qo'ygan yoki cheklab qo'yishi mumkin bo'lgan quyidagi bitimlari va kelishib qilingan harakatlar taqiqlanadi:

1) narxlar (tariflar), chegirmalar, ustamalar (qo'shimcha to'lov) belgilash (saqlab turish);

2) savdoda narxlarni oshirish, pasaytirish yoki ushlab turish;

3) bozorni hudud bo'yicha, sotuv yoki xarid hajmi, tovarlar xillari bo'yicha, sotuvchilar va xaridorlar (buyurtmachilar) bo'yicha bo'lib olish;

4) ma'lum sotuvchilar yoki xaridorlar (buyurtmachilar) bilan shartnoma tuzishdan bosh tortish;

5) kontragentga unga foydali bo'lmagan yoki shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan (moliyaviy mablag'lar, boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni o'tkazishga doir talablarni majburan qabul qildirish, shartnomani kontragent manfaatdor bo'lmagan tovarlarga taalluqli bo'lgan qoidalarni kiritish sharti bilan tuzish va boshqa talablar) shartlarni majburan qabul qildirish;

6) bitta tovarni sotib oluvchi shaxslarga iqtisodiy, texnik va boshqa shartlar bilan asoslanmagan turlicha narxlarda (tariflarda) sotish;

7) buyurtmalar va talab bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga qulay sharoitlar bo'lgan taqirda ham, shuningdek ularni zararsiz ishlab chiqarish imkoniyati bo'lganda ham ularni ishlab chiqarishni asossiz qisqartirish yoki to'xtatish;

8) boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga bozorga kirish (chiqish) uchun to'siqlarni vujudga keltirish;

9) raqobatni cheklashi, bartaraf qilishi yoki unga yo'l qo'ymasligi mumkin bo'lgan professional yoki boshqa birlashmalarda a'zolik (ishtirok etish) shartlarini, shuningdek a'zolikni asoslanmagan mezonlarini belgilash to'lash yoki boshqa tizimlarga kirish uchun to'siq hisoblansa va unda ishtirok etmaslik o'zaro raqobatlashadigan moliyaviy tashkilotlar kerakli moliyaviy xizmatlarni ko'rsata olmasalar.

6-moddaning 2 va 3-qismlari raqobatga qarshi gorizontaal va vertikal kelishilgan harakatlarni qolgan hammasini taqiqlaydi. Asosiy mezon – raqobatni cheklash:

2. Muayyan tovar bozorida harakatlanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni raqobatni cheklovchi boshqa bitimlari yoki kelishib qilingan harakatlari taqiqlanadi.

3. Ma‘lum tovar bozorida o‘zaro raqobatlashmaydigan, tovarni oluvchi (potensial sotib oluvchi hisoblanadigan) va taqdim qiluvchi (potensial sotuvchi hisoblanadigan) xo‘jalik yurituvchi subyektlarni raqobatni cheklovchi bitimlari va kelishib qilingan harakatlari taqiqlanadi, Federal qonunning 7-moddasida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno.

Biroq 6-moddaning 3-qismi vertikal kelishuvlarga qo‘llaniladigan de minimus normaga asoslanadi (7 modda):

O‘zaro raqobatlashmaydigan, tovarni oluvchi (potensial sotib oluvchi hisoblanadigan) va taqdim qiluvchi (potensial sotuvchi hisoblanadigan) xo‘jalik yurituvchi subyektlarni raqobatni cheklovchi bitimlari va kelishib qilingan harakatlariga ruxsat beriladi, qachonki, ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning har birini ulushi har qanday tovar bozorida 5% dan ortiq bo‘lmasa.

4. Jismoniy shaxslar, tijorat va notijorat tashkilotlarining ushbu moddaning birinchi qismida qayd etilgan oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib keladigan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi faoliyatlari taqiqlanadi.

5. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ushbu moddaning 2 va 3-qismlarida ko‘rsatilgan bitimlari yoki kelishib qilingan harakatlari, qonuniy deb hisoblanishi mumkin, qachonki xo‘jalik yurituvchi subyekt sudga yoki monopoliyaga qarshi organgan uni harakatlarini oqibatlari ushbu Federal Qonunning 8 moddasini 1-qismini 1 va 2 bandlarida sanab o‘tilgan shartlarni qondirishini isbotlab bersa.

8 modda. Istisnolar:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ushbu Federal qonunni 5 moddasining 1-qismida (5-moddaning 1-qismini 1,2,3,5,6 va 7-bandlarida ko‘rsatilgan harakatlardan tashqari), 6-moddasini 2 va 3-qismlarida va 25-moddasida ko‘zda tutilgan harakatlari (harakatsizliklari) qonuniy deb hisoblanadi, qachonki ushbu harakatlar (harakatsizliklar) alohida shaxslar uchun ma‘lum tovar bozorida raqobtgga yo‘l qo‘ymaslik yoki uni bartaraf etishga sharoit yaratmasa va quyidagi oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lsa:

1) tovarlarni ishlab chiqarish (sotish) yoki texnika taraqqiyotini (iqtisodiy) rag'batlantirishga yoxud jahon bozorida tovarning raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashsa;

2) xaridorlar tomonidan ushbu harakatlarning sodir etishdan tegishli shaxslar oladigan afzalliklarni (foйда) bir qismini olishi va bunda uchinchi shaxslarga yoki mazkur harakatlarda qatnashuvchilarni ushbu harakatlarini cheklamasa va ushbu harakatlar maqsadiga erishish uchun zarur bo'lsa.

2. Rossiya Federatsiyasi hukumati ushbu moddaning (jamoа istisnolari) 1-qismi, 1 va 2-bandlarida ko'rsatilgan shartlarga mos keladigan bitimlar va kelishib qilinadigan harakatlar turlarini belgilash huquqiga ega "Ma'lum turdagi bitimlar va kelishib qilingan harakatlarni ko'rsatilgan shartlarga mos kelishi to'g'risida"gi qaror ushbu Federal qonunning 6-moddasini 2 va 3-qismlarida ko'rsatilgan bitimlar va kelishib qilingan harakatlarga nisbatan Monopoliyaga qarshi Federal organning taklifi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan qabul qilinadi. Jamoa istisnolari aniq muddatga kiritiladi va quyidagilarni belgilaydi:

1) bitimlar va kelishib qilingan harakatlarning turi;

2) ushbu bitimlar yoki kelishib qilingan harakatlarga nisbatan yo'l qo'yiladigan shartlar;

3) shunday bitimlarda bo'lishi shart bo'lgan majburiy shartlar; Jamoa istisnolari sifatida ushbu bitimlar va kelishib qilingan harakatlar mos keladigan boshqa shartlar ham ko'zda tutilishi mumkin.

Yaponiya. Yaponiyaning "Monopoliyaga qarshi qonuni"ning 3-moddasi xususiy monopollashishdan tashqari, shuningdek savdo-sotiqni noto'g'ri cheklashni man qiladi: hech qaysi tadbirkor xususiy monopollashish yoki savdo-sotiqni noto'g'ri cheklashi mumkin emas.


Noto'g'ri cheklashning ta'rifi 2-moddaning 6 qismida berilgan:

ushbu hujjatda ishlatiladigan "savdo-sotiqni noto'g'ri cheklash" atamasi shunday tadbirkorlik faoliyatini bildiradiki, bunda har xil tadbirkor shartnoma, bitim yoki har xil boshqa kelishilgan harakatlarga muvofiq ularni nomidan qat'i nazar, boshqa tadbirkor bilan shunday harakatlarni amalga oshiradiki, bunda birgalikdagi harakat narxlarini ushlab turish yoki ularni oshirishga, texnologiyalar, xizmat qilish vositalari shunday ta'sir ko'rsatadiki, bu bilan mijozlar(iste'molchilar) yoki yetkazib beruvchilarni jamoa manfaatlariga zid keluvchi va savdo-sotiqni har xil alohida sohasida raqobatni sezilarli tarzda cheklashini keltirib chiqaradi.

Germaniya. Germaniyaning kelishib qilingan harakatlarni tartibga soluvchi "Raqobatga qarshi cheklash qonuni" normalari barcha milliy qonunchiliklar ichida eng mukammali, desa mubolag'a bo'lmaydi.

Sherman Qonunidan farqli tarzda GFR qonuni raqobatni cheklash bo'yicha har xil bitimlar, birlashishlar yoki kelishib olishlarga nisbatan umumiy taqiqlashlar yo'q.

Unda cheklashning ma'lum shakllariga nisbatan alohida normalar qayd qilingan, ularga quyidagilar kiradi:



Buyuk Britaniya. Birlashgan Qirollikdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning raqobatga qarshi kelishilgan harakatlarini man qiluvchi moddasi Rim Shartnomasining 81-moddasiga ko'ra ishlab chiqilgan. "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasi 1-qismida shunday deyiladi:

Korxonalar o'rtasidagi, ularning assotsiatsiyalari qarorlari yoki kelishib qilingan harakatlar Birlashgan Qirollik hududida savdo-sotiqqa salbiy ta'sir ko'rsatsa taqiqlanadi.

2-moddaning 2-qismi Rim Shartnomasini (YI) 81-moddasidan so'zma-so'z olingan ushbu bitimlar turlarini to'liq bo'lmagan ro'yxatini keltiradi:

- sotish va sotib olish narxlarini yoki savdo-sotiqni boshqa shartlarini bevosita yoki bilvosita belgilaydilar;
- ishlab chiqarishni, bozorlarni, texnik rivojlanishni yoki investitsiyalarni cheklaydilar yoki nazorat qiladilar;
- bozorlarni yoki yetkazib berish manbalarini taqsimlaydilar;
- savdo-sotiq bo'yicha boshqa hamkorlar bilan ekvivalent bitimlarga teng bo'lmagan shartlarni qo'llaydilar va shu bilan raqobatchilarni noqulay ahvolga soladilar;

Bir yo'riqnomada ushbu modda ta'siriga tushuvchi bitimlar, kelishib qilingan harakatlarni batafsil ro'yxati keltiriladi:

- narxlarni bevosita va bilvosita cheklash bo'yicha bitimlar;
- savdo shartlarni cheklash bo'yicha bitimlar;

- bozorlarni bo'lib olish bo'yicha bitimlar;
- ishlab chiqarish va investitsiyalarni cheklash yoki nazorat qilish bo'yicha bitimlar;
- savdoda kelishib olish
- birgalikda sotib olish yoki sotish;
- axborotlarni almashtirish bo'yicha bitimlar;
- reklamani cheklash bo'yicha bitimlar;
- standartlashtirish bo'yicha bitimlar.

Korxonalar o'rtasidagi munosabatlar, kelishib qilingan harakatlar turli-tuman bo'lishi mumkin. Iqtisodiy va texnologik rivojlanish munosabati bilan munosabatlarni yangi turlari paydo bo'ladi, ularni barchasini bitta hujjatda hisobga olish imkoniyati yo'q.

Germaniyaning qonunchiligi singari Buyuk Britaniyaning "Raqobat to'g'risida"gi qonuni raqobatga qarshi bitimlar kelishib qilingan harakatlarni man qilishdan mustasno qilishni juda murakkab va mufassal ta'riflab berilgan jadvalga ega.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, raqobatni himoya qiluvchi vosita va kuchli instrument sifatida monopoliyaga qarshi siyosatga suyanish ichki raqobat iqtisodiyotning muhim jihati hisoblagan rivojlangan mamlakatlar uchun eng kuchli va to'g'ri yo'l bo'ldi. Masalan, dunyo miqyosida monopoliyaga qarshi eng qattiq siyosat AQSH va Yevropa Ittifoqi (asosan, Germaniya)da kuzatilgan. Dunyo miqyosida unchalik katta bo'lmagan iqtisodiyotlar muqobil iqtisodiy maqsadlarni baholash tendensiyasiga ega bo'lganlar, bular asosan, sanoatni rivojlanishi va eksportni o'sishini raqobatga nisbatan yuqori qo'yilgan va industrial siyosatni raqobatga qarshi samara bilan keng ishlatishni namoyish qilganlar.

Raqobatdan boshqa maqsadlarga e'tibor qaratish kuchsiz siyosatda aks etadi, u ma'lum xatti-harakatlarni o'rganishdan ozod qiladi yoki monopoliyaga qarshi qonunlar doirasida raqobatlashmaydigan standartlarini ishlab chiqadi. Monopoliyaga qarshi o'rganishdan ozod qilish iqtisodiy maqsadlarni ko'zlashning favqulodda chorasi hisoblanadi, raqobatdan farq qiladi va shu bilan eng ustuvor iqtisodiy maqsadlar bilan cheklanishi mumkin.

Lekin shunga qaramasdan, iqtisodiy yuksalish sur'atlarining susayishi va iqtisodiyotni milliy industrial sektorlari tomonidan konsentratsiyalashuvchi yuqori darajalariga erishishi bilan monopoliyaga qarshi tartibga solish va oxirgidan ozod etish uchun standartlarni tartibga solishni qattiqlashishi tendensiyasi mavjuddir.

O'rganilgan iqtisodiyotlarning ichida umumiy jihatlar bu qonunlarni xususiy sektorning xatti-harakatlarini tartibga solishga qaratilganligidir. Masalan, narxlarni cheklash va ularni ushlab turish deyarli hamma joyda

noqonuniy hisoblanadi. Biroq ushbu qonunlarni hayotga tatbiq etishni ma'muriy mexanizmlari mamlakatdan mamlakatga juda o'zgaruvchan bo'ladi. Barcha qonunchiliklar monopoliyaga qarshi qonunlarni ma'muriy agentliklar yordamida o'rganishni o'tkazish, qonunlarni talqin qilish va qonunbuzuvchilarga nisbatan kompensatsiya choralarini belgilash yordamida amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasida ham halol raqobatni qo'llab-quvvatlovchi, monopoliyaga qarshi harakatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tobora mukammallashib ushbu sohada vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishda ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari tahlil etilib, ularni bu kabi harakatlardan tiyilishga, erkin raqobatni vujudga keltirishga va bu kabi sa'y-harakatlar natijasida bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga zamin yaratilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlarining bitimlardan farqi va o'xshash jihatlari nimada aks etadi?

2. Gorizontal bitimlarning vertikal bitimlardan asosiy farqi nimada? Javobingizni asoslab bering.

3. Ishlab chiqarish bozorida mahsulotlar ustidan nazorat o'rnatish xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari yoki bitimlari sirasiga kiradimi?

4. Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi kelishib olingan harakatlar tushunchasi bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'rtasida qanday o'xshash va tafovutlar mavjud?

1-kazus

Tovar bozorida 10% shakarni yetkazib beruvchi "Shirin" MChJ va 15% shakar yetkazib beruvchi "Lazzat" MChJ shakarining har bir kilogrammini 5,000 so'mdan sotishga kelishib oldi. Lekin bozorda 75% shakarni yetkazib beruvchi "Novvot" AJ ushbu narx uni qoniqtirmasligini va shakarni oldingi 4000 so'm narxda sotish kerakligini ta'kidladi.

"Shirin" MChJ va "Lazzat" MChJlarning harakatlari kelishib olingan harakatlar sirasiga kiradimi? Vaziyatga huquqiy baho bering?

2-kazus

Bozorda sut mahsulotlarining 10% yetkazib beruvchi “Qaymoq” XK rahbariga shu bozorda go’sht mahsulotlarini sotuvchi va ustun mavqega ega bo’lgan “Qassob” MChJ rahbari sut mahsulotlarini faqat “Qassob” MChJdan olishini, aks holda “Qaymoq” XK mahsulotlari hajmini 5%ga qisqartirishi yoki o’ziga boshqa joydan bozor izlashi lozimligini ta’kidladi.

Ushbu vaziyatga raqobat qonunchiligi bo'yicha huquqiy baho bering.

V BOB. TOVAR VA MOLIYA BOZORIDA RAQOBATNI CHEKLAYDIGAN DAVLAT ORGANLARI VA YURIDIK SHAXSLAR BIRLASHMALARINING HUJJATLARI HAMDA HARAKATLARI

5.1. Tovar va moliya bozorida raqobatni cheklaydigan davlat organlari hujjatlari va harakatlari tushunchasi hamda ularning tasnifi

Tadbirkorlik faoliyatini raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham u iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Raqobat inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida uchraydi. Raqobatda raqobatlashayotgan taraflar bitta maqsad uchun o'zaro musobaqalashadi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotishda bir-biridan yaxshiroq sharoitlarni yaratib, mumkin qadar ko'proq foyda olishga intilishadi.

Raqobat muhiti mavjud bo'lgan iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati erkin bo'ladi, ya'ni istalgan tovar (ish, xizmat)lar bozorida faoliyat ko'rsatishlari va ulardan o'z xohishlari bo'yicha chiqib ketishlari mumkin.

Raqobat rivojlangan sari odamlarning turmush darajasi yaxshilanib boradi. Raqobatni yo'q qilinishi yoki asossiz ravishda cheklab qo'yilishi esa iqtisodiyotni inqirozga hamda odamlarning turmush darajasini tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Chunki faqatgina raqobat vositasida narxi arzon va sifati yuqori bo'lgan tovarlar (ish, xizmat) ishlab chiqiladi hamda realizatsiya qilinadi.

Raqobat sharoitida o'zi bilgan yoki bilmagan holda bozorda insofsiz raqobat yoki monopolistik faoliyat mavjud bo'lishiga imkoniyat yaratmasligi lozim. Ushbu holatning oldini olishga qonunchilik qat'iy yondashadi va bu masala keyingi qismlarda chuqurroq yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida "raqobatga qarshi harakatlar" tushunchasi ta'rifi berilgan:

Raqobatga qarshi harakatlar – bu raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi)dir.

Raqobatga qarshi harakatlarning bir turi sifatida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari e'tirof etiladi va qonun bilan taqiqlanadi ("Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasi).

Davlat organlariga davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari kiradi.

Davlat boshqaruvi organlariga – vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari hamda ularning hududiy boshqarma va bo'linmalari kirsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari va hokimliklar hisoblanadi.

Bulardan tashqari, raqobatga qarshi harakatlarning ushbu turini sodir etishi mumkin bo'lgan subyektlar sirasiga yuridik shaxslarning birlashmalari ham kiradi. Yuridik shaxs birlashmalari sifatida ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslarning manfaatlar hamohangligida (foyda olishni ko'zlab) birlashgan ko'rinishlari e'tirof etiladi. Masalan: "O'zkimyosanoat" AJ, "O'zpaxtasanoat" AJ, "O'zdonmahsulot" AK.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining amalga oshirishi taqiqlangan faoliyat turlari ko'rsatilgan.

Ulardan biri – bu faoliyatning biror bir sohasida yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga cheklovlar joriy etishi, shuningdek faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishni yoki muayyan tovarlar ishlab chiqarishni man etishi. Ushbu turdagi noqonuniy harakatlar ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni beradigan davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalari tomonidan sodir etilishi mumkin.

Bundan tashqari, shartnomalar tuzishda ustunlik berish, sotib oluvchilarning muayyan doirasiga tovarlarni birinchi navbatda realizatsiya qilish, moliyaviy mablag'larning manbalarini tanlash va ulardan foydalanish yo'nalishlarining afzalligi to'g'risida xo'jalik yurituvchi subyektga ko'rsatmalar berish ham amalga oshirilishi taqiqlangan faoliyat turlariga kiradi.

Keyingisi amaliyotda ko'p uchrashi mumkin bo'lgan taqiqlangan faoliyat turlaridan biri bu ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berishdir. Raqobatga qarshi ushbu turdagi harakat noqonuniy tarzda berilgan yoki berilishi

kutilayotgan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklar boshqa raqobatlashishi mumkin bo'lgan xo'jalik subyektlarning ayrim(lar)iga berilishi va boshqa xo'jalik subyektlariga berilmasligi tarzida amalga oshiriladi.

Davlat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish, o'z vazifalarini xo'jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan qo'shib bajarishi hamda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash ham amalga oshirishi ham taqiqlangan faoliyat turlariga kiradi. Boisi, qonun hujjatlarida belgilangan hollardan tashqari, davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslarning birlashmalari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektning ustav kapitalidan ulushga ega bo'lishi taqiqlanadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan harakatlari sirasiga yana o'z vazifalarini xo'jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan qo'shib bajarishi ham kiradi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalari qonun hujjatlari va o'z ta'sis hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishlari shart.

5.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo'lgan tarzda aralashish

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida yetarlicha raqobatni ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyati bo'yicha turli xil funksiyalarni (tartibga solish, ko'maklashish va ular faoliyatini nazorat qilish va h.k.) amalga oshiradigan ijro hokimiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ijro hokimiyati organlari iqtisodiyotga har xil ta'sirlar ko'rsatishi, raqobat vositalarini ta'minlashi mumkin. Qonun chiqaruvchi esa har qanday vaziyatda ijro hokimiyati organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining, jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlarining va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklovchi harakatlari (harakatsizligi)ga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan muayyan talablarni belgilaydi.

“Raqobat to'g'risida”gi Qonunning 12-moddasida aytib o'tilgan qoidalar bu yerda ham amal qiladi.

“Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo'lgan tarzda aralashish” deganda nimani tushunish mumkin?

Aytmalik, ma'lum bir tadbirkorga ma'lum muddatga afzallik berish, avvaliga raqobatga to'sqinlik qilmaydigan harakat bo'lishi mumkin, lekin oxir oqibatda raqobatni cheklaydigan holatlar paydo qilishi xavfi bormi, demak, bunday hujjatlar chiqarish yoki harakatlarni amalga oshirish ham taqiqlanadi.


Bunga misol tariqasida 12-moddaning birinchi va ikkinchi qismida keltirilgan barcha holatlarni keltirish mumkin.

Yuridik shaxslar birlashmalarining ham xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatiga pirovard natijada raqobatni cheklab qo'yadigan yoki cheklab qo'yishi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi taqiqlanadi.

5.3. Davlat organlari va yuridik shaxs birlashmalarining tovar va moliya bozorlarida raqobatni erkin rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi hamda iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsituvchi harakatlari

Davlat organlarining raqobat qoidalarini buzadigan harakatlari va hujjatlarining katta qismi xo'jalik faoliyatini amalga oshirishga asossiz to'sqinlik qilishda kuzatiladi. Ushbu turdagi to'sqinlik qilish quyidagilarda: noqonuniy to'lovlar joriy qilish, obyektlarni joylashtirishga ruxsat berishni rad qilish, ruxsat beruvchi hujjatlarni va hujjatlarga rozilik berishni rad qilish va h.k. namoyon bo'ladi


"Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra:



Davlat hokimiyati hujjatlari (harakatlari, kelishuvlari) masalasi yangi Qonunning bir necha moddasida yoritilgan.

Ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Hujjatlari (harakatlari) raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan shaxslar (davlat organlari) guruhiga ijro etuvchi organlar, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvchi organlar (hissasiga ko'proq miqdordagi huquqbuzarliklar to'g'ri keladi) yoki boshqa organlar va tashkilotlar kiradi.



Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shikoyatlar yo'qligi monopoliyaga qarshi kurash organi uchun o'z vakolatlari doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va qonunga xilof xatti-harakatlarining oldini olishga to'sqinlik qilmasligi lozim. Shunday qilib mazkur normani keltirib o'tilgan shaxslarga tovar bozorlarida me'yordagi raqobatga to'sqinlik qiluvchi va buning oqibatida esa xo'jalik yurituvchi subyektlar huquqlarini kamsitilishiga sabab bo'luvchi hujjatlar qabul qilishni hamda harakatlar sodir etishni taqiqlovchi norma sifatida ko'rib chiqilsa to'g'riroq bo'ladi.

Noqonuniy hujjatlar va faoliyatlarning yagona oqibati raqobatga putur yetkazishdan iborat bo'ladi. Bunday hujjatlar raqobatni vujudga keltirmasligi, cheklashi, yo'q qilinishiga olib keladi yoki olib kelishi mumkin.

Mavjud holat sifatida ta'kidlash lozimki, nafaqat davlat organlarining harakatlari, balki, harakatsizligi ham taqiqlanishi mumkinligi yangi qonunda ko'rsatilgan.

Yana bir muammo sifatida hokimiyat organlarining huquqbuzarligini tartibga solish muammosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bu dominant vakolat (ustun mavqe) ni suiiste'mol qilishga taalluqli.

Qonunda harakat (harakatsizlik)ga taqiq, “raqobatni rivojlantirish va boshqa shaxslarning manfaatlarini himoya qilishni cheklovchi, taqiqlovchi, yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lib ko‘rinadigan yoki ko‘rinishi mumkin bo‘lgan natijaga olib keluvchi” taqiqlar ko‘rsatib o‘tilgan. Bu punktda alohida taqiqlangan xatti-harakatlar ro‘yxati ham ko‘rsatilgan bo‘lib, buning uchun “shu jumladan” iborasi qo‘llanilgan. Bu holatni ikki xil yo‘sinda tahlil qilish mumkin. Bir tomondan, aytish mumkinki, ro‘yxatda ko‘rsatilgan raqobatni cheklovchi yoki boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga putur yetkazuvchi xatti-harakatlar ro‘yxatda nazarda tutilgan alohida harakatlar jumlasiga kiradi. Bu holatda ro‘yxatda ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish faktini isbotlash muhim ahamiyat kasb etib, raqobatni cheklash yoki boshqa subyektlarning manfaatlariga putur yetkazishi shart emas. Boshqa tomondan, ro‘yxatda nazarda tutilgan xatti-harakatlarni boshqa shartlarni taqiqlovchi bir turdagi shartlar bilan bog‘liq xatti-harakatlar natijasi raqobatni cheklovchi, taqiqlovchi yoki yo‘l qo‘ymaydigan shartlar natijasiga olib kelishi mumkin.

Agar ro‘yxatda nazarda tutilmagan hujjat yoki xatti-harakat masala doirasida qabul qilingan bo‘lsa, unda ularni ro‘yxatda nazarda tutilmagan qonunga xiloflikning hamma alomatlarini, qonunda nazarda tutilgan raqobatning vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yoki vujudga kelgan aloqalarni istisno qilgan holda isbotlash mumkin.

Misol uchun, taqiqlanidigan holat sifatida formal tarkibli davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari qatorida u yoki bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to‘sqinlik qilish mavjud.

Yana bir misolni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, sud amaliyotida shunday holat bo‘lganki, xo‘jalik nizosi soliq inspeksiyasining bir MCHJga soliqqa tortishning soddashlashtirilgan tizimiga o‘tishiga to‘sqinlik qilganligidan boshlangan. MCHJ antimonopol (monopoliyaga qarshi kurash organi) (raqobat) organiga murojaat qilib, soliq organining mazkur harakati uning xo‘jalik faoliyatiga to‘sqinlik qilishini va manfaatlarini cheklashini bayon qilgan. Raqobat organi soliq inspeksiyasiga qarorini sudga mazkur ko‘rsatma bergan. O‘z navbatida, soliq inspeksiyasi sudga mazkur ko‘rsatmani haqiqiy emas deb topish talabi bilan murojaat qiladi. Sud nizoni ko‘rib chiqib, soliq inspeksiyaning rad qilishi xo‘jalik subyekting

mustaqilligini cheklamaganligini, tadbirkorlik faoliyati masalalarida kamsitmaganligini va raqabatbardoshligiga ta'sir ko'rsata olmasligini vaj qilib, soliq inspeksiya talablarini qanoatlantirgan.

Boshqa vaziyatda soliq inspeksiyasi xo'jalik yurituvchi subyektga sotilgan mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblash xususida ko'rsatma beradi. Ushbu holatda antimonopol organ soliq inspeksiyaga Raqobat to'g'risidagi Qonunning buzilish holatini bartaraf etish haqida ko'rsatma beradi. Soliq inspeksiya sudga murojaat qilib, antimonopol organ tomonidan soliq inspeksiyasining qabul qilgan hujjati va sodir etgan harakati xususida dalil taqdim etmaganligini va narxlarni belgilashda xo'jalik yurituvchi subyekt qonunlar doirasida mustaqilligini bayon qiladi. Oqibatda soliq inspeksiyasining talablari qondiriladi.

5.4. Tovar va moliya bozorida raqobatni cheklaydigan davlat organlarining boshqa harakatlari

Davlat organlari va yuridik shaxslar birlashmalari (ittifoqlari, uyushmalari), xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining uyushmaga kirgan xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik faoliyatiga raqobatni cheklaydigan yoxud cheklashi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi taqiqlanadi. Ushbu talabni buzish monopoliyaga qarshi davlat organi (o'z vakolatlari doirasida hududiy organ)ning da'vosiga binoan yuridik shaxslar birlashmasi (ittifoqi, uyushmasi)ning, xo'jalik shirkati yoki jamiyatining sud orqali tugatilishiga asos bo'lishi mumkin.

Qonun buzilishi haqida, shu asnoda, raqobatni cheklaydigan harakatlar va hujjatlar haqida gapirar ekanmiz, shuni e'tiborga olish lozimki, amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar qonunchilikda nazarda tutilmagan bo'lishi ham mumkin.

Ya'ni "...boshqa harakatlar" deganda, qonunchilikda nazarda tutilmagan boshqa holatlar ham raqobatni cheklaydigan hujjatlar yoki harakatlar deb topilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan masalani chuqurroq tadqiq etish maqsadida rivojlangan davlatlar amaliyotiga e'tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida amalda bo'lgan Sherman Qonunining 1-moddasida shunday deyiladi¹:

¹ Competition law and policy in the United States. Department of Justice. Federal Trade Commission publishing house, 2002. Textbook. – P.18.

Trest shaklidagi har xil bitim (kontrakt) yoki birlashish, yoki bir nechta shtatlar, yoki millatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni yoki tijoratni cheklash maqsadida boshqa turdagi kelishib olishlar qonuniy emas deb hisoblanadi.

Shu bilan AQSHning raqobatga qarshi kelishib qilinadigan harakatlarini man qiladigan qonunchilik normasi tugaydi.

Mazkur modda ta'siriga tushgan harakatlar ro'yxati Sherman Qonuni amalda bo'lgan vaqt davomida o'zgarib kelgan va Umumiy huquq (sud prezidenti) asosida shakllantirilgan.

Yaponiyaning "Monopoliyaga qarshi Qonun"ining 3-moddasi xususiy monopollashishdan tashqari savdo-sotiqni noto'g'ri cheklashni ham man qiladi¹:

Hech qaysi tadbirkor yoki yuridik shaxs birlashmasi xususiy monopollashish yoki savdo-sotiqni noto'g'ri cheklashi mumkin emas.

Noto'g'ri cheklashning ta'rifi shunday berilgan:

Ushbu hujjatda ishlatiladigan "savdo-sotiq noto'g'ri cheklash" atamasi shunday tadbirkorlik faoliyatini bildiradiki, bunda har xil tadbirkor shartnoma, bitim yoki har xil boshqa kelishilgan harakatlarga muvofiq, ularni nomidan qat'iy nazar, boshqa tadbirkor bilan shunday harakatlarni amalga oshiradiki, bunda birgalikdagi harakat narxlarini ushlab turish yoki ularni oshirishga, texnologiyalar, xizmat qilish vositalari shunday ta'sir ko'rsatadiki, bu bilan mijozlar(iste'molchilar) yoki yetkazib beruvchilarni jamoa manfaatlariga zid keluvchi va savdo-sotiqni har xil alohida sohasida raqobatni sezilarli tarzda cheklashni keltirib chiqaradi.

Germaniyaning "Raqobatga qarshi cheklash Qonuni" normalari barcha aytib o'tilgan qonunlar ichida eng mukammali desa mubolag'a bo'lmaydi. Sherman Qonunidan farqli tarzda GFR qonuni raqobatni cheklash bo'yicha har xil bitimlar, birlashishlar yoki kelishib olishlarga nisbatan umumiy taqiqlashlar yo'q. Unda cheklashning ma'lum shakllariga nisbatan alohida normalar qayd qilingan. Lekin GFR "Raqobatni cheklashga qarshi Qonuni" Yevropa Ittifoqi normalariga moslashtirilgan².

¹ Competition Law in Japan. Abstract of Doctoral Thesis by Simon Vande Walle and Tadashi Shiraishi. University of Tokyo. 2015. – p.34.

² Competition Law in Germany. Watson, Farley and Williams 2014. Guide book. Published by Hamburg Publishing house.

Buyuk Britaniyaning “Raqobat to‘g‘risidagi Qonuni”ning 2-moddasi 1-qismida shunday deyiladi:

korxonalar o‘rtasidagi, ularning assotsiatsiyalari qarorlari yoki kelishib qilingan harakatlari taqiqlanadi, agar u:

a) Birlashgan Qirollik hududida savdo-sotiqqa salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa;

b) Birlashgan Qirollik chegarasida raqobatni oldini olish, cheklash yoki buzishni o‘zini obyekt yoki samarasi deb bilsa.

2-moddaning 2-qismi Rim Shartnomasini 81-moddasidan so‘zma-so‘z olingan bo‘lib, ushbu bitimlar turlarini to‘liq bo‘lmagan ro‘yxatini keltiradi:

➤ *Sotish va sotib olish narxlarini yoki savdo-sotiqni boshqa shartlarini bevosita yoki bilvosita belgilaydilar;*

➤ *Ishlab chiqarishni, bozorlarni, texnik rivojlanishni, yoki investitsiyalarni cheklaydilar yoki nazorat qiladilar;*

➤ *Bozorlarni yoki yetkazib berish manbalarini taqsimlaydilar;*

➤ *Savdo-sotiq bo‘yicha boshqa hamkorlar bilan ekvivalent bitimlarga teng bo‘lmagan shartlarni qo‘llaydilar va shu bilan raqobatchilarni noqulay ahvolda soladilar;*

➤ *Turi yoki tijorat (savdo) belgilanganligi bo‘yicha kontrakt (bitim, shartnoma) predmeti bilan bog‘liq bo‘lmagan shartlarni qo‘shimcha tarzda kontraktlarga kiritish sharti bilan kontrakt tuzish.*

Germaniyaning qonunchiligi singari, Buyuk Britaniyaning “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni raqobatga qarshi bitimlar (kelishib qilingan harakatlar)ni man qilishdan mustasno qilishni juda murakkab va mufassal ta‘riflab berilgan sxemasiga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi qanday hujjatlar chiqaradi?

2. Ushbu hujjatlar o‘rtasida qanday farq mavjud?

3. Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan chiqariladigan hujjatlarning boshqa vazirliklar va davlat muassasalari tomonidan chiqariladigan hujjatlardan farqli jihatlarni tavsiflang.

4. Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi organlarning qarorlari ustidan qanday tartibda shikoyat qilinadi?

5. Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi "Energy Plus" kompaniyasi va uning filialiga "Status" kompaniyasi bilan energiya yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzishni topshirdi.

1-kazus

"Energy Plus" kompaniyasi xo'jalik sudiga murojaat etib o'z nomiga kelgan topshiriq xatini noqonuniy deb topishni so'radi va bunga asos qilib o'zini energiya yetkazib berish bilan shug'ullanmasligini keltirib, bunday shartnoma tuza olmasligini aytib o'tdi.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan chiqarilgan qaror amaldagi qonunchilikka mosmi?

2-kazus

Temiryo'l tashish xizmatlari bilan shug'ullanadigan korxonalar o'z xizmatlari orasidan asossiz belgilangan tariflarni aniqlab qoldi.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi organi ushbu holatni monopoliyaga qarshi qonun buzilishi deb topdi va tariflarning o'ziga xos yo'nalishlarini belgilab, tariflarni o'zgartirishni va qonuniylashtirishni buyurdi.

Kompaniya esa bunday tariflarni o'zi mustaqil belgilayman deb hisoblaydi.

Ushbu nizoli vaziyatda taraflarning statusiga baho bering.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi organi yuqoridagi holatda o'zining qanday vakolatlaridan foydalanishi mumkin bo'ladi?

VI BOB. RAQOBATGA QARSHI HARAkat SIFATIDA INSOFSIZ RAQOBAT VA UNING KO'RINISHLARI

6.1. Insofsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tavsifi

Tobora rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida insofsiz raqobat va uning oldini olish bugungi kunda iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli davlat iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish borasida raqobatni yanada kuchaytirishga, shaxslarning raqobatga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatlardan himoya qilish bilan bog'liq qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish borasida tizimli huquqiy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Insofsiz raqobat o'zida jamiyat manfaatlariga putur yetkazuvchi, qonun hujjatlari va tadbirkorlik subyektlarning ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda unga zarar yetkazish bilan bog'liq xatti-harakat (harakatsizlik)larni o'zida namoyon etadi. Mazkur huquqqa xilof xatti-harakatlar tovar bozorining normal faoliyat olib borishiga to'sqinlik qiladi shuningdek tadbirkorlarning huquq va manfaatlariga ham putur yetishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida "insofsiz raqobat" tushunchasi va uni huquqiy cheklash bilan bog'liq holatlar 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur Qonunning 2-bobi "Raqobatga qarshi harakatlar" deb nomlanib, u o'zida ustun mavqeni suiiste'mol qilish xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari, insofsiz raqobat ko'rinishlari bilan bog'liq raqobatga zid munosabatlarni o'zida mujassam etadi.

Mazkur normaning Qonunga kiritilishidan asosiy maqsad xo'jalik yurituvchi subyektlarni raqobat munosabatlarida insofsiz harakatlaridan himoya qilish hisoblanadi. Shuningdek, insofsiz raqobatni tartibga solish xususiyati shundan iboratki, bunda harakatlar intellektual mulk huquqining obyektlari bilan ham bevosita bog'liq. Bu borada insofsiz raqobatning qaysi hollarda raqobat huquqi va qaysi hollarda intellektual mulk huquqi bilan tartibga solinishini ajratish huquqshunoslar uchun muhimdir.

Intellektual mulk huquqi obyektlarining huquqiy maqomi intellektual mulk huquqi bilan belgilansa, ulardan qonunga hilof ravishda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar raqobat huquqi bilan tartibga solinadi.

Masalan, tovar belgisini qalbakilashtirish, tijorat siri egasining roziligisiz foydalanish yoki uni oshkor etish shular jumlasidandir. Bunday harakatlarning tartibga solish doirasi kengayganligi uchun ham hozirgi kunga kelib, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda (masalan Germaniyada) insofsiz raqobatga oid munosabatlar maxsus "Insofsiz raqobat to'g'risida"gi Qonun ("Unfair Competition Law") bilan tartibga solinadi.

Insofsiz raqobat tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra insofsiz raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari jamlanmasidir.

Insofsiz raqobatning asosiy jihatlari bo'lib:

boshqa shaxslarga nisbatan iqtisodiy afzallikga ega bo'lish;

qonun hujjatlari (ish muomalasi odatlari)ga rioya qilmaslik;

raqobatchilarga zarar yetkazish yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni sodir etishi;

Iqtisodiy afzallik deganda bozorni egallash maqsadida ("market power") narxlarni belgilash va shu kabi boshqa muhim iqtisodiy unsurlar orqali bozorni manipulyatsiya qilish va oqibatda raqobatni cheklash tushuniladi. Buning natijasida shaxslarning tovar bozorida tadbirkorlik subyektlarining ishchanlik obro'siga putur yetadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 6-moddasida ish muomalasi odatlari deb tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

Insofsiz raqobat natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibat xususiyatidan kelib chiqqan raqobatchiga insofsiz raqobat natijasida yetkazilgan moddiy zarar hamda nomoddiy zarar ko'rinishida bo'lishi

mumkin. Moddiy zarar odatda zarar yetkazuvchi tomonidan, zarar ko'ruvchining mol mulkining kamayishiga olib keladigan zarar bo'lsa, ushbu bozorda boshqa raqobatchilar oldida uning manfaatiga, xususan, kamsitilishi natijasida huquq va manfaatlarining poymol bo'lishini tushunish mumkin.

Zarar tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, zarar – bu huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Shu bilan birga insofsiz raqobat tushunchasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, 1991-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan Sanoat mulki obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasining 10-bis-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra raqobat quyidagi hollarda insofsiz raqobat sifatida ta'kidlanadi:

– raqobatchining tadbirkorlik faoliyatiga turli yo'llar bilan aralashish bilan bog'liq barcha xatti-harakatlari;

– o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxsni turli yolg'on ma'lumotlar tarqatish yo'li bilan obro'sizlantirish;

– tovarning xususiyati, ishlab chiqarish usuli va joyi, iste'mol xossalari, narxi, sifati chalg'ishiga olib keladigan ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq harakatlari tushuniladi.

Odatda insofsiz raqobatni keltirib chiqaruvchi omil shaxsning (yoki shaxslar guruhining) o'z moddiy manfaati yo'lida g'araz maqsadlarni ko'zlagan holda zarar yetkazishga qaratilgan ongli xatti-harakatlarini tushunish mumkin. Chunki shaxs (yoki shaxslar guruhi) zarar yetkazuvchiga aniq maqsadni ko'zlagan holda turli yo'llar bilan, xususan, o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxsning ko'rsatayotgan xizmatini, bajarayotgan ish yoki sotayotgan tovar mahsuloti to'g'risida iste'molchilarga yolg'on ma'lumotlarini turli yo'llar bilan tarqatish bilan bog'liq xatti-harakatlar (yoki harakatsizligi) sifatida tushunish mumkin.

Insofsiz raqobat tushunchasi “Raqobat to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra quyidagilar insofsiz raqobat hisoblanadi:

– noto'g'ri taqqoslash, ya'ni qiyosiy reklama talablarini buzish (“comparative advertising”);

– intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan noqonuniy foydalanish (“infringement”);

– iste'molchilarni chalg'itish (“misleading advertising”);

– individuallashtirish vositalarini takrorlash (“likelihood of confusion”);

– nusxa ko'chirish orqali qalbakillashtirish (“dilution”);

– tijorat siri egasining rozilgisiz foydalanish.

Shuningdek, qonunda bozorga kirishga to'sqinlik qilish ham insofsiz raqobat harakati sifatida ko'rsatilgan bo'lib, aslida bu holat rivojlangan davlatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya) qonunchiligida insofsiz raqobat ko'rinishi emas, balki belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Qolaversa, bugungi kunda insofsiz raqobat doirasi yanada kengayib, AQSH va Yaponiya davlatlarida "Unfair Trade Practices" ("Insofsiz savdo amaliyoti") deb yuritilmoqda. Amaliyot deganda, turli usullar tushunilib, uning doirasiga O'zbekiston qonunchiligida sanab o'tilgan harakatlardan tashqari "iqtisodiy bojkot" ("boycott"), "tovarni iste'molchiga majburlab sotish" ("unreasonable coercion of consumers"), "mutlaq dillerlik kelishuvi" ("exclusive dealing agreement") kabi harakatlar kiritilgan.

6.2. Insofsiz raqobat sifatida noto'g'ri reklama tushunchasi va uning o'ziga xosligi

Ma'lumki, reklama tadbirkor tomonidan ishlab chiqargan tovar mahsuloti, ish va xizmat turlarini keng iste'molchi ommasiga tanitadigan marketing usuli hisoblanadi. Shu sababli, o'z mahsuloti bilan bozorga kirib kelmoqchi bo'lgan shaxs, eng avvalo, o'z mahsuloti reklamasini amalga oshiradi hamda ma'lum iste'molchilar ommasini o'z atrofida to'playdi. Iste'molchini qanchalik darajada o'ziga jalb etish reklamaning qanchalik darajada ishonchligi, aniqliligi, qonuniyligi bilan bevosita bog'liq. Lekin reklama beruvchi har doim ham o'z mahsuloti to'g'risidagi ma'lumotlarni yuqorida reklamada qo'yilgan talablar doirasidan kelib chiqqan holda belgilamaydi. Natijada mahsulotni xarid qilgan iste'molchining moddiy va ma'naviy zarar ko'rishiga olib keladi.

Mamlakatimizda insofsiz reklama munosabatlarini cheklash va huquqiy tartibga solish 1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi, 2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida"gi, 2001-yil 26-martdagi "Reklamani joylashtirish to'g'risida"gi Nizom va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga muvofiq, noto'g'ri reklama o'zining noaniqligi, ikki xil ma'noni anglatishi, bo'rttirib yuborishi, reklamani tarqatish vaqti, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg'ituvchi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan, shaxslarga, shuningdek davlatga zarar va ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan reklama noto'g'ri (insofsiz, bilaturib yolg'on) reklama hisoblanishi belgilab o'tiladi.

Yuqoridagi ushbu ta'rifdan kelib chiqib, reklamani "noto'g'ri reklama" deb quyi baho berish uchun quyidagi mezonlar mavjud bo'lishi kerak:

- "chalg'ituvchilik mezonini" ("deceptiveness" standard). ya'ni reklama iste'molchilarini chalg'itishi lozim;
- Chalg'ituvchi harakatlarning amalga oshirilganligi ("materiality" standard), ya'ni qonunda bunday harakatlar noaniqlik, ikki xil ma'no anglatishi, bo'rtirib yuborish, yashirib ketish orqali amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Bu borada "yashirib ketish" deganda yashirin reklama emas, balki reklamada muhim ma'lumot qoldirib ketilishi nazarda tutilgan;
- Reklamaning vaqti, joyi va usuliga oid talablarning buzilishi;
- (raqobatchi shaxsga, iste'molchiga, davlatga) zarar yetkazish mumkinligi.

Noto'g'ri reklamani tarqatish insofsiz raqobatning bir ko'rinishi bo'lib, bunda noto'g'ri reklamani tarqatayotgan shaxs o'z reklamasining qonunda belgilangan talablarga va boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga va ish muomalasi odatlariga putur yetishini biladi va ongli ravishda harakat qiladi. Odatda noto'g'ri reklamani tarqatayotgan shaxsning harakatlari bir shaxsga nisbatan yoki umuman o'ziga raqobatchi bo'lgan boshqa shaxslar guruhiga nisbatan qaratilgan bo'ladi.

Noto'g'ri reklamani ommalashtirish turli vositalar orqali amalga oshiriladi.

Reklama vositalari deyilganda esa reklamani undan foydalanuvchilarga yetkazish uchun ishlatiladigan vositalar tushuniladi va ularning quyidagi turlari mavjud:

ommaviy axborot vositalari

telefon va hujjatli elektron aloqa

transport va pochta jo'natmalari

tashqi reklama

Mazkur reklamani tarqatish vositalari ichida noto'g'ri reklamani ommalashtirish odatda tashqi reklamadan foydalanib amalga oshiriladi. Tashqi reklamaga alohida maxsus konstruksiyalarda, taxtalavhalarda, ekranlarda, binolarda, inshootlarda, yo'l chekkalarida, ko'cha yoritgichlarining tayanchlari va hokazolarda joylashtiriladigan reklama kiradi.

Insosfiz raqobatga olib keluvchi ijtimoiy munosabatlarning bir shakli sifatida yolg'on hamda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan noto'g'ri reklamani tarqatish bozorning doimiy rivojlanish tendensiyasiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi. Xususan, insosfiz reklama:

birinchidan, insosfiz reklamani tarqatayotgan shaxs o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxsni yoki shaxslar guruhini tovar yoki moliya bozorida obro'sizlantirish, ishchanlik obro'siga putur yetkazishi;

ikkinchidan, iste'molchilarga muayyan mahsulot to'g'risida noto'g'ri ma'lumot tarqatilishi natijasida ularning huquq va manfaatlariga, sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazilishi;

uchinchidan, mahalliy bozorda faoliyat olib borayotgan yoki shunday faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan xorijiy davlat ishbilarmonlarining ishonchsizligiga olib kelishi;

to'rtinchidan, bozorda ikki yoki undan ortiq shaxslarning daromad topish imkoniyatini cheklagan holda bir shaxsning yakka monopol hukmronligini o'rnatish hamda boshqalarning ushbu bozorga kirib kelishiga to'sqinlik qilish, umuman bozordagi mavjud mahsulot taqsimotiga hamda iste'molchining tovar, ish yoki xizmat turini erkin tanlash imkoniyatini cheklash kabi shu va boshqa salbiy jihatlarni sanab o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga ko'ra, quyidagi holatlarda shaxsning yoki shaxslar guruhining tovar va moliya bozorida insosfiz raqobatga olib keluvchi xatti-harakatlari sifatida qarash mumkin bo'lib, bularga jumladan:

– ishlab chiqarilishi yoki realizatsiya qilinishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan mahsulot to'g'risida axborot tarqatish;

– jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyiga qarab, boshqa holatlarga ko'ra kamsitish yoki o'zga shaxslarning mahsulotini badnom etish;

– qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, fuqarolarning sog'lig'i yoki hayotiga va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoxud zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek xavfsizlik vositalariga e'tiborsizlik tuyg'usini uyg'otuvchi harakatlarga da'vat qilish;

– majburiy sertifikatlashtirilishi zarur bo‘lgan yoki ishlab chiqarilishi yoxud realizatsiya qilinishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) bo‘lishi talab etiladigan mahsulotni tegishli sertifikat, litsenziyasi bo‘lmay turib reklama qilish;

– agar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa mahsulot reklamasida qo‘llaniladigan umumiy yechim, matn, tasvir, musiqali yoki ovozli ohanglarni aynan takrorlash (taqlid yoki o‘xshatma qilish);

– jismoniy shaxsning nomi yoki tasviridan uning roziligisiz foydalanish;

– axborot mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xorijiy so‘z va iboralardan foydalanish;

– mahsulotning davlat organlari yoxud ularning mansabdor shaxslari tomonidan ma‘qullanganligini ko‘rsatish;

– ishtirok etish uchun muayyan mahsulotni olish sharti qo‘yilgan rag‘batlantiruvchi lotereya, tanlov, o‘yin yoki shunga o‘xshash boshqa tadbir o‘tkazishni, tadbirning tashkilotchisini, uni o‘tkazish qoidalari va muddatlarini, bunday tadbir haqidagi axborot manbaini, mukofotlar yoki yutuqlar miqdorini, ularni olish muddatlari, joyi va tartibini ko‘rsatmagan holda reklama qilish;

– mahsulotni tovar belgisi yoki xizmat ko‘rsatish belgisi reklama qilish taqiqlangan yoxud reklama qilishga nisbatan tegishli cheklovlar yoki talablar belgilangan mahsulotning tovar belgisi yoki xizmat ko‘rsatish belgisi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoxud unga aynan o‘xshash bo‘lgan boshqa mahsulotning reklamasi ko‘rinishida reklama qilish. Shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan yuqorida reklamani ommalashtirish bilan bog‘liq harakatlardan birini sodir etishi unga nisbatan raqobat qonunchiligini buzish holati sifatida qarash mumkin.

6.3. Reklamani huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama tadbirkorlikni rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, monopoliyaga qarshi kurashish, iste‘mol bozorini egallash hamda foyda olishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Reklama ko‘rinishidan nomoddiy xususiyatga ega bo‘lgani bilan u jamiyatda bozorning qatnashchisi bo‘lishga oid “ijtimoiy fikr”ni shakllantiradi. Sog‘lom iqtisodiy raqobat haqqoniy axborot, ya‘ni reklama natijasida yaratiladi. Reklama bozorning ishtirokchilarini doimo axborot bilan ta‘minlab turadi.

Bu borada reklama axborotini tarqatish jarayonini tartibga solish qonunchilikda muhim ahamiyatga ega. Chunki tuzilishi jihatdan to'g'ri, ya'ni qonuniy bo'lgan reklama axborotini tarqatish jarayonida qonun hujjatlari talablariga rioya etilmasa, u o'z-o'zidan noto'g'ri (noqonuniy) reklamaga aylanib qolishi, shuningdek iste'molchilarga va boshqa raqobatchilarga zarar yetkazishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tarqatish vaqti, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablar buzilgan holda namoyish etilgan reklama, albatta, reklama beruvchi bilan iste'molchini yanada yaqinlashtirish o'rniga ularni bir-biridan uzoqlashtiradi, shuningdek reklamani tarqatishdagi kamchiliklar tufayli salohiyatli sheriklar va kontragentlarda reklama qilingan tovarga nisbatan "rad etish" kayfiyati paydo bo'ladi. Mazkur holatlarni inobatga olgan holda reklama axborotini qabul qilish psixologiyasi nuqtayi nazaridan qonun chiqaruvchi organ tovar (ish, xizmat) egalari hisoblangan reklama beruvchi bilan bunday tovar (ish, xizmat)larga ehtiyoji bo'lgan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani umumlashtirishga xizmat qiluvchi norma sifatida reklamani tarqatish qoidalarini o'rnatishga harakat qilgan. Bunday qoidalar esa, o'z navbatida, reklamani tarqatishga oid talab va taqiqlarni belgilab beruvchi normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Reklamani tarqatish vaqti, joyi va usulining ko'p imkonililigini inobatga olgan holda, qonun chiqaruvchi mazkur uch omilning har birining xususiyatlarini belgilab chiqqan tarzda reklamani tarqatishning namunaviy va qat'iy shartlarini huquq normalarida mustahkamlagan.

Demak, reklamani o'zi iqtisodiy kategoriya bo'lsa-da, reklamani tarqatish huquqiy kategoriya hisoblanadi. Biroq ayrim olimlar reklamani tarqatishni reklama singari iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qiladilar.

Reklamani tarqatish jarayonini tartibga solishda "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidan tashqari O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining 2001-yil 6-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan "Reklamani joylashtirish to'g'risida"gi Nizomi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda reklamani joylashtirish va unga ruxsat berish tartibi, ruxsat beruvchi organlarning ro'yxati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, reklama munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, reklama qonunchiligini buzganlik uchun tegishli huquqiy ta'sir choralari esa O'zbekiston Respublikasining jinoiy va ma'muriy qonunchilik normalari asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni milliy reklama munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati hisoblanadi. Mazkur qonun hujjati reklama munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarni belgilab beradi. Xususan, ushbu Qonunning 1-moddasining birinchi qismiga ko'ra "Reklama to'g'risida"gi Qonunning maqsadi reklamani tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi belgilab qo'yilgan.

**O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi
Qonunining vazifalari bo'lib:**

yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulotlar to'g'risida axborot oqimini shakllantirish

reklamani davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va ma'naviyatning umume'tirof etilgan normalariga, yuridik va jismoniy shaxslarning ishchanlik obro'siga, atrof-muhit holatiga tajovuzidan himoyalaniishi choralarini ta'minlash.

tadbirkorlik va iste'mol madaniyatini takomillashtirish

mahsulotning tayyorlanish usuli va joyi, iste'mol xususiyatlari, sifati va boshqa tavsiflari, uni realizatsiya qilish shartlariga ko'ra iste'molchilarni chalg'itadigan yolg'on yoki noaniq ma'lumotlar reklama vositasida tarqatilishining oldini olish.

Shuningdek, mazkur Qonunda reklama munosabatlari subyektlari (reklama beruvchi, reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi)ning huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida reklama beruvchining huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra reklama beruvchining huquqlari bo'lib:

– reklama xususida shartnoma tuzish to'g'risida oshkora taklif (ommaviy oferta) kiritish;

– reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi shartnomani asossiz ravishda bekor qilgan hollarda yetkazilgan zararining o'rnini va ma'naviy zararni qoplash to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilish.

Reklama beruvchi majburiyatlari:

- reklama tayyorlovchi va (yoki) tarqatuvchining talabiga binoan reklama axborotining ishonchliligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- agar reklama beruvchining faoliyati litsenziyalanishi zarur bo'lsa, mahsulotni yoki reklama beruvchining o'zini reklama qilayotganda tegishli litsenziyani taqdim etishi shart.

Reklama beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin. Shuningdek, mazkur qonun hujjatida reklamani tarqatish vositalari va uni reklama qilish tartibi, ayrim mahsulot turlarini reklama qilish tartibi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, televideniye va radiodagi reklama, bosma ommaviy axborot vositalaridagi reklama, telefon va hujjatli elektr aloqadan foydalaniladigan tarzda reklama shakllari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasida televideniye va radio vositalarida mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarni reklama qilish tartib qoidalari belgilab qo'yilgan. Jumladan, teleradio tashkilotlar uchun reklamaga ajratilgan ko'rsatuv (eshitirish) vaqti ko'rsatuv (eshitirishning) har bir soatining 10 foizidan oshib ketmasligi kerak. Bu talab ko'rsatuvning (eshitirishning) ixtisoslashtirilgan reklamaviy kanallariga tatbiq etilmaydi. 45 minutdan ortiq davom etadigan konsert-tomosha va sport dasturlari, kino va telefilmlar reklama uchun to'liq 45 minutlik vaqt oralig'ida ko'pi bilan bir marta uzib qo'yilishi mumkin. Reklama bu ko'rsatuvlarning (eshitirishlarning) boshlanishi oldidan va (yoki) ular tugaganidan so'ng joylashtirilishi ham mumkin. 10 minutdan kam davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshitirishlarga) umuman, 10 minutdan ortiq davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshitirishlarga) esa bu teleko'rsatuvlarning (radioeshitirishlarning) mualliflik huquqi egasi bilan kelishmasdan turib reklama joylashtirilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida tahlil qilingan milliy qonunchilikdan tashqari, reklama xizmati turli xil xalqaro hujjatlar bilan ham tartibga solingan. Chunonchi, Xalqaro savdo palatasi tomonidan 1987-yil iyun oyida Parijda qabul qilingan "Xalqaro reklama kodeksi"da birinchilardan bo'lib reklamaning asosiy tamoyillari va qoidalari belgilangan.

MDH ishtirokchi davlatlari o'rtasida 1993-yil 23-dekabrda imzolangan "Monopoliyaga qarshi siyosatni bahamjihat olib borish to'g'risida"gi Xalqaro shartnomada esa amaldagi milliy reklama qonunchiligimiz vazifalari uchun asos sifatida olingan reklamaga qo'yilgan taqiqlar belgilangan. Keyinchilik mazkur xalqaro shartnoma 2000-yil 25-yanvarda yangi tahrirda Moskva

shahrida imzolangan. Mazkur xalqaro shartnoma ijrosini ta'minlash maqsadida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari o'rtasida 2003-yil 19-dekabrda Moskva shahrida "Reklama faoliyatini tartibga solish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim imzolanib, uning predmeti MDH ishtirokchi davlatlari bozorlarida, xususan, bank, sug'urta hamda jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq boshqa turdagi xizmatlar bozori, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorlarida reklamani tayyorlash, joylashtirish va tarqatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 16-apreldagi 198-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1997-yil 14-martda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikasi hukumatlari o'rtasida imzolangan "Monopoliyaga qarshi siyosat sohasidagi integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida"gi Kelishuvda esa taraflar o'zlarining milliy qonun hujjatlariga muvofiq reklama faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini imkon qadar uyg'unlashtirish masalasini ko'rib chiqishlari belgilangan.

6.4. Reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi

Tadbirkorlikning boshqa sohalari kabi reklama faoliyatida ham davlat nazorati va reklama munosabatlari ishtirokchilarining o'zini o'zi boshqaruvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday muhimlik ular o'rtasidagi o'zaro aloqa doirasini ham belgilab beradi. Reklamani boshqarish va nazorat qilish bo'yicha jahon amaliyoti, xususan, davlatimizning milliy tajribasi bu borada quyidagi uch usulining mavjudligini tasdiqlab beradi:

Birinchidan, tartibga solish umummajburiy kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish va ularning ijro etilishini nazorat qilish yo'li bilan faqat davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Reklama munosabatlarining ishtirokchilari esa mustaqil huquq ijodkorligi orqali o'z faoliyatlarini bevosita tartibga solish huquqiga ega bo'lmaydilar. Mazkur usul O'zbekiston Respublikasining reklama amaliyotida mustaqillik yillaridan boshlab 2000-yilgacha amalda mavjud bo'lgan.

Ikkinchidan, birinchi usuldan farqli o'laroq reklama munosabatlari faqat ularning ishtirokchilari tomonidan tartibga solinadi. Ular reklamani jamoatchilik tamoyili asosida o'zaro hamkorlikda tartibga solish maqsadida nodavlat tashkilotlariga birlashgan holda reklama faoliyatiga

oid qoidalarni ishlab chiqadilar hamda ixtiyoriy ravishda o'z zimmalariga bunday qoidalarga rioya qilish va ularni bajarish majburiyatini oladilar. Ushbu holat jahon reklama amaliyotida kamdan kam uchrab, asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasida namoyon bo'lgan.

Uchinchidan, yuqorida bayon etilgan ikkala usulni birni vaqtda qo'llagan holda reklama faoliyatini tartibga solish bo'yicha davlat hokimiyati organi va o'zini o'zi tartibga soluvchi jamoat birlashmalari o'rtasida vazifalarni taqsimlash orqali boshqaruv amalga oshiriladi. Bunda normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish va ularning ijrosi nazorati davlat tomonidan amalga oshirilishi bilan birga, ayrim holatlarda huquq ijodkorligi va nazorat qilish funksiyasi o'zini o'zi boshqarishga qaratilgan birlashmalar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur usul MDH davlatlarining deyarli barchasida amalda mavjud bo'lib, davlatimizning reklama amaliyotida 2000-yildan buyon qo'llanib kelinmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda tadbirkorlikning reklama yordamida qo'llab-quvvatlanishi kundalik ishga aylanib bormoqda. Bunda davlat bozor iqtisodiyotiga asoslangan bozor munosabatlarining o'ziga xos qonuniyatlarini e'tiborga olgan holda tadbirkorlik sohalaridan biri bo'lgan reklama faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri aralashmaydi, balki uni tartibga solish chora-tadbirlarini ko'radi, xolos.

O'zbekiston Respublikasida reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur qo'mitaning tashkiliy huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi Farmoni bilan Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etildi. Mazkur qo'mita xususiy lashtirish, davlat mulkini boshqarish, qimmatli qog'ozlar bozori, monopoliyaga qarshi siyosat, raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, birja, baholash, riyeltorlik va reklama faoliyati sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Davlat raqobat qo'mitasi iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish sohasida:

– iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat qiladi;

– iste'mol tovarlariga narxlar va xizmatlarga tariflar monitoringini olib boradi, bozorda sifatsiz iste'mol tovarlari va xizmatlar paydo bo'lishining oldini olish choralari ko'radi;

– jamoat tuzilmalari bilan birgalikda iste'molchilarning huquqlari va manfaatlari himoya qilinishini, shuningdek aholining iste'mol madaniyatini oshirish bo'yicha ma'rifiy ishlar olib borilishini amalga oshiradi;

– reklama sohasida insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik va noto'g'ri reklamaga barham berish maqsadida reklama bozorini tartibga solish chora-tadbirlarini ko'radi;

– davlat organlari bilan birgalikda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga va reklama sohasida insofsiz raqobatning oldini olishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi.

Tashqi reklamani joylashtirish tartibi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida belgilanadi. Tashqi reklamani joylashtirish uchun tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlarining ruxsati olinishi lozim. Muayyan shaxs egallab turgan binoning tashqi tomonida, binoga kirish joyida shu shaxs to'g'risida joylashtirilgan yoki mazkur shaxsning mahsuloti haqida shu bino vitrinasiidagi axborot (peshlavha) reklama deb hisoblanmaydi va buning uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining ruxsatini olish talab etilmaydi.

Ushbu qoida mulk huquqining mazmunidan kelib chiqib, bino mulkdorining o'ziga tegishli binoning tashqi tomoni va peshtoqiga o'zi haqidagi va o'zining mahsuloti xususidagi ma'lumotlarning joylashtirganligi reklama hisoblanmasligi va buning uchun mahalliy davlat organlarining ruxsati olinmasligini ko'zda tutadi. Zero, FKning 164-moddasiga muvofiq, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.

Tashqi reklamani joylashtirishga nisbatan qonun muayyan talablarni belgilaydi. Zero, tashqi reklama joylashtirayotgan paytda reklama beruvchi va reklama tarqatuvchilar muayyan qoidalarga amal qilishlari lozim. Shu bilan birga, reklamani yo'l chekkalariga joylashtirayotgan shaxslar nafaqat o'z manfaatlarini ko'zlashlari, balki yo'l da harakatlanayotgan transport vositalari, piyodalarning erkin va xavfsiz harakatlanishlariga to'sqinlik qilmasliklari shart.

Tashqi reklama joylashtirilayotganda yo'l belgilari, svetoforlar, chorrahalar, piyodalarning o'tish joylari, umumiy foydalanishdagi transport vositalari bekatlarini to'sib qo'yilmasligi kerak. Bundan tashqari, yo'l chekkasida joylashtiriladigan reklama yo'l belgilari va tasvirini takrorlamasligi (yoki aynan taqlid qilmasligi) talab etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari doirasida tashqi reklamani joylashtirishga mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki tegishli davlat boshqaruv organlarining vakolat doirasida ular bilan kelishilgan holda ruxsat beriladi.

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari hisoblanadigan o'rmonlar, yo'l chetidagi daraxtzorlar, qo'riqxonalar va shu kabi boshqa obyektlarda tashqi reklamani joylashtirish uchun mahalliy davlat organi bilan birga tegishli davlat organining vakolati doirasidagi o'zaro kelishilgan ruxsati olinadi. Bunday organlar jumlasiga Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari doirasida reklamani joylashtirish uchun ruxsat berilayotgan paytda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi tuzilmalari reklamani joylashtirish tabiatni muhofaza qilish obyektiga zarar yetkazmasligini, atrof-muhitga putur yetkazmasligini tekshirishi lozim. Tabiatni muhofaza qilish obyektlari doirasida reklama berish tashqi reklamani o'ziga xos ko'rinishi sifatida har doim umumiy tusdagi ma'lumotlarni berish bilan birga, tabiiy atrof-muhitni asrashga qaratilgan ijtimoiy axborotli reklamani ham o'zida ifodalashi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 26-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 243-sonli qarori bilan "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan davlat boshqaruvi organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari ro'yxati tasdiqlanib, mazkur ro'yxatda reklama qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Qonunning moddalari bo'yicha davlat organlarining vakolatlari birma-bir aniq tarzda ko'rsatib o'tilgan:

1. "O'zteleradio" kompaniyasiga teleko'rsatuvlarda va radioeshittirishlardagi reklama bo'yicha Qonunning 11-moddasi; homiylar to'g'risidagi axborotlar bo'yicha ko'rsatmalar hamda homiylar xizmatlaridan teleko'rsatuvlarda va radioeshittirishlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik borasida Qonunning 12-moddasi; yashirin reklamalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik borasida Qonunning 14-moddasi; televideniye va radioda reklamalarni cheklash bo'yicha Qonunning 17-moddasi talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan;

2. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi zimmasiga ommaviy axborot vositalarida reklamani amalga oshirish bo'yicha Qonunning 11-moddasi; reklamaga homiylar to'g'risidagi axborotlar bo'yicha

ko'rsatmalar bo'yicha Qonunning 12-moddasi; yashirin reklamalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan Qonunning 14-moddasi; ommaviy axborot vositalarida reklamalarni cheklash bo'yicha Qonunning 18-moddasi; matbuot nashrlarida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasini cheklash borasida Qonunning 23-moddasi talablariga rioya etilishini ta'minlash yuklangan;

3. Ommaviy axborot vositalarini nashr etuvchi vazirliklar va idoralar, mustaqil ommaviy axborot vositalari zimmasiga ommaviy axborot vositalarida reklamalarni cheklash bo'yicha Qonunning 18-moddasi; matbuot nashrlarida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasini cheklash borasida Qonunning 23-moddasi talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan;

4. O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligiga pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalarida reklamalarning bir xil bo'lishini ta'minlash borasida Qonunning 11-moddasi; reklamada homiylik to'g'risidagi axborotlar bo'yicha ko'rsatmalar bo'yicha Qonunning 12-moddasi; yashirin reklamalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Qonunning 14-moddasi; pochta jo'natmalarida reklamalarni tarqatish uchun ruxsatnomalar berish borasida Qonunning 21-moddasi talablariga rioya etilishini ta'minlash yuklangan;

5. Joylardagi davlat hokimiyati organlari zimmasiga tashqi reklamalarni joylashtirish tartibini belgilash, tashqi joylashtirishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 20-moddasi; tamaki, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamalarini tashqi joylashtirishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 23-moddasi; yer usti transport vositalarida; metropolitenda, vokzallarda, portlarda va aeroportlarda reklamalarni joylashtirish hamda tarqatishni nazorat qilish borasida Qonunning 21-moddasi talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan;

6. Ichki ishlar vazirligi (YPX) zimmasiga yer usti transport vositalarida, metropolitenda, vokzallarda, portlarda va aeroportlarda reklamalarni joylashtirish hamda tarqatishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 21-moddasi talablariga rioya etilishini ta'minlash yuklangan;

7. Sog'liqni saqlash vazirligiga Qonunning 22-moddasi talablariga asosan, voyaga yetmaganlar uchun dori-darmon vositalari; gipnoz qilish va ta'sir ko'rsatishning ruhiy yoki bioenergiya usullaridan foydalangan holda davolash seanslari, shunga o'xshash boshqa tadbirlar; tibbiyot buyumlari, tibbiy texnikani, gigiyena, dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya qilish vositalari; davolab bo'lmaydigan va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga nisbatan terapevtik natija; tibbiyot muassasalari uchun mo'ljallangan dori-

dannonlarni reklama qilish tartibini belgilash, uning bajarilishini nazorat qilish; kosmetika vositalari, vitaminli va biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari; maishiy kimyo vositalari, oziq-ovqat mahsulotlarini reklama qilish uchun ruxsatnomalar berish vakolati berilgan;

8. "O'zstandart" agentligiga Qonunning 22-moddasi talablariga asosan, kosmetika vositalari, vitaminli va biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari; maishiy kimyo vositalari, oziq-ovqat mahsulotlarini qo'llash va sotish uchun tegishli ruxsatnomalar berish vakolati berilgan.

6.5. Shaxsiylashtirish vositalari tushunchasi va turlari

Shaxsiylashtirish vositasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasida firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomi ko'rsatib o'tiladi. Shaxsiylashtirish vositasi egasi o'ziga tegishli tovarni, ishni yoki xizmatni shaxsiylashtirmaydi, balki, ushbu belgiga nisbatan huquqni amalga oshirish bilan bog'liq mutlaq huquqni o'zida namoyon etadi.

Shaxsiylashtirish vositalarini o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, keng va tor doirada sharhlash mumkin. Shaxsiylashtirish keng ma'noda sharhlashga ko'ra, subyektlarning tovarlar ishlab chiqarish va uni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida bir-biridan turli belgilarini shaxsiylashtirish vositalari orqali tafovutlanishi hisoblanadi. Shaxsiylashtirishning bunday vositasi bilan ayni subyektlarning o'ziga xos belgisi orqali tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish shart-sharoitlariga ega bo'lishlari tushiniladi. Shaxsiylashtirishning tor doiradagi tushunchasiga ko'ra, fuqarolik munosabatlarida fuqarolar va yuridik shaxslarning o'ziga tegishli turli xususiy alomatiga ega bo'lgan belgilar, so'zlar va boshqa alomatlaridan foydalanib tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonidagi munosabat tushuniladi. Mazkur holatda intellektual mulk obyektini yuridik va jismoniy shaxslar o'zi tomonidan shaxsiylashtirish vositasidan foydalanib litsenziya shartnomasi asosida boshqa shaxsga vaqtincha litsenziyarning nazorati ostida foydalanishi tushuniladi. Intellektual mulk obyektlarini shaxsiylashtirish deganda, sanoat namunalari obyektlarining (firma nomlari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, tijorat belgilari, domen nomlari v.h) bir shaxs tomonidan vakolatli davlat organi ruxsatini olgan holda o'zining nomiga rasmiylashtirish va undan foydalangan holda tovar mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish munosabatlari tushuniladi.

Shaxsiylashtirish vositasi fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari sifatidagi munosabatini ikki ko‘rinishda huquqiy hamda iqtisodiy kategoriya sifatida qarashimiz mumkin. Huquqiy jihatdan tovar belgilari xizmat ko‘rsatish belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqini qonunda ko‘rsatilgan tartibda shaxsiylashtirish xususiyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasida ushbu obyektlarga nisbatan shaxsning shaxsiy egaligi vujudga keladi va boshqalardan uning ruxsatisiz foydalanishga ruxsat etilmasligi yoki qonunda ko‘rsatilgan tartibda foydalanishni o‘z ichiga qamrab oladi. Shaxsiylashtirishning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, ushbu obyekt egasi undan daromad olishga shaxsan amalga oshirilishi yoki boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishga qaratiladi.

Shaxsiylashtirish vositalarini iqtisodiy mazmunini uning tovar bozorida alohida munosabat sifatida muomalada bo‘lishi bilan belgilanadi. Chunki shaxsiylashtirish vositalari ijtimoiy munosabatda qo‘llanilmas ekan hech qanday huquqiy oqibat yoki iqtisodiy manfaat keltirib chiqarmaydi.

Shaxsiylashtirish vositalarini amalga oshirish nafaqat uning egasi, balki tegishli sanoat namunasini boshqa shaxslarga ham foydalanishga ruxsat beriladi. Mazkur munosabatda ikkinchi shaxs tadbirkorlik faoliyatida litsenziya shartnomasi asosida litsenziarning roziligini olgan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyat turi bilan shug‘ullanish huquqini qo‘lga kiritadi. Hamda birinchi shaxs tomonidan shaxsiylashtirilgan obyektning ikkinchi shaxsning undan qay darajada foydalanilayotganligini nazorat qilib borish shart bo‘lib hisoblanadi. Chunki ikkinchi shaxs tomonidan shaxsiylashtirilgan obyektga nisbatan insofli muomalada bo‘lmasligi natijasida uning egasiga katta moddiy ma‘naviy ziyon keltirib chiqaradi. Natijada uning mahsuloti yoki xizmat ko‘rsatish faoliyati iste‘molchilar nazaridan chetda qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Shu hisobda huquqni amalga oshirish munosabatlarida shaxsiylashtirilgan obyektning uchinchi shaxslar tomonidan ijobiy yoki salbiy holat sifatida e‘tirof etiladi.

6.6. Insofsiz raqobat ko‘rinishi sifatida tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomidan ruxsatsiz foydalanish

Ijtimoiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan tadbirkor tovar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirar ekan, eng avvalo, ishlab chiqargan mahsulotning iste‘molchilar o‘rtasida keng ommalashishini hamda ularni o‘ziga ipsiz bog‘lab olgan holda ko‘p daromad topishni maqsad qiladi. Aytish mumkinki, tovarning iste‘molchini o‘ziga bu darajada jalb etishida shaxsiylashtirish vositasi bo‘lgan tovar belgisining o‘rni va roli katta. Chunki aynan mazkur nomoddiy obyekt iste‘molchini kelgusida yana shu mahsulotni sotib olishda asosiy vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomlari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq munosabatlar 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra tartibga solinadi. Shu bilan birga, mazkur shaxsiylashtirish vositalari bilan bog'liq shartnomaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining (65-bobi 1098-1111-moddalari) qoidalariga ko'ra tartibga solinadi.

2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi birinchi qismiga muvofiq, tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir deb belginlansa, mazkur qonunning 5-moddasida, mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy obyektning tovarni belgilash uchun ishlatiladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy obyektga xos tabiiy sharoitlar bilan yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi tovar kelib chiqqan joy nomi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi birinchi qism uchinchi bandida, tovar belgisini va yuridik shaxsni shaxsiylashtirishning boshqa vositasini takrorlash, reklama materiallaridan, tovarning firma o'rovi va shaklidan nusxa ko'chirish orqali qalbakilashtirish insofsiz raqobat sifatida ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, shaxsiylashtirish vositalaridan qonuniy foydalanish unga nisbatan huquqni vujudga kelishi tegishli ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan vujudga keladi. shaxsiylashtirish vositalariga nisbatan mazkur talabning bajarilishi shaxsning yoki shaxslar guruhining insofli raqobatlashish holatini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1098-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, yuridik shaxsning firma nomi uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Firma nomiga bo'lgan huquq yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan e'tiboran yuzaga keladi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ga bo'lgan huquq Fuqarolik kodeksining 1102-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligidan ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab yuzaga keladi. Shuningdek, firma nomiga (1101-modda), tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi) (1105-modda), tovar kelib chiqqan joy nomiga

(1109-moddasi)ga bo'lgan huquqni litsenziya shartnomasiga ko'ra huquqni boshqa shaxsга o'tkazish shaxsiylashtirish vositalaridan insofli egallash deb topilib, insofli raqobat munosabatlari sifatida qaraladi.

Shaxsiylashtirish vositalaridan insofsiz raqobat shaklida foydalanishning quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlash lozim, ya'ni:

Birinchidan, mutlaq huquq egasining roziligisiz uning shaxsiylashtirish vositalaridan tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish munosabatlarida foydalanish.

Ikkinchidan, oldin ustun mavqega ega bo'lgan tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomlariga o'xshash bo'lgan belgidan foydalanish.

6.7. Insofsiz raqobat sifatida tijorat siridan ruxsatsiz foydalanish

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qonunchilik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qonunchilik sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning mazkur sohasida band bo'lgan shaxslarning huquqlarini kafolatlash va himoya qilish zarurligining asosiy maqsadi mamlakatda erkin ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va turli huquqqa zid xatti-harakatlardan himoya qilishdan iborat.

Tadbirkorlik subyektlariga tegishli tijorat sirini insofsiz raqobatdan huquqiy himoya qilish ana shunday qonunchilik islohotlaridan biri hisoblanadi. Mazkur intellektual mulk obyektini huquqiy muhofaza qilish, eng avvalo, shaxsning unga bo'lgan huquqlarini erkin amalga oshirish va boshqalardan ushbu huquqni buzmaslikni talab qilishni o'zida aks ettiradi. Moddiy xususiyatga ega bo'lgan ashyolardan farqli o'laroq, tijorat sirini boshqa shaxslarga ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan mutlaq huquq obyektini hisoblanadi.

Insofsiz raqobat sifatida tijorat siridan uning egasini roziligisiz foydalanganlik holatini huquqiy baholashning o'ziga xosligini huquqiy tahlil etishdan oldin tijorat siri huquqiy mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi.

Tijorat siri huquqiy maqomiga ko'ra, shaxsning o'zidan boshqa hech kimga ma'lum bo'lmagan hamda qat'iy himoya qilinadigan texnikaviy, tashkiliy va tijorat xususiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar yig'indisi hisoblanadi. Adabiyotlarda tijorat siri turli ko'rinishda "ishlab chiqarish siri", "nou-xau", "oshkor etilmagan ma'lumot" shakllarida uchraydi. Aslida sanab o'tilgan mazkur tushunchalar bir ma'no va mazmuni ifodalab, shaxs yoki shaxslar guruhiga tegishli bo'lgan uning egasiga nisbiy va haqiqiy tijorat qiymatiga ega bo'lgan axborot sifatida tushuniladi. Xorijiy davlatlar qonunchiligida ham "trade secret", ya'ni tijorat siri ma'nosida tahrir etiladi.

Tijorat siri intellektual mulkning boshqa obyektlariga nisbatan ayrim xususiyatiga ko'ra ajralib turadi. Xususan, tadbirkorlik faoliyatida tijorat sirdan foydalanish uchun ruxsat olish boshqa intellektual mulk obyektlaridan farqli ravishda qo'shimcha davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab etilmaydi. Masalan, yuridik shaxsning firma nomidan foydalanish FKning 1098-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, tovar belgisi FKning 1101-moddasi birinchi qismiga ko'ra, tovar kelib chiqqan joy nomi FKning 1108-moddasiga muvofiq, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan e'tiboran yuzaga keladi va huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi.

Tijorat siri yuqorida sanab o'tilgan nomoddiy obyektlardan farq qiladi. FKning 1095-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, tijorat sirini noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqi bu axborotga nisbatan biron-bir rasmiyatchilikni bajarishdan u davlat ro'yxatidan o'tkazish asosida guvohnoma olish yoki olmaslikdan qat'i nazar vujudga keladi hamda ushbu sir shaxsga umrbod egalik qilish huquqiga ega bo'ladi, to'g'rirog'i, unga nisbatan monopol huquqni o'zida namoyon etadi. Ushbu sirdan boshqa shaxsga foydalanish uchun taqdim etish huquqi ham tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi talab etilmaydi. Lekin tijorat sirini boshqa shaxsga berishda ushbu sirni saqlash bilan bog'liq choralarni ko'rishni yozma ravishda rasmiylashtirib qo'yish lozim.

Fuqarolik qonunchiligida tijorat sirini huquqiy muhofaza qilishning ikki xil shakli, ya'ni ro'yxatdan o'tkazilgan va ro'yxatdan o'tkazilmagan holda muhofaza qilish belgilangan. Agar tijorat sirining egasi ushbu sirni tegishli vakolatli davlat organidan ro'yxatdan o'tkazilgan holda egalik qilsa, u holda tijorat siriga nisbatan ushbu tijorat sirining egasi emas, balki mutlaq huquq egasi tushunchasi qo'llaniladi.

Tijorat sirini fuqarolik-huquqiy muhofaza qilish hamda huquqni buzgan shaxsga nisbatan fuqarolik ta'sir chorasini qo'llash FKning 98-moddasida belgilangan shartlar mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi. Bunday belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ushbu sir uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lishi;
- uning egasiga nisbatan haqiqiy va nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lishi;
- tijorat siri egasi uning boshqa shaxslar tomonidan erkin foydalanish imkoniyatini cheklash maqsadida ushbu sirning maxfiyligini saqlashga doir choralarni ko'rgan bo'lishi asos bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar qat'iy ahamiyatga ega bo'lib, ularning mavjud emasligi zarar yetkazuvchidan zarar ko'rgan shaxs zararni talab qilish huquqdan mahrum bo'lishiga olib keladi. Bunda:

birinchidan, uchinchi shaxs ushbu tijorat siridan haqiqiy ma'noda manfaatdor bo'lgan tadbirkorlar, ushbu sir egasi bo'lgan shaxs bilan raqobatchi bo'lgan shaxslar, tijorat sirining egasi tomonidan taklif etayotgan mahsulotga kontragent bo'lgan subyektlar hisoblanadi;

ikkinchidan, tijorat sirining egasiga undan o'zi tomonidan bevosita tovar ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat bo'lsa yoki bilvosita foydalanish esa ushbu sirni litsenziya shartnomasiga muvofiq vaqtinchalik boshqa shaxsga berishi tushuniladi.

uchinchidan, ushbu sir egasi tijorat siri bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlash choralarni ko'rgan bo'lishi lozimligi yuqorida ta'kidlab o'tildi.

Bunday himoya qilish uning egasi yoki huquqni qabul qilgan shaxs tomonidan turli texnik, tashkiliy hamda yuridik vositalardan foydalanish orqali amalga oshirilishini tushunish mumkin. Lekin, shuni nazarda tutish mumkinki, ushbu sir egasi yoki undan foydalanishga ruxsat olgan litsenziyat har doim ham barcha himoya qilish choralari ko'rish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Tijorat siridan foydalanish bilan bog'liq holat ko'rib chiqilayotganda tijorat sirining egasi haqiqatdan ushbu sirni himoya qilish xohishi ochiq-oydin ko'rinib turgan bo'lishi talab etiladi. Mazkur talab tijorat sirini huquqiy muhofaza qilishning muhim sharti hisoblanadi. Lekin ushbu sir egasi uni himoya qilish chorasini ko'rgan bo'lishiga qaramay uchinchi shaxslarning ushbu sirdan erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligi tijorat sirini huquqiy muhofaza qilishni istisno etadi hamda hech qanday fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Masalan, tijorat sirining egasi ushbu sirni huquqiy muhofaza qilish choralari ko'rgan, lekin o'zi bilmagan holda ommaviy axborot vositalarida va nashrlarda e'lon qilgan, internet sahifalarida mahsulotning tarkibi to'g'risida ushbu sirni o'zida aks ettirgan ma'lumotlarni joylashtirib qo'yishi tijorat sirini ommaga oshkor etish sifatida tushunish mumkin.

Tijorat siridan insofsiz ravishda foydalanish har doim shaxsning ongli xatti-harakatlari orqali sodir etiladi. Bunda huquqni buzuvchi shaxs asosan ikki maqsadni, ya'ni huquqni buzuvchi shaxs ataylab g'arazli maqsadda tijorat sirining egasiga zarar yetkazish maqsadini ko'zlasa, ikkinchidan, huquqni buzuvchi shaxs tijorat sirini insofsiz sharoitda egallagan hamda uning egasiga turli huquqqa zid xatti-harakatlar bilan (tijorat sirini oshkor etish bilan qo'rqitish, insofsiz shaxs bilan tijorat sirini egasining raqobatlashmasligi v.b.) tahdid qilgan holda foydalanishni tushunish mumkin.

Odatda tijorat sirini insofsiz ravishda egallash shaxsning turli usul va vositalarni qo'llagan holda uning egasi roziligisiz olish (bu, o'z navbatida, mehnat munosabatlarida tijorat siridan xabardor bo'lgan xodim bilan o'zaro til

biriktirib egallashi, litsenziya shartnomasiga ko'ra foydalanayotgan litsenziatning boshqa shaxsga uni egasining roziligisiz foydalanishi) yoki tijorat siri to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga vakolatli davlat organi tomonidan oshkor etishi kabi tijorat sirini oshkor etish bilan bog'liq holatlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Demak, tijorat sirini oshkor etish bilan bog'liq mazkur holatlardan kelib chiqqan holda, uni ikkiga bo'lish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur holatlarni tahlil etsak. Birinchi holatda shaxsning ixtiyoridan tashqari boshqa shaxs tomonidan tijorat sirini egallash va undan foydalanish tijorat maqsadini ko'zlagan holda unga raqobatchi bo'lishi sifatida qarash mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi birinchi qismi to'rtinchi bandida, tijorat sirini egasining roziligisiz olish, undan foydalanish va uni oshkor etish insofsiz raqobat sifatida ko'rsatib o'tiladi. Mazkur modda matnida tahlil etilayotgan holat boshqa shaxsning huquqqa zid xatti-harakatlarini o'zida aks ettiradi.

Tijorat sirini uni egasining roziligisiz olish, boshqa huquqqa zid harakatlar, jumladan, tijorat siridan foydalanish va uni oshkor etishdan ajralib turadi.

Tijorat sirini olish ixtiyoriy ravishda (litsenziya shartnomasiga ko'ra) yoki ushbu sir egasining ixtiyoridan tashqari egallashini tushunish mumkin. Tijorat sirini olish insofsiz raqobat sifatida qaralib, uning egasiga nisbatan uni noqonuniy (qonuniy) egallagan shaxs tomonidan turli noqulay vaziyatlarni yaratish, xususan:

- tijorat sirini noqonuniy egallagan shaxs bilan bir yoki bir necha hududda raqobatlashmaslik talabini qo'yish;
- ushbu sir egasini ushbu bozordan chiqib ketish talabini qo'yish;
- tijorat sirini oshkor etmaslik sharti bilan haq talab qilish;
- tijorat siri egasining o'z kontragentlari bilan tuzgan tovar oldi-sotdi, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq fuqarolik shartnomalarini tijorat sirini insofsiz egallagan shaxs foydasiga bekor qilishni talab qilish;
- tijorat siri egasining ushbu sirni insofsiz egallagan shaxs oldidan ruxsat olgan holda harakatlanish talabini bajarish, talabini qo'yish bilan bog'liq boshqa huquqqa zid holatlarni sanab o'tish mumkin.


Tijorat siridan insofsiz ravishda foydalanish raqobat qonunchiligiga ko'ra, insofsiz raqobat sifatida qaraladi. Tijorat siridan insofsiz ravishda foydalanish uni egasining roziligisiz tovar mahsulotini ishlab chiqarish va uni sotish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq fuqarolik

huquqiy munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Foydalanish deganda – insofsiz egallagan holda o'zi tomonidan (bevosita foydalanish) yoki litsenziya shartnomasiga muvofiq, boshqa shaxsga shartnomada ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi uchun berishi (bilvosita foydalanish) sifatida tushunish mumkin.

Tijorat siridan foydalanishning bevosita shakli tijorat sirini insofsiz egallagan shaxsning yuqorida ta'kidlab o'tilgan xatti-harakatlarini amalga oshirishi tushuniladi. Bunda shaxs ushbu sirdan foydalangan holda ishlab chiqargan tovarni realizatsiya qilishi, ish bajarishi va xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq faoliyatidir. Litsenziya shartnomasiga ko'ra ushbu sirni boshqa shaxsga foydalanish uchun taqdim etish ushbu sirdan bilvosita foydalanilgan holda daromad topishi bilan bog'liq huquqqa zid xatti-harakatlari sifatida baholanadi.

Tijorat sirini oshkor etish insofsiz raqobat sifatida qasddan sodir etiladi hamda o'z egasiga zarar yetkazish bilan tugaydi. Ushbu xatti-harakatlarning mohiyati eng avvalo, o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxsni bozordan chiqarib yuborish hamda faoliyatini majburiy tugatilishiga (bankrot bo'lishi, o'ziga qo'shib olishi v.b.) olib kelishi ko'zlanadi.

Odatda tijorat sirini oshkor etish bilan bog'liq shaxslar doirasini ikkiga bo'lish mumkin bo'lib:



Tijorat sirini insofsiz ravishda oshkor etishning ikkinchi turi o'ziga xos huquqiy tabiati bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyat eng avvalo, tijorat siri egasining ushbu sirga bo'lgan huquqini sir saqlanishini monopoliyaga qarshi organ tomonidan lozim darajada bo'lmagan harakatlari natijasida oshkor etiladi. Bunda tijorat sirining egasi tijorat

sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni mazkur organ talabi bilan taqdim etilishi hamda oshkor etmaslik sharti bilan huquqiy muhofaza qilinadi. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga ko'ra, monopoliyaga qarshi organ ushbu Qonunga muvofiq o'ziga berilgan vakolatlarni amalga oshirishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Nazorat uchun savollar:

1. Insofsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tabiati.
2. Insofsiz raqobatga olib keluvchi holatlar qaysilar?
3. Insofsiz raqobatni huquqiy baholang.
4. Shaxsga tegishli shaxsiylashtirish vositalaridan ruxsatsiz foydalanish bilan bog'liq insofsiz raqobat nima?

1-kazus

"Tibbiyot markazi" muassasasidan Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga "Sitrus" kompaniyasi tomonidan raqobatga qarshi harakatlar amalga oshirilayotganligi haqida ariza kelib tushdi.

"Tibbiyot markazi" muassasasi milliy va xorijiy mijozlarga tibbiyot xizmati ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradi. "Sitrus" kompaniyasi esa alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish va O'zbekiston Respublikasiga sotish bilan shug'ullanadi, shu vaqt davomida "Sitrus" kompaniyasi O'zbekiston Respublikasida tibbiyot muassasasi ochishga qaror qiladi.

Tibbiyot bozorida vaziyatni o'rganish uchun "Sitrus" kompaniyasi o'z xodimi R.Gni "Tibbiyot markazi" muassasasiga yuboradi, R.G muassasa xodimiga o'zini mijoz sifatida tanishtirib, ularning faoliyatiga qiziqayotganini, tanishib chiqish uchun muassasaga tegishli ma'lumotlarni taqdim etishni so'raydi.

"Tibbiyot markazi" muassasasi xodimasi uning asl maqsadini bilmagan holda mijozlar ro'yxatini R.Gga taqdim qiladi natijada ro'yxat muassasaga qaytarilmaydi. Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mijozlar ro'yxati reyestri tijorat sirini tashkil qilishini va tegishli tartibda sir saqlanishini aniqladi. R.G mazkur reyestrni "Sitrus" kompaniyasiga taqdim etdi va kompaniya tibbiyot muassasasi tashkil etish va mijozlar bazasi shakllantirishda foydalandi.

Xususan, “Sitrus” kompaniyasi “Tibbiyot markazi” muassasasi mijozlariga o‘zi tashkil etgan tibbiyot muassasasi haqida ma’lumot taqdim etdi va o‘z muassasasi xizmatidan foydalanishni taklif etdi. Shu tarzda mazkur reyestrda o‘z manfaatlari yo‘lida foydalandi.

“Sitrus” kompaniyasi tibbiyot muassasasi sifatida o‘z faoliyatini boshlagach, uning 15 foiz atrofidagi mijozlari “Tibbiyot markazi” muassasasi xizmatidan foydalangani ma’lum bo‘ldi.

Holatga huquqiy baho bering.

Insofsiz raqobat nima va uning qanday belgilari bor?

2-kazus

Konsert dasturini tashkillashtiruvchi “San’atkor” firmasi Toshkent shahrida joylashtirilgan afishalar va OAVlarida 2013-yil iyun oyining 11–15-kunlarida 10 dan ortiq san’at yulduzlari ishtirokida galakonsert dasturi bo‘lib o‘tishi to‘g‘risida reklama bergan.

Vaholanki, konsert dasturi 10 dan ortiq san’at yulduzlari ishtirokida emas, balki 2 ta san’at yulduzi ishtirokida o‘tkazilgan xolos.

“San’atkor” firmasining reklama qonunchiligini buzganligi uchun javobgarlik masalasini tahlil qiling.

Mazkur holatda Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining vakolatlarini tushuntiring.

Holatni qonuniy jihatdan asoslab bering.


VII BOB. SAVDOLARNI O'TKAZISHDA MONOPOLIYAGA QARSHI TALABLAR VA UNING OLDINI OLISH

7.1 Tanlov (savdo)lar o'tkazish tartibi va uning huquqiy asoslari

Savdolar tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda tovar (xizmat, ish) va xomashyo bozorining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, ko'rsatilgan sohalarida qonunbuzarliklarning oldini olish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Tanlov savdolarining bir turi hisoblanadi (kimoshdi savdolari bilan bir qatorda). Bunda tanlov tashkilotchisi tomonidan oldindan tuzilgan tanlov komissiyasining xulosasiga ko'ra eng yaxshi taklifni bergan (kimoshdi savdolarida eng yaxshi narx bergan) ishtirokchi tanlov g'olibi bo'ladi. Ayrim chet el huquqiy amaliyotida tanlov savdolari tender deb yuritiladi.

Tender (ingl. tender – taklif) deganda, tovarlar yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ko'zda tutuvchi takliflarni hujjatlarda oldindan belgilangan shartlar va muddatlarda raqobat, odillik va samaradorlik tamoyillari asosida tanlash tushuniladi¹. Bunda shartnoma tender g'olibi, ya'ni talablarga mos keluvchi va eng yaxshi shartlar ko'rsatgan ishtirokchi bilan tuziladi.



¹ <https://ru.wikipedia.org/w/index.php>.

“Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi 456-sonli Qaroriga asosan 2000-yil 1-dekabrda boshlab Davlat budjeti, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki hukumatining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalar hamda donor mamlakatlar, xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlar bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati tomonidan tuzilgan shartnomalar doirasida beriladigan xorijiy grantlar mablag‘lari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan va bitta kontrakt bo‘yicha qiymati 100 ming AQSH dollariga teng miqdordan ortiq bo‘lgan import qilinadigan va mamlakatimizda ishlabchiqarilgan xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender asosida xarid qilinadi. Shuningdek, xorijiy yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan tender kontraktlari bo‘yicha yuklar tashilishini ta‘minlaydigan transport-ekspeditorlik kompaniyalari tender asosida tanlanadi.

Tender savdolari 100 ming AQSH dollariga teng miqdordan ortiq bitta kontrakt bo‘yicha tovarlar yetkazib berishni amalga oshirishda o‘tkaziladi.

Bundan ortiq 300 AQSH dollaridan 100 ming AQSH dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo‘yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qaroriga ko‘ra eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida tender savdolari o‘tkazmasdan quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

– xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning tavsifnomasini, sonini, bajarish muddatini va tovarni yetkazib berish joyini ko‘rsatgan holda takliflarni yetkazib beruvchilarga yoki pudratchilarga yuborish;

– yetkazib beruvchilar yoki pudratchilar e‘lon qilgan narxlar va tavsifnomalarni taqqoslash.

Maxsus komissiya buyurtmachining rahbar xodimlari va vakolati mutaxassislaridan kamida uch nafardan iborat bo‘lgan tarkibda tuziladi. Maxsus komissiyaning qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (etkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda tender qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish tenderlar o‘tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Tender savdolarini tashkil etish tenderlarni o‘tkazish bo‘yicha doimiy yoki vaqtinchalik organi bo‘lgan tender komissiyasiga yuklatilgan. Komissiyaning ishchi organi tenderlarni o‘tkazishni (tovar yetkazib

beruvchilarni oldindan malakali tanlash, tushadigan takliflarni ekspert baholash, binolar va yordamchi xodimlar berish, reklama ishlarini tashkil etish, tender komissiyasi hujjatlarini va shu kabilarni amalga oshirishni) amalda tashkil etuvchi asosiy organ hisoblanadi. Komissiya a'zolari-soni toq (odatda kamida to'qqiz, o'n bir kishi), shu jumladan uning tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- buyurtmachining vakillari;
- tegishli vazirlik va idoralar vakillari (zarur bo'lganda);
- xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari;
- buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari;
- tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillari.

Buyurtmachining yoki unga qarashli korxonalar va tashkilotlar vakillari soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Tenderni tashkil etish va o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- *Tenderning sohasini belgilash;*
- *Tender hujjatlarini (ixtisoslashgan texnik va tijoriy konsultantlarni);*
- *Tenderni OAVda e'lon qilish va / yoki tenderda qatnashishi mumkin bo'lganlarga tenderda qatnashish uchun taklifnomalar jo'natish jalb etgan holda) tayyorlash;*
- *Tender qatnashchilaridan tender bo'yicha takliflarni qabul qilish;*
- *Tenderda qatnashishi mumkin bo'lganlarni aniqlash;*
- *Tender bo'yicha tushgan takliflarni baholash va tender g'olibini aniqlash va g'olib bilan kontraktni imzolash.*

Tenderning ishchi organi savdolar o'tkazilishidan kamida 30 kun oldin tender to'g'risidagi axborotni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish (bunda ushbu maqsad uchun ham mamlakatimizda, ham chet ellarda eng keng tarqalgan va ixtisoslashgan jurnallar, gazetalarni tanlash majburiy hisoblanadi) va / yoki mamlakatimizdagi ishlab chiqaruvchilarni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini, albatta, jalb etgan holda pochta, telefaks orqali yoki boshqacha shaklda aniq da'vogarlariga rasmiy taklifnomalar yuborish yo'li bilan da'vogarlariga yetkazadi. Yopiq tenderlar o'tkazilganda tender to'g'risidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etilmaydi. Tender boshlangunga qadar tenderda ishtirok etish uchun qo'yiladigan da'vogarlarning tender komissiyasi tomonidan malakali tanlovi o'tkaziladi.

Tanlovda quyidagi subyektlar ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi:

- Qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;
- Malakali tanlov uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmagan;
- Ilgari tuzilgan kontraktlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni zarur darajada bajarmagan;
- Tender e'lon qilingunga qadar ta'sis etilgan 6 oy bo'lmagan;
- Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlilik muhokamasida ish ko'rib chiqilayotgan;
- Tijorat va moliya ko'rsatkichlari bo'yicha tender komissiyasining talablariga javob bermaydigan tashkilotlar.

Yuqoridagi cheklovlarning maqsadi savdolarda uning tashkilotchisi va ishtirokchilarning o'rtasida manfaatlar mutanosibligini hamda ushbu jarayonda qonuniylik va shaffoflikni ta'minlashdan iborat.

Tanlab olingan qatnashchilar ro'yxati tender komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Tenderda qatnashishga ruxsat etishni rad etish to'g'risidagi qaror tender komissiyasi tomonidan qabul qilinadi va bu haqda ishchi organ da'vogarlarini yozma ravishda xabardor qiladi.

Tender o'tkazish tartibi. Ommaviy axborot vositalarida tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon rasman bosib chiqarilgan sana yoki tender qatnashchisi pochta (sana pochta shtempeli bo'yicha aniqlanadi), telefaks bo'yicha yoki boshqa shaklda xabar qilingan (taklif etilgan) sana tender ochilgan sana hisoblanadi.

O'tkaziladigan tenderlar doirasida tender takliflari tayyorlash muddati tender komissiyasi tomonidan belgilanadi va tender ochilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatib o'tiladi.

Misol:

N ^o	Tovar, ish, xizmatlar	O'lchov bir.	Miq.	Boshlang'ich narxi, ming so'm	Bog'lanuvchi xodim va telefon raqami
1.	Kommutator va optik transiver CISCO	dona	6	150 000	Alibekov I.R. 113-33-40
2.	"UzRXTB" AJ markaziy apparat binosini rekonstruksiya qilish bo'yicha yetkazib beruvchini aniqlash			aniqlash bosqichida	Alibekov I.R. 113-33-40

3.	“UzRXTB” AJ markaziy apparat binosi fasadi bo'yicha yetkazib beruvchini aniqlash	m2	1300	aniqlash bosqichida	Alibekov I.R. 113-33-40
4.	Tashqi RGB LED panel (kengligi 50 sm)	p.m.	45	300 000	Alibekov I.R. 113-33-40
5.	Birja mulkini hisobini avtomatlashtirish uchun jihozlar va dasturiy ta'minot	k-t	1	30 000	Alibekov I.R. 113-33-40

Tender komissiyasi tender takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin, ushbu qaror tenderning barcha qatnashchilariga nisbatan joriy etiladi.

Tender komissiyasi o'z ishi tartibini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Mazkur masala bo'yicha qaror tender komissiyasi a'zolari umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan hollarda tender komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Har bir aniq holatda tender komissiyasi tenderda qatnashish uchun da'vogar tomonidan beriladigan zakalatni olish tartibi, miqdori va shaklini belgilab beradi. Zakalat miqdori xarid hisob-kitob qiymatining 1 – 5 foizi doirasida bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Zakalatlar buyurtmachi yoki ishchi organing hisobvarag'iga kiritiladi (agar ixtisoslashtirilgan tashkilot ishchi organ bo'lib hisoblangan hollarda). Mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (tovar yetkazib beruvchilari)ning zakatlari so'mlarda olinadi.

E'tiborlisi, tender takliflari faqat muhrlangan ikki qavatli xat jildda qabul qilinadi. Ishchi organing nomi va manzili ko'rsatilgan tashqi xat jildda tender qatnashchisi tomonidan zakalat berilganligini tasdiqlovchi hujjat, ichki xat jildda tender taklifi, tovarning nomi va takliflarni qabul qilish uchun belgilangan sana bo'ladi.

Yuqoridagi sanadan keyin olingan takliflar ko'rib chiqilmaydi va xat jildlar ochilmasdan tender qatnashchilariga qaytarib yuboriladi. Tender qatnashchisi ko'rsatib o'tilgan sanadan so'ng o'zgartirishlar kiritgan yoki o'z taklifini qaytarib olgan hollarda zakalat unga qaytarib berilmaydi. Tender qatnashchisi tender buyurtmanomali qabul qilib olinadigan oxirgi sanagacha kechi bilan 5 kun muddatda o'z taklifini qaytarib olish huquqiga ega.

Tender komissiyasi majlisini o'tkazish uchun kvorum uning tarkibining 70 foizini tashkil etadi. Tender komissiyasining barcha majlislari va barcha qabul qilingan qarorlari protokollar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Tender qatnashchilarining takliflari solingan xat jildlar bevosita tender komissiyasi majlisida ochiladi. Bunday hollarda tender komissiyasi majlisining protokolida tender qatnashchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarning tender hujjatlariga muvofiqligi yozib qo'yiladi.

Tender takliflarini ko'rib chiqish muddati tender komissiyasi tomonidan xat jild ochilgan vaqtdan boshlab belgilanadi. Bu muddat sotib olinadigan tovarning turiga bog'liq bo'lib uch oydan ortiq bo'lishi mumkin emas. Takliflarni ko'rib chiqish chog'ida ularning tender hujjatlari talablariga muvofiqligi aniqlanadi, zarur hujjatlarning mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilishi tekshiriladi.

Tender komissiyasi tushgan takliflarning tender shartlariga muvofiqligini tekshiradi va tender shartlarida belgilangan, eng ko'p raqobat narxlari, yetkazib berish shartlari, to'lov va boshqa mezonlar bo'yicha g'oliblarni aniqlaydi. Sharoitlar teng bo'lgan boshqa hollarda g'olibni aniqlashda mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari (etkazib beruvchilari)ga ustunlik beriladi.

Tenderni tashkil etish va o'tkazish xarajatlari, shuningdek ekspert tashkilotlarining xizmatlari uchun to'lovlar qatnashchilar tomonidan tender hujjatlarini sotib olish uchun to'langan mablag'lardan to'lanadi.

Tender o'tkazilgandan keyin buyurtmachi yoki ishchi organ (ixtisoslashtirilgan tashkilot) qatnashchilarga (g'olib bundan mustasno) ularning zakalatlari bank operatsiyalarini o'tkazish xarajatlarini chiqarib tashlagan holda qaytaradi. Zakalat tender g'olibi e'lon qilingan vaqtdan boshlab belgilangan muddat mobaynida, biroq 11 bank kunidan kechiktirmay qaytariladi. Tender g'olibining zakalati kontrakt shartlari bajarilib bo'lgunga qadar bunday kontrakt shartlarining tender g'olibi tomonidan kerakli tarzda bajarilishiga kafolat sifatida buyurtmachining ixtiyorida qolishi mumkin. Tenderda qatnashish huquqi boshqa yuridik shaxslarga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.2. Tanlov (tender) savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar

Tanlov jarayonlariga monopoliyaga qarshi talablarning tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etib savdolarning qonunda belgilangan prinsiplarga rioya etilgan holda o'tkazilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yagona (umumiy) iqtisodiy manfaatga ega bo'lgan shaxslar yig'indisi shaxslar guruhi deb e'tirof etilib, ularga tatbiqan quyidagi bir yoki bir nechta shart bajariladi:

– ikki va undan ortiq yuridik shaxsning biri bevosita yoki bilvosita, shuningdek o'zga shaxslardan olgan vakolatlariga muvofiq boshqa yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortig'iga egalik qiladi;

– ikki va undan ortiq yuridik shaxsda ayni bir jismoniy shaxs, shuningdek uning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchilari), bolalari (farzandlikka olingan bolalari), tugʻishgan va oʻgay aka-ukalari hamda opa-singillari (bundan buyon matnda yaqin qarindoshlari deb yuritiladi) ushbu yuridik shaxslardagi ishtiroki tufayli yoxud boshqa shaxslardan olgan vakolatlariga muvofiq mazkur yuridik shaxslardan har birining ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortigʻiga ega boʻladi;

– ikki va undan ortiq yuridik shaxsda ayni bir yuridik shaxs ushbu yuridik shaxslarda oʻzining ishtiroki tufayli yoxud boshqa shaxslardan olgan vakolatlariga muvofiq mazkur yuridik shaxslardan har birining ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortigʻiga ega boʻladi;

– ikki va undan ortiq yuridik shaxsning ijro etuvchi organi tarkibiga ayni bir jismoniy shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari kiradi;

– ikki va undan ortiq yuridik shaxsning kollegial ijro etuvchi organi va (yoki) kuzatuv kengashi son tarkibining ellik foizidan ortigʻini ayni bir jismoniy shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari tashkil etadi;

– ikki va undan ortiq yuridik shaxslardan biri qonun hujjatlariga yoki ushbu yuridik shaxslarning taʼsis hujjatlariga yoxud ular oʻrtasida tuzilgan shartnomalarga asosan ushbu yuridik shaxslarga ijro etilishi majburiy boʻlgan koʻrsatmalar berishga haqli boʻladi;

– ikki va undan ortiq yuridik shaxsda ayni bir jismoniy shaxs yoki ayni bir yuridik shaxs qonun hujjatlariga va ushbu yuridik shaxslarning taʼsis hujjatlariga yoxud ular bilan tuzilgan shartnomalarga asosan ularga ijro etilishi majburiy boʻlgan koʻrsatmalar berishga haqli boʻladi.

Qonunchilikda shaxslar guruhiga tovar yoki moliya bozorining yagona subyekti sifatida qaraladi.

Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xoʻjalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xoʻjalik yurituvchi subyektlarga bogʻliq boʻlmagan holda unga oʻz faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi taʼsir koʻrsatish, tegishli bozorga boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir.

Tovar bozorida qaysi xoʻjalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi:

1) ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa;

2) oʻttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda boʻlib, bunda quyidagi shartlar:

– xoʻjalik yurituvchi subyektning tovar bozorida ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror boʻlib turishi;

- tovar bozorida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo'lib turishi;
- ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo'lishi shartlari belgilangan bo'lsa, shu xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqeyi ustun mavqe deb e'tirof etiladi.

Moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini e'tirof etish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tovarning tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan belgilanadigan narxi, agar ushbu narx:

- bunday tovarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan xarajatlar hamda foyda summasidan yuqori bo'lsa;
- asossiz xarajatlarning o'rnini qoplashga yoki tovarning sifatini pasaytirish natijasida qo'shimcha foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa, monopol yuqori narxdir.

Tovarning narxi birja savdolari yakunlariga ko'ra shakllangan taqdirda, u monopol yuqori narx deb e'tirof etilmaydi. Tovarning moliya bozorida monopol yuqori narxi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlanadi.

Tovar bozorida sotuvchi yoki sotib oluvchi sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarning tannarxidan past darajada va ushbu tovarni sotishdan zarar keltiradigan darajada belgilanadigan, natijada raqobatning cheklanishiga olib keladigan narx tovarning monopol past narxidir.

Tovarning moliya bozorida monopol past narxi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlanadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarida tovar, xomashyo ishlab chiqarish va boshqa sohalarni monopollashtirishga qarshi kurashish yo'nalishida qat'iy choralar ko'rilib bunday xatti-harakatlar uchun javobgarlik turlari diversifikatsiya qilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 183-moddasining ikkinchi qismidagi monopoliyaga qarshi kurashish organing qoidabuzarlikni tugatish to'g'risidagi, dastkabki holatni tiklash haqidagi ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlash yoki o'z vaqtida bajarmaslik uchun eng kam oylik ish haqining 25 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yildan 5 yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan bo'lsa, 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan Kodeksning 183-moddasi 2-qismi sanksiyasi "360 soatgacha majburiy jamoat ishlari" jazo turi bilan kengaytirildi.

7.3. Tanlov (tender) savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar

Tanlov (tender) savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan quyidagilar taqiqlanadi:

– savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish;

– savdolarning tashkilotchilari va (yoki) buyurtmachilari tomonidan savdolar ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlardan savdolarida qatnashish uchun hujjatlarni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish;

– savdolar ishtirokchilarini asossiz ravishda chetlashtirish;

– savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarida qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish, shu jumladan axborotdan foydalanish orqali imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

– tovarning aniq ishlab chiqaruvchisini ko'rsatish, bundan tovarlarning mos kelmasligi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar mustasno.

Yuqorida belgilangan monopoliyaga qarshi talablarning buzilishi tanlov (tender) savdolarining qarorlarini va shu savdolar natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Monopoliyaga qarshi organing oldindan berilgan roziligisiz sodir etilgan, tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi yuzaga kelishiga yoki kuchayishiga va (yoki) raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlar (tuzilgan bitimlar) sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

7.4. Sud tomonidan tanlovni o'tkazilmagan deb topish asoslari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi 456-sonli "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan tender komissiyasi tomonidan tender savdolarini o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi holatlari belgilangan.

Jumladan:

1. Tenderni yopish muddati tugaydigan vaqtgacha birorta ham tender taklifi tushmasa;

2. Tenderga kamida uchta qatnashchining taklifi taqdim etilsa; taqdim etilgan barcha tender takliflarida zarur hujjatlarning paketi bo'lmaganda

3. Kichik biznes sub'yektlari uchun ajratilgan kvotalar bo'yicha o'tkaziladigan tender qatnashchilari orasida ushbu toifa tashkilotlar bo'lmasa.

Bunda agar tushgan tender takliflarining birortasi tender hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, tender o'tkaziladi, ammo salbiy natijaga ega deb hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikda sudlar faoliyatida tanlovlarni o'tkazilmagan deb topish bo'yicha aniq normalar ko'rsatilmagan bo'lib ushbu masaladagi ishlarni ko'rib chiqishda tender savdolarini o'tkazishga doir normativ-huquqiy hujjatlardagi savdolarga qo'yilgan talablar, takliflarni tanlash shartlari va mezonlari, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib qaror chiqariladi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi 456-sonli, 2013-yil 11-iyundagi 166-sonli, 2015-yil 14-sentabrdagi 264-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 5-apreldagi 1948-sonli qarorlarida tanlovlar, tender savdolari va elektron savdolarini tashkil etishga doir qoida va tartiblar o'z aksini topgan.

7.5. Birja savdolarini o'tkazish tartibi

Birja faoliyati mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xomashyo bazasining katta hajmlardagi savdolarini qonuniy yo'llar orqali va zamonaviy usullarda amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan yagona markazlashtirilgan organ – O'zbekiston tovar xomashyo birjasi (keingi matnda "O'zRTHB" deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu faoliyat yildan yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2004–2014-yillar davomida O'zRTHBda tuzilgan bitimlar hajmi 20 barobarga oshdi (2004-yildagi 450 mlrd. so'mdan 2014-yildagi 8,9 trln. so'mgacha). Oxirgi-yillarda birja bozorining O'zRTHB aylanmasi hajmidagi ulushi 80 foizga yetdi. Birja savdolari orqali sotiladigan tovarlar nomenklaturasasi 14 ta pozitsiyaga oshdi¹ va bu o'sish ko'rsatkichlari kelajakda ham saqlanib kolishi kutilmoqda.

Birja savdolari birjada uning a'zolarining barchasiga ushbu savdolarda bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda, markazlashtirilgan tarzda elektron shaklda o'tkaziladi.

¹ <http://gkk.uz/ru/>

O'z o'mida birja savdosi qoidalarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom;
- birja a'zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi;
- tovarlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi;
- birja bitimlarining turlari;
- birja savdolarida muomalada bo'ladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) tavsifi;
- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish tartibi;
- birja savdolarini o'tkazish tartibi;
- birja bitimlarini va birja savdolari natijalarini ro'yxatga olish hamda rasmiylashtirish tartibi;
- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;
- birja tovarlarini kotirovkalash (ularning narxini belgilash) tartibi;
- birjada narxlarning shakllanish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi;
- birja savdolari to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibi;
- birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar;
- birjada nizolarni hal etish tartibi.

Birja savdosi qoidalarida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Dastlabki ko'zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarimasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan, birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdagi tovarlar ro'yxati birjaning kotirovkalash varag'idir.

Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi, qimmatli qog'ozlar bundan mustasno:

- tovar ishlab chiqaruvchining yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;
- tovarning Qonun talablariga muvofiqligini tekshirish;
- tovarning likvidligini baholash;
- tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish (birja listingi) quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi:

- qimmatli qog'ozlar emitentining o'z qimmatli qog'ozlarini birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar emitentining moliyaviy holatini baholash;
- qimmatli qog'ozlarning likvidligini baholash;
- qimmatli qog'ozlarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilgan tovar birja savdolariga qo'yilgan hisoblanadi.

Chet el valyutasi va davlat qimmatli qog'ozlari birjaning kotirovkalash varag'iga tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish va birja listingi tartib-taomilisiz kiritiladi.

Birja savdolari birja a'zolari tomonidan berilgan buyurtmalar asosida birja savdosi qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

Birja tovarini kotirovkalash birja savdolarida birja tovarining birja narxini belgilash maqsadida avtomatik rejimda, birja savdosi qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Birja savdolari yakunlariga ko'ra olingan qimmatli qog'ozlarning, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno, birja narxi mazkur qimmatli qog'ozlarning birja savdolari sanasidagi bozor narxidir.

7.6. Birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra 2011-yilning 1-apreldan mazkur tizimni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada mustahkamlash hamda Davlat xaridlari jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'yicha yangi tizimning joriy etilganligi va uning samaralari haqida atroflicha to'xtalib o'tildi.

Yangi tizim O'zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi tomonidan elektron auksion savdolari tartibida tashkil etilib, elektron savdolar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab internet orqali, real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida bir qator qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Avvalo, elektron auksion tizimining ahamiyatli jihati budjet tashkilotlari uchun sotuvchi qidirishga hojat yo'q. Birja saytiga e'lon berishning o'zi kifoya va natijada ularga yetkazib beruvchilar o'z xizmatlarini taklif etadilar.

Mazkur sohada 2011–2014-yillarda amalga oshirilgan ishlarni tahlil etadigan bo'lsak, kichik biznes subyektlarining Davlat xaridlari bo'yicha elektron savdolaridagi ishtiroki 30 mingtani tashkil etganligi yoki besh

barobarga oshganligini ko'rish mumkin. Ularning tovarlar ta'minotidagi ulushi 99 foizga ko'paygan. Davlat xaridlari bo'yicha elektron savdolarida dastlabki yillarda har bir talab uchun ikkita dan taklif berilgan bo'lsa, bugunga kelib ularning soni oltitadan oshdi.

Prezident qarorini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tashkil qilingan bo'lib, uning ishchi organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tayinlandi. Bu borada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagi 69-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida "O'zRTXB" AJda 2015-yilning 1-iyunidan birjaning yangi elektron savdo tizimi "Davlat xaridlarida elektron katalog" ishga tushirildi. Qisqa vaqt ichida mazkur tizim o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Joriy yilning iyun-oktabr oylarida elektron katalog bo'yicha 36,5 mlrd. so'mlik bitimlar imzolaniib, 9,3 mlrd. so'm budjet mablag'lari iqtisod qilindi. Bu borada kichik biznes subyektlarining ulushi 100 foizni tashkil etdi¹.

Birja savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan:

– birja savdolarini o'tkazish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan harakatlar, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

– birja savdolari ishtirokchilarining kelishib olingan harakatlari natijasida joriy birja narxlarining keskin ko'tarilishiga yoki qat'iy belgilanishiga olib keladigan harakatlar;

– birja savdolarida talabning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq harakatlar taqiqlanadi.

Shu bilan birga, birja savdolarini o'tkazish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan harakatlar aniqlanganishi birja savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

7.7. Birja savdolarida tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlari

Birja bitimi deganda birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnoma tushuniladi.

Birjada birja bitimlari, shu jumladan:

– birja tovarlarining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (spot);

¹ <http://www.uzex.uz>

– birja tovarlarining ularni kechiktirib yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (forvardlar);

– birja tovarini yetkazib berishni (yetkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini yetkazib bermagan holda bitim taraflari oʻrtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalar (derivativlar)ning oldi-sotdi bitimlari (fyucherslar);

– birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarni) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalar (derivativlar)ning oldi-sotdi bitimlari (opsionlar);

– valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar boʻyicha hisob-kitoblarni muayyan muddat oʻtgach, avvaldan belgilangan valyuta kursi boʻyicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar (valyuta svoplari);

– qimmatli qogʻozlarni muayyan muddat oʻtgach, avvaldan belgilangan narx boʻyicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qogʻozlarga doir oldi-sotdi bitimlari (repo) tuzilishi mumkin.

Birja bitimi toʻgʻrisidagi axborot (birja tovarining nomi, soni, kotirovkasi (narxi), birja bitimi tuzilgan sana bundan mustasno) uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin emas. Birja bitimi toʻgʻrisidagi axborot sudlarga taqdim etiladi, surishtiruv va tergov organlariga esa qoʻzgʻatilgan jinoyat ishi mavjud boʻlgan taqdirda taqdim etiladi.

Birja bitimini roʻyxatdan oʻtkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari boʻyicha yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

Qimmatli qogʻozlarga doir birja bitimlarini yozma ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi. Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini taʼminlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:

– kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;

– agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan boʻlsa, birja tovarlarini yetkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;

– pul mablagʻlarini va birja tovarlarini oldindan deponentga qoʻyishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;


– birja savdosi qoidalari va birja bitimlari boʻyicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bankrot deb topilgan taqdirda, birja aʼzolarining va ular mijozlarining birja hisobvaraqlaridagi mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi hamda birja aʼzolariga va ularning mijozlariga ularning birja bitimi boʻyicha majburiyatlari bajarilganidan keyin qaytarilishi lozim.

Birjaning majburiyatlari boʻyicha undiruvni birja aʼzolarining va ular mijozlarining mol-mulkiga qaratishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Birja a'zolarining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda, birja bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondining pulli va qaytarib berish asosida birja a'zolariga taqdim etiladigan mablag'lari orqali ta'minlanishi mumkin.

Birja bitimlarini haqiqiy emas deb topish yuzasidan alohida me'yoriy huquqiy hujjat mavjud emas bo'lib, mazkur masala amaldagi qonunchilikning bitimlarga oid umumiy qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi¹. Quyidagi hollarda bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin, xususan



¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (113-128-moddalar). Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: Adolat, 2007. - 504 b.

Bitim qonunchilikda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunda nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabni qonunchilikda ko'rsatilgan shaxslar qo'yishlari mumkin¹.

Bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart².

Nazorat uchun savollar:

1. Tanlov va tender to'g'risida nimalar bilasiz? Ularning normativ-huquqiy asosini qaysi qonun va qonunosti hujjatlari tashkil etadi?

2. Tanlov (tender) savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni amaliyot va qonunchilikka tayanib izohlab bering.

3. Birja savdolarini o'tkazishda qonuniylikni ta'minlash uchun qaysi holatlarga e'tibor berish zarur?

4. Birja savdolarini o'tkazishda qanday monopoliyaga qarshi talablarga amal qilish kerak?

1-kazus

Yunusobod tuman Pensiya jamg'armasi bitta shartnoma doirasida umumiy qiymati 42 ming AQSH doll. teng kompyuter texnikasini xarid qildi. Xususiylashtirish, monopoliyada chiqarish va raqobatni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining Toshkent shahar boshqarmasi jamg'armani tekshirish yakunlariga ko'ra jamg'arma tomonidan maxsus komissiya tuzilganligi, ammo ko'rsatilgan texnikani yetkazib beruvchilar e'lon qilgan narxlar va tavsifnomalarni taqqoslanmagan holda xaridlar amalga oshirilganligi aniqlanib, Xo'jalik sudiga tegishli da'vo arizasi kiritilgan.

¹ O'zR Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabrda 269-son "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi normalarni qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori.

² O'zR Oliy Sudi Plenumining 2006 yil 22 dekabrda "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarni tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarori.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Toshkent shahar raqobat boshqarmasining da'vosi qonuniymi? Bitta kontrakt bo'yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi xaridlarni amalga oshirish tartibini tushuntirib bering.

2-kazus

“Tong yulduzi” AJ “Vul Industri” AJ tomonidan xomashyo yetkazib berish bo'yicha e'lon qilgan tenderida qatnashish uchun tavsifnoma bergan va tender g'olibi bo'lgan. Tender yakunlariga ko'ra tuzilgan shartnoma tender ishtirokchilarining shikoyatiga ko'ra Toshkent viloyat adliya boshqarmasining taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi talab qilingan. Ushbu hujjatda keltirilishicha, tenderda ishtirok etish paytida “Tong yulduzi” AJning ustav jamg'armasi qonunchilikda AJlari uchun belgilangan eng kam miqdordan kamayib ketganligi tufayli uni majburiy tarzda kamaytirish va jamiyatni qayta tashkil etish zarur bo'lgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Adliya boshqarmasining taqdimnomasi qonuniymi? Bitta kontrakt bo'yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi xaridlarni amalga oshirish tartibini tushuntirib bering. Tender boshlangunga qadar o'tkaziladigan malakali tanlov qanday tartibda o'tkaziladi?

VIII BOB. IQTISODIY KONSENTRASIYANI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH

8.1. Iqtisodiy konsentratsiya tushunchasi

“Iqtisodiy konsentratsiya” tushunchasi birinchi marta O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 6 yanvardagi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ–319-son Qonunida belgilab qo‘yilgan edi.

Qonunning 4-moddasiga muvofiq, iqtisodiy konsentratsiya – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta‘sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish hisoblanadi


Iqtisodiy konsentratsiya mavjudligi mohiyatan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzilishi hisoblanmaydi. Shu bilan birgalikda bozor munosabatlarining sog‘lom faoliyat yuritishi uchun iqtisodiy konsentratsiyani davlat tomonidan tartibga solinishi muhim bo‘lib, chunki iqtisodiy konsentratsiya mavjudligi holati raqobat muhitiga salbiy ta‘sir o‘tkazishga sharoit yaratib berishi mumkin.

Raqobat qonunchiligi monopol tuzilmalarining kelib chiqishining oldini olish uchun turli xil iqtisodiy konsentratsiyani ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni monopoliyaga qarshi organlarga yuklagan.

Iqtisodiy konsentratsiyani ustidan davlat nazoratini amalga oshirish asoslarini iqtisodiy makonning yaxlitligi, tovar, xizmat va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi, raqobatni qo‘llab-quvvatlash, insofsiz raqobat va monopoliyaga olib keladigan iqtisodiy faoliyatning oldini olish kabi konstitutsiyaviy prinsiplarga asoslanadi.

Qonunning 9-moddasi monopoliyaga qarshi organning maqomini belgilab berib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi vakolatli organdir. Mazkur moddada shuningdek monopoliyaga qarshi organ tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatga qarshi harakatlarini, insofsiz raqobatni cheklash va ularning oldini olishga hamda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining g‘ayriqonuniy harakatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishi belgilangan.

Amaldagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning “Savdolarni va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish” deb nomlangan 3-bobida iqtisodiy konsentratsiyani tartibga soluvchi monopoliyaga qarshi harakatlar belgilab berilgan.



8.2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tashkil etishda monopoliyaga qarshi talablar

Iqtisodiy konsentratsiyaxo‘jalik yurituvchi subyektlarini tashkil etish, qo‘shib yuborish va qo‘shib olish shaklida amalga oshiriladi, chunki bunday holatda bozorda muayyan xo‘jalik yurituvchi subyektning ta‘siri oshadi.

“Raqobat to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasida monopoliyaga qarshi organning xo‘jalik yurituvchi subyektlarini tashkil etish, qo‘shib yuborish va qo‘shib olish ustidan nazorat olib borishini belgilovchi norma mavjud.

Xususan, monopoliyaga qarshi organ quyidagilarga oldindan rozilik beradi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birlashmalarini tashkil etishga;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olishga.

Tijorat tashkilotlarining birlashmalari tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 77-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra tijorat tashkilotlari o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o‘zga birlashmalariga birlashishlari mumkin. Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar yuridik shaxs hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan notijorat tashkilotlari hisoblangan uyushmalar (ittifoqlar) va o‘zga birlashmalar tuzilganda monopoliyaga qarshi organga oldindan rozilik olish uchun murojaat qilishlari shart.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan uyushmalar tuzishda oldindan rozilik olishning zaruriyati shu bilan izohlanadiki, bunday uyushmalar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning muvofiqlashtirib turishi mumkin, natijada raqobatning cheklanishi yoki muayyan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqesi kuchayib ketishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qo‘shib yuborish va qo‘shib olish yuridik shaxsni qayta tashkil etish shakllaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasida yuridik shaxsni qayta tashkil etish tartibi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta‘sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, Kodeksning mazkur moddasi qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxslarni qo‘shib yuborish, qo‘shib olish yoki o‘zgartirish shaklida qaytadan tashkil etish vakolatli davlat organlarining roziligi bilangina amalga oshirilishi mumkinligini nazarda tutgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning uyushmalarini tuzishda hech qanday shartsiz oldindan rozilik olish talabidan farqli ravishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qo‘shib yuborish va qo‘shib olishda monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasining ikkinchi qismidagi shartlar mavjud bo‘lgan holatlardagina talab qilinadi.

Xususan, agar tegishli bitimda ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati eng kam ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa yoki ularning qo‘shib yuborilgan yoki qo‘shib olingan yildan oldingi oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami tushumi eng kam ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa yoxud ulardan biri tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tovar bozorida qo‘shib yuborish va qo‘shib olish uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi olinishi zarur.

Tovar va (yoki) moliya bozorlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tuzish, qo‘shib yuborish va qo‘shib olishda monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish bo‘yicha hujjatlarni ko‘rib

chiqish va oldindan rozilik olish tartibi 2013 yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 344-son qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga va qo'shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilab berilgan.

Tovar va (yoki) moliya bozorlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tuzish, qo'shib yuborish va qo'shib olishda monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Manfaatdor shaxs (arizachi) tomonidan oldindan rozilik olish uchun monopoliyaga qarshi organga hujjatlarni taqdim etish;

2. Taqdim etilgan hujjatlarni monopoliyaga qarshi organ tomonidan ko'rib chiqilishi va oldindan rozilik berish yoki rozilik berishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilish.

Birlashmani tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga oldindan rozilik berish to'g'risidagi ariza monopoliyaga qarshi organ rahbarining buyrug'i bilan tuziladigan maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, maxsus komissiya zarur hujjatlar va ma'lumotlar olingan vaqtdan boshlab o'n ish kunidan kechikmay xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmasini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga oldindan rozilik berish yoki rozilik berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Rozilik berishning rad etish asoslari Nizomning 18-bandida belgilab qo'yilgan. Mazkur normaga muvofiq birlashmani tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga oldindan rozilik berishni rad etish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

- birlashma tashkil etish, qo'shib yuborish, qo'shib olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning to'liq hajmda taqdim etilmaganligi;

- taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki buzilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

- tadbirkorlik subyekting ruxsat berish talablari va shartlariga muvofiq emasligi.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasining uchinchi qismida ham monopoliyaga qarshi organning oldindan rozilik berishni rad etish uchun asoslar keltirilgan. Xususan, monopoliyaga qarshi organ arizachiga oldindan rozilik berishni rad etish haqli, agar:

- harakatlarni sodir etishga (bitimlar tuzishga) oldindan rozilik berish to'g'risidagi arizaning qanoatlantirilishi tovar yoki moliya bozorida tegishli xo'jalik yurituvchi subyekting yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi yuzaga kelishiga yoki kuchayishiga va (yoki) raqobatning cheklanishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

- taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishda ularda bayon etilgan axborotning ishonchsizligi yoki yolg'onligi aniqlansa.

Ammo mazkur qoidadan istisno holati ham mavjud. Monopoliyaga qarshi organ tovar yoki moliya bozorida agar xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashmalarini tashkil etish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish, qo'shib olish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar o'z harakatlari (bitimlari) iste'molchilarga sezilarli darajada naf keltirishini isbotlab bersa, harakatlarni sodir etish (bitimlar tuzish) uchun oldindan rozilik berish haqidagi arizani qanoatlantirishga haqli.

Nizomning 35-bandi xo'jalik yurituvchi subyektlar monopoliyaga qarshi organning qaroridan (ko'rsatmasidan) norozi bo'lgan taqdirda, qarorni butunlay yoki qisman haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga yoxud qarorni (ko'rsatmani) bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risida ariza bilan O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga murojaat qilishga haqli ekanligini belgilab beradi.


8.3. Tijoratchi tashkilotlarning ustav kapitalidagi aksiyalar (ulushlar)ni olishda monopoliyaga qarshi qonunchilik ustidan davlat nazorati

Tijoratchi tashkilotlarning ustav kapitalidagi aksiyalari (ulushlar)ni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinishi iqtisodiy konsentratsiyaning bir shakli hisoblanadi.

Aksiyalar (ulushlar) mulkiy huquqlar hisoblanib, ular vositasida xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish mumkin.

Dastavval, qaysi yuridik shaxslarda aksiyalar yoki ulushlar mavjud ekanligini aniqlab olish lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi aksiya va ulushlar xo'jalik shirkatlari va xo'jalik jamiyatlarida mavjud ekanligini nazarda tutadi. Fuqarolik kodeksining 58-moddasiga muvofiq ulushlarga (qo'shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur moddada xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari:



shaklida tuzilishi mumkinligi belgilangan.

To'liq shirkatlar haqida atroflicha tushuncha maxsus qonun hujjatida – 2001-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi 308-II-sonli Qonunida yoritib berilgan.

Mazkur Qonunning 3-moddasiga muvofiq muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar.

Aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning faoliyatlari ham maxsus qonun hujjatlari, xususan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi va “Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishda monopoliyaga qarshi organ bilan kelishish talablari “Raqobat to'g'risida”gi Qonunning 17-moddasida belgilangan. Mazkur moddada aksiyalarni (ulushlarni) olishga doir bitimlar bo'yicha monopoliyaga qarshi organ bilan kelishish shartlari keltirilgan. Xususan, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olishga doir bitimlar, agar bu bitimlarni tuzish paytida tegishli bitimda ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olgan jami tushumi eng kam ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo'lsa yoxud bitim

ishtirokchilaridan biri ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lsa, monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi bo'lgan taqdirda tuziladi.

Shu bilan birga, mazkur norma xo'jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi aksiyalarni (ulushlarni) olishga doir bitimlar bo'yicha monopoliyaga qarshi organdan oldindan rozilik olishning aniq mezonlarini belgilab bergan. Xususan, aksiyalarni sotib olishda yuqoridagi talablarni hisobga olgan holda quyidagi holatlarda oldindan rozilik olish lozim:

1. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini olishga nisbatan, agar bunday shaxs yoki shaxslar guruhi ushbu olishga qadar mazkur aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini tasarruf etmagan bo'lsa yoki mazkur aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning o'ttiz besh foizidan kamini tasarruf etgan bo'lsa, bunda ana shu shaxs yoki shaxslar guruhi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning o'ttiz besh va undan ortiq foizini tasarruf etish huquqini oladi;

2. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini olishga nisbatan, agar bunday shaxs yoki shaxslar guruhi ushbu olishga qadar mazkur aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning kamida o'ttiz besh foizini va ko'pi bilan ellik foizini tasarruf etgan bo'lsa, bunda ana shu shaxs yoki shaxslar guruhi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning ellik foizidan ortig'ini tasarruf etish huquqini oladi;

3. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini olishga nisbatan, agar bunday shaxs yoki shaxslar guruhi ushbu olishga qadar mazkur aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning kamida ellik foizini va ko'pi bilan yetmish besh foizini tasarruf etgan bo'lsa, bunda ana shu shaxs yoki shaxslar guruhi aksiyalarning yetmish besh foizidan ortig'ini tasarruf etish huquqini oladi.

Xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi ulushlarni olishda quyidagi holatlarda oldindan rozilik olish lozim, jumladan:

1. mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushning ko'pi bilan ellik foizini tasarruf etuvchi shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan ushbu jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni olishiga nisbatan, bunda ana shu shaxs yoki shaxslar guruhi mazkur ulushlarning ellik foizidan ortig'ini tasarruf etish huquqini oladi;

2. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olishga nisbatan, agar bunday shaxs yoki shaxslar guruhi ushbu

olishga qadar ushbu jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarning kamida ellik foizini va ko'pi bilan uchdan ikki qismini tasarruf etgan bo'lsa, bunda ana shu shaxs yoki shaxslar guruhi ushbu ulushlarning uchdan ikki qismidan ortig'ini tasarruf etish huquqini oladi;

Shu bilan birgalikda jamiyatlarining ustav fondidagi aksiya (ulushlar)ni olishda quyidagi holatlarda oldindan rozilik olish talablari tatbiq etilmaydi:

- Xo'jalik yurituvchi subyektini tashkil etishda uning muassislariga, bundan moliya-sanoat guruhlarini, xolding kompaniyalarini tashkil etish hollari mustasno;
- Xo'jalik yurituvchi subyekt o'z aksiyalarini olganda;
- Aksiyadorlik jamiyati o'z ustav fondining (ustav kapitalining) miqdorini saqlab qolgan holda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirilganda;
- Ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalar (ulushlar) ishonchli boshqaruvga berilganda, shuningdek aksiyalar (ulushlar) keyinchalik qayta sotish maqsadida investitsiya vositachilari tomonidan olinganda;
- Ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalar (ulushlar) xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq olinganda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishga doir bitimlarni ko'rib chiqish hamda bunday bitimlarni tuzish uchun oldindan rozilik olish tartibi 2013-yil 20-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 230-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilab berilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalari (ulushlarini) yoki boshqa mulkiy huquqlarini olish bo'yicha bitimlarni amalga oshirishda investor yoki uning ishonchli shaxsi ushbu bitimlar tuzilgungacha aksiyalarni (ulushlarni) olayotganda monopoliyaga qarshi organga:

- bitim tuzishga oldindan rozilik berish to'g'risidagi arizani;
- jismoniy shaxs uchun – pasporti nusxasini (hujjatning seriyasi va raqami, berilgan sanasi va joyi, hujjatni bergan organ ko'rsatiladi);

– ariza berilgan kundan oldingi ikki yil mobaynida yoxud agar faoliyat ikki yildan kamroq muddatni tashkil etsa, ariza beruvchi tomonidan faoliyat amalga oshirilgan muddat mobaynida olib borilgan faoliyat turlari, ishlab chiqargan va realizatsiya qilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlarining nomlari hamda ularning hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

– oldingi ikki kalendar yilga doir moliya (1- va 2-shakl) va statistika hisobotini;

– shaxslar guruhining tarkibi to‘g‘risidagi, bu shaxslarning ushbu guruhga kirishning asoslari ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalar (ulushlar) yoki boshqa mulkiy huquqlarni olish bo‘yicha bitimlarni tuzishga oldindan rozilik berish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun monopoliyaga qarshi organ bitimlarni tuzishda investor tomonidan qabul qilingan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektning kelgusida rivojlantirishning biznes-rejasini so‘rab olishi mumkin.

Monopoliyaga qarshi organning oldindan rozilik berish yoki rozilik berishni rad etish haqidagi qarori o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra davlat organi hujjati hisoblanadi. Shuning uchun mazkur qaror ustidan manfaatdor shaxslar tomonidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

8.4. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish monopoliyaga qarshi chora sifatida

Monopoliyaga qarshi organ tomonidan nazoratni amalga oshirish shakllaridan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarishdir.

“Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish yuzasidan ilgari qo‘llanilgan choralar samarasiz bo‘lgan taqdirda, monopoliyaga qarshi organ xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish haqidagi da‘vo bilan sudga murojaat etadi, bo‘lish yoki ajratib chiqarish xo‘jalik yurituvchi subyekt negizida ikki yoxud bir nechta alohida xo‘jalik yurituvchi subyektning tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

O‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish ta‘sir chorasi va raqobat qonunchiligi buzilishini oldini olishga qaratilgan mas‘uliyatning muayyan darajasi hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish umuman olganda yuridik shaxsni qayta tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasida yuridik shaxsni qayta tashkil etish tartibi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta‘sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxsni bo‘lish yoki uning tarkibidan bir yoxud bir necha yuridik shaxsni ajratib chiqarish shaklida uni qayta tashkil etish vakil qilingan davlat organlarining qarori bilan yoxud sud qarori bilan amalga oshiriladi.

Raqobat qonunchiligida xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish quyidagi shartlarning barchasi jam bo‘lganda amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan:

– bo‘linayotgan yoki ajratib chiqarilayotgan tarkibiy bo‘linmalarning tashkiliy va hududiy jihatdan ajralib chiqish imkoniyati mavjud bo‘lganda;

– uning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida o‘zaro uzviy texnologik bog‘lanish mavjud bo‘lmaganda;

– bo‘lish yoki ajratib chiqarish natijasida tashkil topgan tarkibiy bo‘linmalarning tovar yoki moliya bozorida mustaqil faoliyat ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘lganda.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish 2013-yil 20-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 230-son qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish masalalarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni bo‘lish deyilganda bo‘linayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt negizida, uning faoliyatini to‘xtatgan hamda uning huquqlari va vazifalarini yangidan tashkil etilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga bergan holda, bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish tushuniladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni ajratib chiqarish deyilganda, uning faoliyatini to‘xtatmagan holda, uning huquqlari va majburiyatlarining bir qismini ularga berish bilan bir yoki bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish tushuniladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish xo‘jalik sudi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish haqida sudga murojaat qilishdan oldin monopoliyaga qarshi organ xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini tegishli tarzda o'rganib chiqadi va qaror qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- Xo'jalik yurituvchi subyektni bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil etgan holda bo'lish;
- Xo'jalik yurituvchi subyektni tarkibidan alohida tarkibiy bo'linmalarni (birliklarni) ajratib chiqarish va ularning negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish;
- Raqobar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq shaxslar guruhini tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlari yoki ulushlarini sotish.

Xo'jalik yurituvchi subyektni bo'lish yoki ajratib chiqarish imkoniyatini va maqsadga muvofiqligini o'rganish natijalariga ko'ra, majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish to'g'risida qarorlar qabul qilish uchun quyidagi tadbirlar kompleksi amalga oshiriladi:

– xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarishning ijobiy va salbiy oqibatlarini qiyosiy baholash;

– xo'jalik yurituvchi subyektni bo'lish yoki ajratib chiqarishning uni bo'lish yoki ajratib chiqarish shaklini belgilovchi loyihani ishlab chiqish, bunda uning negizida, buning uchun zarur sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda, mustaqil yuridik shaxslar sifatida tashkil etiladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelgusida faoliyat ko'rsatishi hisobga olinadi;

– tashkil etiladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy tuzilmasi sxemasini ishlab chiqish;

– majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Xo'jalik yurituvchi subyektni bo'lish yoki ajratib chiqarish muhim xususiyatlaridan biri shundaki, xo'jalik sudining xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish to'g'risidagi qarori sud belgilagan muddatlarda bajarilmagan taqdirda xo'jalik sudi

monopoliyaga qarshi organ da'vosi bo'yicha, qonunda belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyektni bo'lish yoki ajratib chiqarishni amalga oshirish bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvchisini tayinlaydi.

Sud qarori bilan tayinlangan xo'jalik yurituvchi subyektni boshqaruvchi sud qarorida va monopoliyaga qarshi organ qarorida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshiradi.

Boshqaruvchi tayinlangandan keyin uch kun mobaynida xo'jalik yurituvchi subyektni boshqarish organlari unga ro'yxat bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni, shuningdek korxonaning muhri, shtampi va boshqa mol-mulkini taqdim etishlari shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektni bo'lish yoki ajratib chiqarishda sud boshqaruvchisining tayinlanishi huquqiy oqibatlaridan biri xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvchisi tayinlangan vaqtdan boshlab sud qarori bilan belgilangan muddatgacha xo'jalik yurituvchi subyektning barcha boshqaruv organlari vakolatlari to'xtatib qo'yiladi va sud qarori bilan tayinlangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruvchisiga o'tadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni bo'lish yoki ajratib chiqarish natijasidagi bo'lish balansining sud tomonidan tasdiqlanishi yangidan paydo bo'layotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiy konsentratsiyaning alomatlari nimalardan iborat?
2. Bir (bir guruh) xo'jalik subyekti tomonidan boshqa xo'jalik subyektidan asosiy ishlab chiqariladigan moddalar yoki nomoddiy aktivlarni olish, foydalanish, egalik qilishni nazorat qilishning ahamiyati nimada?
3. Moliyaviy xizmatlar bozorida kapital konsentratsiyasining davlat tomonidan nazorat qilinishining zarurati nimada?

1-kazus

Virgin orollarida ro'yxatdan o'tgan "Fieriya ltd." Mas'uliyati cheklangan jamiyat Kipr Respublikasida ro'yxatdan o'tgan "Terra plus inc." AJning O'zbekiston Respublikasiga yiliga 1,2 mlrd so'mlik ofis kompyuterlarini yetkazib berish huquqini beruvchi 80 foiz aksiyalarini sotib olishga qaror qildi. "Fieriya ltd. "Kompaniyasi va uning guruhining ustav kapitali 3 mlrd so'mni tashkil qiladi. "Terra plus inc." Kompaniyasi va uning guruhining ustav kapitali 2,5 mlrd so'mni tashkil qiladi.

Holatga huquqiy baho bering.

Bu holatda aksiyalarni olish ishida O'zbekiston monopoliyaga qarshi kurash qo'mitasining roziligi talab etiladimi.

Iqtisodiy konsentratsiyaning qanday turdagi bitimlariga nisbatan antimonopol nazorat tatbiq qilinadi?

2-kazus

Buyuk Britaniya qonunchiligi asosida tashkil qilingan "Star inc." AJ Kipr Respublikasi qonunchiligi bilan tashkil qilingan "Gold inc." AJga tegishli 55 foiz aksiyalarni sotib olmoqchi bo'ldi.

"Gold inc." AJ O'zbekiston Respublikasidagi muayyan tovarlar bozorida 35 foiz hissaga ega bo'lgan "Elevator" AJning 75 foiz aksiyalariga egalik qiladi.

Iqtisodiy konsentratsiyaning qanday turdagi bitimlari monopoliyaga qarshi kurash qo'mitasining oldindan ruxsat berishini talab etadi.

Mazkur holat yuzasidan oldindan ruxsat olish talab etiladimi.

IX BOB. MONOPOLIYAGA QARSHI VA TABIIY MONOPOLIYANI NAZORAT QILUVCHI ORGANING RAQOBAT QONUNCHILIGINI BUZGANLIK BILAN BOG'LIQ ISHLARNI QO'ZG'ASHI VA KO'RIB CHIQISHI

9.1. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqishga doir huquqiy asoslar

O'zbekiston qonunchiligida tovar va moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar, jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir alohida normalar mavjud bo'lib, ular tartibga solinadigan munosabatlarning keng qamrovligi va rang-barangligi bilan boshqa huquqiy normalardan ajralib turadi.

Raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq ishlarni sudlar va boshqa organlar tomonidan ko'rib chiqishga doir masalalar O'zR FPK, O'zR XPK, O'zR MJTK, shuningdek, 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, 1998-yil 25-dekabrda "Reklama to'g'risida"gi, 1999-yil 19-avgustdagi "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi (yangi tahriri), 2012-yil 20-dekabrda "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunlarda o'z aksini topgan. 1991–2012-yillarda raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar yuqoridagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu sohadagi muhim hujjat 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi.

Raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishga oid qonunosti normativ hujjatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalar ga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5016-son Farmoni;

– 2012-yil 13-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4483-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni;

– 2005-yil 12-oktabrda "Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi 225-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori;

– 2012-yil 14-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 322-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori;

- 2012-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 374-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori;

- 2013-yil 15-avgustda "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 225-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori

- 2013-yil 20-avgustda "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 230-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori;

2013-yil 27-dekabrda "Monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 344-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori.

Raqobatni huquqiy tartibga solishda xorij tajribasiga nazar solsak, MDH davlatlarida ushbu sohadagi milliy qonunlarning maqsadi va vazifalar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, turlicha nomlanishi mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida 2006-yil 26-iyulda "Raqobatni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun¹, Belarus Respublikasida 2013-yil 12-dekabrda "Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish to'g'risida"gi Qonun² qabul qilingan.

Yevropa Ittifoqi doirasida 2007-yil 13-dekabrda qabul qilingan Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnoma (Treaty on the functioning of the European Union)³ a'zo davlatlar o'rtasida bojxona siyosati, ichki bozor faoliyatini ta'minlashda raqobat qoidalarini belgilash, valyutasi yevro hisoblangan davlatlarning pul-kredit siyosatini belgilash, baliqchilik sohasida dengiz biologik resurslarni saqlashda umumiy siyosatni amalga oshirish, umumiy savdo siyosatiga tadbir etiladi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar tomonidan raqobat sohasida alohida ichki hujjatlar ham qabul qilingan bo'lib, ularda yuqoridagi shartnomaga havolalar keltiriladi. Masalan, Shvetsiya Raqobat aktining 3-moddasida Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnoma amalda bo'lishi, 4-moddasida raqobat bilan bog'liq ayrim nizolar Yevropa Ittifoqining tegishli organlarida ko'rib chiqilishi belgilangan⁴.

1985-yilda qabul qilingan (2015-yil 9-martda so'nggi marta o'zgartirish kiritilgan) Kanada Raqobat aktining maqsadi davlat iqtisodiyotida raqobatni saqlash va kengaytirish, shu orqali dunyo bozorida faol qatnashishdan iborat⁵. 2002-yilda qabul qilingan Hindiston Raqobat aktida raqobatni huquqiy tartibga solish masalasi keng yoritilgan⁶.

¹ http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61763/

² <http://www.wipo.int/wipolex/ru/details.jsp?id=14969>

³ http://eur-lex.europa.eu/resource.html?uri=cellar:41f89a28-1fc6-4c92-b1c8-03327d1b1ecc.0007.02/DOC_1&for mat =PDF

⁴ <http://www.konkurrensverket.se/globalassets/english/competition/the-swedish-competition-act.pdf>

⁵ <http://laws.justice.gc.ca/PDF/C-34.pdf>


⁶ http://www.cci.gov.in/sites/default/files/cci_pdf/competitionact2012.pdf

9.2. Raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishda monopoliyaga qarshi organning vakolatlari va uning roli

Raqobat qonunchiligi sud himoyasi bilan bir qatorda tovar va moliya bozorida ommaviy tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlar huquqlarini himoya qilishda monopoliyaga qarshi organning vakolatlarini ham belgilaydi. Raqobat to'g'risidagi Qonunning 9-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari monopoliyaga qarshi organ hisoblanib, tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi vakolatli organdir.

“O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risida”gi Nizomda (Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda 374-son qaroriga ilova) O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi qisqacha Davlat raqobat qo'mitasi deb ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida”gi PF-5016-son Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etildi, xususiylashtirilgan korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tiklash va samaradorligini oshirishni har tomonlama keng qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydigan yangi ish o'rinlarini yaratish, ushbu maqsadlarda vakolatli davlat organlari, moliya hamda boshqa bozor tuzilmalarining Savdo-sanoat palatasi hamda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan mustahkam hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining g'oyat muhim vazifasi deb belgilandi.



Monopoliyaga qarshi organ tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatga qarshi harakatlarini, insofsiz raqobatini cheklash va ularning oldini olishga hamda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining g'ayriqonuniy harakatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan davlat siyosatini amalga oshiradi.

Raqobat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish funksiyasi raqobat qonunchiligini buzish to'g'risidagi ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishda Raqobat qo'mitasi vakolatlarini belgilash, ijro etuvchi organlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilish, tegishli buyruqlar chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida monopoliyaga qarshi organning raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishda bir qator vakolatlari keltirilgan. Jumladan, monopoliyaga qarshi organ:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishlarini aniqlaydi, ular bo'yicha ishlar qo'zg'atadi va ularni ko'rib chiqadi;

- raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ish yuzasidan, shu jumladan xo'jalik yurituvchi subyektlardan raqobatga qarshi harakatlar natijasida asossiz ravishda olingan daromadni (foydani) olib qo'yish va jarima solish haqida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaror qabul qiladi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlarga, davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

– raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, davlat boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, ularning mansabdor shaxslarini va boshqa jismoniy shaxslarni tegishli javobgarlikka tortadi;

– raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi bilan bog‘liq jinoyat alomatlarini bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal qilish uchun materiallarni tegishli organlarga yuboradi;

– raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qo‘llanilishi va buzilishi bilan bog‘liq ishlarning sudda ko‘rib chiqilishida ishtirok etadi;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishlar o‘tkazadi;

– raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining reyestrini yuritadi va e‘lon qiladi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ularning mansabdor shaxslari monopoliyaga qarshi organning talabiga ko‘ra unga zarur hujjatlarni va axborotni belgilangan tartibda tekin taqdim etishi shart. Monopoliyaga qarshi organning mansabdor shaxslari raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi haqidagi arizalar va ishlarni ko‘rib chiqish, shuningdek raqobatning holatini aniqlash uchun belgilangan tartibda xo‘jalik yurituvchi subyektning hujjatlarini, axborotini olish va uning hududiga kirish huquqiga ega.

Monopoliyaga qarshi organ o‘ziga berilgan vakolatlarni amalga oshirishi munosabati bilan ma‘lum bo‘lib qolgan tijorat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Monopoliyaga qarshi organning xodimlari tijorat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarning oshkor etilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektga yetkazilgan zararining o‘rmi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi kerak.

Bundan tashqari, monopoliyaga qarshi organ ayrim quyidagi masalalar bo'yicha ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega:

- Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga butunlay yoki qisman muvofiq bo'lmagan hujjatlarini va harakatlarini haqiqiy emas deb topish;
- Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan bitimlarni (shartnomalarni) o'zgartirish yoki bekor qilish;
- Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan bitimlarni (shartnomalarni) butunlay yoki qisman haqiqiy emas deb topish;
- Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi natijasida olingan daromadni (foydani) belgilangan tartibda undirish;
- Savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni va mazkur savdolar natijasida tuzilgan bitimlarni haqiqiy emasd deb topish;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish;
- Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini ko'rish.

O'z ustavlariga muvofiq raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish va iste'molchilarning manfaatlarini raqobatga qarshi harakatlardan himoya qilish maqsadiga ega bo'lgan jamoat birlashmalari raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

MDH davlatlarida ham raqobat qonunchiligi buzilishiga oid ishlarni tegishli organlar qo'zg'aydi va ko'rib chiqadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida Federal antimonopol xizmati¹, Belarus Respublikasida Antimonopoliyani tartibga solish va savdo vazirligi ishlarni qo'zg'aydi va komissiya tashkil etib ko'rib chiqadi².

Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnomaga asosan, a'zo davlatlar yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan raqobat qonunchiligi buzilgan taqdirda Yevropa komissiyasiga bo'ysunuvchi Raqobat Bosh direktorati tashkil qilingan bo'lib, u o'z faoliyatini Bryusselda olib boradi. Komissiya qarori ustida Lyuksemburdagi Umumiy sudga murojaat qilish mumkin³.

¹ http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61763/

² <http://www.wipo.int/wipolex/ru/details.jsp?id=14969>

³ <https://www.slaughterandmay.com/media/64569/an-overview-of-the-eu-competition-rules.pdf>

Kanada Raqobat aktining 7-qismida har bir shtat gubernatori raqobat bo'yicha Komissarni tayinlaydi va u ushbu akt bajarilishini ta'minlaydi¹. Hindiston Raqobat aktida Hukumat tomonidan Raqobat komissiyasi tashkil etilishi va uning tarkibiga iqtisod, huquq, savdo, sanoat sohasida bilimga ega bo'lgan, kamida o'n besh yil ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar kiritilishi mumkinligi belgilangan².

9.3. Monopoliyaga qarshi organ tomonidan raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni qo'zg'ash

Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish monopoliyaga qarshi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni monopoliyaga qarshi organ tomonidan qo'zg'ash va ko'rib chiqishga doir huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 225-son qarori

Qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi ish jismoniy shaxsga, xo'jalik yurituvchi subyektga, davlat boshqaruvi organiga va mahalliy davlat hokimiyati organiga nisbatan ular joylashgan joy bo'yicha tegishli monopoliyaga qarshi organ tomonidan qo'zg'atiladi.

Davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslari tomonidan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi haqidagi ishlarni monopoliyaga qarshi organ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ko'rib chiqadi.

¹ http://www.cci.gov.in/sites/default/files/cci_pdf/competitionact2012.pdf

² <http://laws.justice.gc.ca/PDF/C-34.pdf>



Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish uchun monopoliyaga qarshi organning o'z tekshiruvlari, o'rganishlari, yuridik va jismoniy shaxslarning, davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining arizalari hamda ommaviy axborot vositalaridagi huquq buzilishi belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar mavjud bo'lgan xabarlar (keyingi o'rinlarda matnda "ariza" deb yuritiladi) asos bo'ladi.

Ariza monopoliyaga qarshi organga qonun hujjatlari buzilganligi holatlari (belgilari)dan dalolat beruvchi hujjatlar ilova qilingan holda yozma shaklda beriladi.

Arizada ariza beruvchi va unga nisbatan ariza berilgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi, qonun hujjatlari buzilishi holatlari (belgilari) tavsiflanishi zarur.

Monopoliyaga qarshi organ berilgan arizani oldindan ko'rib chiqadi va ariza bilan birga berilgan hujjatlar va materiallarni o'rganadi.

Monopoliyaga qarshi organ arizani oldindan ko'rib chiqishda hamda boshqa hujjatlar va materiallarni o'rganishda:

- Mazkur masalani hal etish bo'yicha monopoliyaga qarshi organning vakolatini aniqlaydi;
- Qonun hujjatlari buzilishi belgilari mavjudligini aniqlaydi;
- Ishda ishtirok etish uchun jalb etilishi kerak bo'lgan shaxslar doirasini aniqlaydi;
- Ishni to'g'ri va har tomonlama ko'rib chiqilishi uchun zarur bo'lgan boshqa masalalarni hal etadi.

Monopoliyaga qarshi organ ariza va materiallarni oldindan ko'rib chiqish davomida:

– xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlaridan va fuqarolardan tanishish uchun zarur materiallar va hujjatlarni so'rab olishga, ulardan nusxa ko'chirishga hamda ularni ish materiallariga qo'shib qo'yishga;

– ariza beruvchi, shuningdek jismoniy shaxs ularga nisbatan ariza berilgan xo'jalik yurituvchi subyekt, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari bilan suhbat o'tkazishga;

– ariza beruvchidan va ularga nisbatan ariza berilgan shaxslardan ariza bilan murojaat qilishga sabab bo'lgan holatlar (belgilar) bo'yicha yozma yoki og'zaki tushuntirishlar olishga;

– har tomonlama to'liq va xolisona ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa chora-tadbirlarni ko'rishga, arizani oldindan ko'rib chiqish materiallari bo'yicha xulosalar va tushuntirishlar berish uchun vakolatli ekspertlar yoki mutaxassislarni jalb etish haqlidir.


Qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun monopoliyaga qarshi organda qonun hujjatlari buzilganligini ko'rib chiqish bo'yicha monopoliyaga qarshi organning mas'ul xodimlaridan iborat maxsus komissiyalar (keyingi o'rinlarda "komissiya" deb yuritiladi) tashkil etiladi. Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligi kafolatlarini ta'minlash sohasidagi boshqa davlat boshqaruv organlarining hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiritilishi mumkin.

Arizani oldindan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha, taqdim etilgan materiallar asosida komissiya raisi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida ish qo'zg'ash yoki murojaatda ko'rsatilgan masalalar, monopoliyaga qarshi organning vakolatiga tegishli emasligi yoxud qonun buzilganligi belgilari yo'qligi munosabati bilan ish qo'zg'ash rad etilishi to'g'risidagi masalani hal qiladi.

Qonun hujjatlari buzilganligi holati (belgisi) bo'yicha ish qo'zg'ash yoki ish qo'zg'ash rad etilishi to'g'risida komissiya raisi tomonidan ajrim chiqariladi.

9.4. Monopoliyaga qarshi organ tomonidan raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni ko'rib chiqish tartibi

Ajrim topshirilganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan birgalikda buyurtmali xat bilan ishni ko'rib chiqishda ishtirok etuvchilarga yuboriladi. Ishni ko'rib chiqish bo'yicha qatnashchilarga ajrim, shuningdek tilxat ostida monopoliyaga qarshi organda yoki ular joylashgan joy bo'yicha topshirilishi mumkin. Zaruriyat bo'lganda qonun hujjatlari buzilganligi holati (belgisi) bo'yicha ish qo'zg'ash to'g'risidagi ajrim faksimil aloqa, elektron pochta orqali yoki ajrim yuborilganing uni olganligi holatini qayd etish imkonini beradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilishi mumkin.



Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish qo'zg'atish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ish materiallari bilan tanishib chiqishga, bundan davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar mustasno, ulardan ko'chirmalar olishga, og'zaki va yozma tushuntirishlar berishga, dalillar taqdim etishga va ularning tekshirilishida ishtirok etishga, ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga savollar berishga, iltimosnomalar kiritishga hamda ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning iltimosnomalari va vajlariga qarshi e'tirozlar bildirishga haqli.

Ishni komissiya majlisida ko'rib chiqish rais tomonidan ishning holatlari eng to'liq va har tomonlama o'rganilishi va unga baho berilishini ta'minlaydigan, qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etadigan va uning oldini oladigan, qonun hujjatlari buzilishi to'g'risida unga nisbatan ish olib borilayotgan shaxslar, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarning huquq va manfaatlari ta'minlanadigan tarzda olib boriladi.

Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ish qo'zg'atilgan kundan e'tiboran bir oylik muddat ichida ko'rib chiqiladi. Alohida hollarda ishning murakkabligiga qarab, mazkur muddat ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin.

Ishning ko'rib chiqilishi vaqti va joyi to'g'risida ularga nisbatan ish qo'zg'atilgan jismoniy shaxslar xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ishda qatnashish uchun jalb etiladigan boshqa shaxslar xabardor qilinadi.

Ishni ko'rib chiqish komissiya tarkibini e'lon qilishdan boshlanadi. Komissiya majlisida raislik qiluvchi qanday ish ko'rib chiqilishi kerakligini e'lon qiladi va unga nisbatan ish ko'rilayotgan shaxsning nomini aytadi.

Ishni ko'rib chiqish qatnashchilariga ularning huquqlari tushuntiriladi.

Ishni ko'rib chiqishda komissiya ish bo'yicha dalillarni bevosita o'rganadi, shu jumladan:

– ishni ko'rib chiqish bo'yicha qatnashchilarning tushuntirishlarini, mutaxassislarning va boshqa manfaatdor shaxslarning xulosalarini, guvohlarning ko'rsatmalarini eshitadi;

– yozma dalillar bilan tanishadi va ularni e'lon qiladi.

Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishni ko'rib chiqish keyinga qoldirilishi yoki to'xtatib turilishi mumkin. Ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirish, to'xtatib turish va tiklash to'g'risida monopoliyaga qarshi organ tegishli ajrim chiqaradi, mazkur ajrimning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.

Ishni ko'rib chiqish quyidagi hollarda komissiyaning navbatdagi majlisi sanasi va vaqti ko'rsatilgan holda komissiya tomonidan kechiktirilishi mumkin:

- *Vakilning majlisda qatnasha olnasligi sababi ishni ko'rib chiqish kechiktirilishi to'g'risida subyektning asoslangan iltimosnomasi munosabati bilan;*
 - *Subyektning qonun hujjatlari buzilishini ko'rsatmasiz ixtiyoriy ravishda bartaraf etish to'g'risidagi iltimosnomasi munosabati bilan;*
 - *Qo'shimcha dalillar olish zaruriyati munosabati bilan;*
 - *Ishni ko'rib chiqish qatnashchilaridan birortasining hozir bo'lmaganligi yoki tomoming vakilida ishonchnoma yo'qligi munosabati bilan;*
 - *Komissiya fikriga ko'ra ishni ko'rib chiqishga ekspertlarni jalb etish yoki boshqa shaxslarning ishtiroki alhatta zarurligi munosabati bilan;*
 - *Ishni ushbu majlisda hal etish mumkin bo'lmaganda.*
-

Ishni ko'rib chiqish quyidagi hollarda to'xtatilishi mumkin:

Sudda xulosalari ishni ko'rib chiqish natijalari uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ish ko'rilayotganda;

Ekspertizadan o'tkazish yoki tegishli ekspertning yoki mutaxassisning xulosasi zarur bo'lganda;

Materiallarni qo'shimcha o'rganish va so'rash talab qilinadigan holatlar vujudga kelganda.

Ishni ko'rib chiqish uni to'xtatishga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgandan keyin davom ettiriladi.

Ishni ko'rib chiqish komissiya tomonidan quyidagi hollarda to'liq yoki qismlari bo'yicha tugatilishi mumkin:

- *Qonun hujjatlari buzilishi holatlari tasdiqlanmaganda;*
- *Qonun hujjatlari buzilishi to'g'risida unga nisbatan ish qo'zg'atilgan xo'jalik yurituvchi subyekt tugatilganda yoki jismoniy shaxs vafot etganda;*
- *Unga nisbatan ish qo'zg'atilgan xo'jalik yurituvchi subyekt va jismoniy shaxs vafot etganda;*

Monopoliyaga qarshi organ tomonidan ko'rib chiqilayotgan qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ish bo'yicha sud tomonidan qaror qabul qilinganda

Ishni ko'rib chiqishni kechiktirish, to'xtatib turish, qayta tiklash va tugatish to'g'risida ajrim chiqariladi, u komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi, uning nusxasi ishni ko'rib chiqish qatnashchilariga jo'natiladi.

Komissiya raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishni mohiyatan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha:

- Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilganligi fakti aniqlashi va tegishli huquqiy ta'sir choralarini ko'rilishi haqida;
- Ish yuritishni tugatish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiya tomonidan qaror ko'rib chiqalayotgan masala bo'yicha taklif etilgan shaxslar ishtirokisiz, ochiq ovoz berish orqali ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda komissiya raisi ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Komissiya raisi va a'zolari ovoz berishda betaraf qolish huquqiga ega emaslar. Komissiya raisi eng oxirida ovoz beradi.

Agar komissiya raisi yoki a'zosi qarorga rozi bo'lmasa, u uni imzolashi shart va o'zining alohida fikrini bayon qilishga haqlidir, uning fikri ishga qo'shib qo'yiladi.

Qaror komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

Komissiyaning qarorning xulosa qismi ma'lum qilingan majlisi o'tkazilgan sana qarorning qabul qilingan sanasi hisoblanadi.

Komissiya majlisida protokol yuritiladi, u komissiya a'zolarining bittasi tomonidan yoki komissiya raisi protokolni tuzish uchun maxsus jalb etgan monopoliyaga qarshi organ mutaxassisi tomonidan tuziladi.

Komissiya majlisi protokolida quyidagilar ko'rsatiladi:

- *ishni ko'rib chiqayotgan monopoliyaga qarshi organing nomi;*
 - *ishning nomi va tartib raqami;*
 - *majlisning o'tkazilgan-yili, oyi, kuni va joyi;*
 - *komissiya tarkibi;*
 - *ishni ko'rib chiqish qatnashchilarining hozir bo'lganligi va ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar tekshirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *ishni ko'rib chiqish qatnashchilarining og'zaki iltimosnomalari;*
 - *ishni ko'rib chiqish qatnashchilarining ishda qatnashayotgan boshqa shaxslarning iltimosnomalari va dalillariga qarshi e'tirozlari;*
 - *ishni ko'rib chiqish qatnashchilarining tushuntirishnomalari, mutaxassislarning yozma izohlarini e'lon qilish to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *guvohlarning ko'rsatmalari;*
 - *komissiya qabul qilgan qaror;*
 - *boshqa ma'lumotlar.*
-

Majlis protokoli komissiya raisi, a'zolari va komissiya majlisi kotibi tomonidan imzolanadi.

Monopoliyaga qarshi organning raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ish yuzasidan qarori darhol e'lon qilinishi lozim.

Monopoliyaga qarshi organning raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ish yuzasidan qaroriga asosan, o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxsga ko'rsatma beriladi.

Monopoliyaga qarshi organning ko'rsatmasi unda belgilangan muddatda ijro etilishi lozim. Ko'rsatmani muddatida ijro etmaganlik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Monopoliyaga qarshi organning ko'rsatmasini unda belgilangan muddatda ijro etmaganlik deganda ko'rsatmani ijro etishni rad qilish yoki qisman ijro etish yoxud o'z vaqtida ijro etmaslik tushuniladi.

Ko'rsatma quyidagi hollarda qisman bajarilmagan hisoblanadi:

– ko'rsatmaga muvofiq bartaraf etilishi kerak bo'lgan barcha qonun hujjatlari buzilishlari bartaraf etilmaganda;

– ko'rsatmada nazarda tutilgan barcha jismoniy shaxslarga yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarga yoxud boshqaruv organlariga nisbatan qonun hujjatlari buzilishi bartaraf etilmaganda.

Ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortish yoki bajarmaslik deganda, subyekt ko'rsatmani bajarishdan bosh tortishi yoki qisman bajarmasligi yoxud ko'rsatmani o'z vaqtida bajarmasligi tushuniladi.

Ko'rsatmalar o'z vaqtida bajarilmagan deganda ko'rsatmaning unda ko'rsatilgan muddatni buzgan holda bajarilishi tushuniladi.

Monopoliyaga qarshi organ tomonidan ko'rsatma berilgan shaxslar ko'rsatmani ijro etish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma berishi mumkin. Iltimosnomada ko'rsatilgan holat uzrli deb topilgan taqdirda, monopoliyaga qarshi organ ko'rsatmani ijro etish muddatini uzaytirishga haqli.

Ko'rsatilgan muddatni uzaytirish to'g'risidagi qaror qonun hujjatlari buzilishlarini ko'rib chiqish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

Iltimosnomada ko'rsatilgan holatlar komissiya tomonidan sababli deb e'tirof etilgan taqdirda komissiya ko'rsatmaning bajarish muddatini uzaytirish, lekin ko'pi bilan uch oyga uzaytirish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Monopoliyaga qarshi organ o'z ko'rsatmalari ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Komissiya ajrimni alohida hujjat tarzida chiqaradi.

Ajrimda quyidagilar bo'lishi kerak:

- *monopoliyaga qarshi organning to'liq nomi, ishning tartib raqami, ajrim chiqarilgan sana, komissiya tarkibi, ko'rib chiqish predmeti;*
 - *ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs (shaxslar) to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *ajrim chiqariladigan masala;*
 - *komissiyaning qonun hujjatlariga asoslangan holda o'z xulosasini chiqarishiga asos bo'lgan sabablar;*
 - *ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha xulosa.*
-

Komissiya qarorida quyidagilar bo'lishi kerak:

- *qaror qabul qilgan monopoliyaga qarshi organning nomi, komissiya tarkibi, ishning tartib raqami, qarorning qabul qilingan sanasi va joyi, ishni ko'rib chiqish predmeti, ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs to'g'risidagi, shuningdek ishni ko'rib chiqishning boshqa qatnashchilari to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *ishni ko'rib chiqishda aniqlangan holatlarning, komissiyaning ushbu holatlar to'g'risidagi xulosalariga asos bo'lgan dalillarning, sodir etilgan qonun hujjatlari buzilganligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonunchilikka asoslanishning bayoni;*
 - *qonun hujjatlari buzilganligi fakti aniqlangani to'g'risidagi xulosa, mazkur qonun buzilishi uchun nazar tutilgan moliyaviy sanksiyalar miqdori, moliyaviy sanksiyalarni ixtiyoriy ravishda to'lash muddati va tartibi to'g'risidagi tushuntirish;*
 - *ko'rsatma berish to'g'risidagi xulosa;*
 - *qaror yuzasidan shikoyat bildirish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *boshqa ma'lumotlar.*
-

Komissiya qarorida quyidagilar bo'lishi kerak:

- *qaror qabul qilgan monopoliyaga qarshi organning nomi, komissiya tarkibi, ishning tartib raqami, qarorning qabul qilingan sanasi va joyi, ishni ko'rib chiqish predmeti, ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs to'g'risidagi, shuningdek ishni ko'rib chiqishning boshqa qatnashchilari to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *ishni ko'rib chiqishda aniqlangan holatlarning, komissiyaning ushbu holatlar to'g'risidagi xulosalariga asos bo'lgan dalillarning, sodir etilgan qonun hujjatlari buzilganligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonunchilikka asoslanishning bayoni;*
 - *qonun hujjatlari buzilganligi fakti aniqlangani to'g'risidagi xulosa, mazkur qonun buzilishi uchun nazar tutilgan moliyaviy sanksiyalar miqdori, moliyaviy sanksiyalarni ixtiyoriy ravishda to'lash muddati va tartibi to'g'risidagi tushuntirish;*
 - *ko'rsatma berish to'g'risidagi xulosa;*
 - *qaror yuzasidan shikoyat bildirish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar;*
 - *boshqa ma'lumotlar.*
-

Ko'rsatmada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

• *monopoliyaga qarshi organning to'liq nomi, ishning tartib raqami, ko'rsatma berilgan sana;*

• *ko'rsatma berilishiga asos bo'lgan qaror to'g'risidagi ma'lumotlar;*

• *o'ziga nisbatan ko'rsatma berilayotgan shaxsning nomi;*

• *shaxs tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan aniq xatti-harakatlar (to'xtatish, bartaraf etish, bundan keyin qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik, asossiz olingan daromadni iste'molchilarga qaytarish, daslabki holatni tiklash va boshqalar) hamda bajarish muddatlari;*

• *ko'rsatma yuzasidan shikoyat bildirish tartibi to'g'risida tushuntirish.*

Ajrimlar, qarorlar va ko'rsatmalar namunalari Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Moliyaviy sanksiya qo'llanishi nazarda tutilgan qonun hujjatlari buzilganligi fakti aniqlanganligi to'g'risida o'ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs monopoliyaga qarshi organ belgilagan muddat mobaynida qonun hujjatlarida belgilangan moliyaviy sanksiyalar summasini ixtiyoriy ravishda to'lashga haqlidir.

Moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda uning to'langanini tasdiqlovchi to'lov hujjati to'lov vaqtidan boshlab ikki ish kuni mobaynida monopoliyaga qarshi organga taqdim etilishi kerak.

Agar qonun hujjatlarini buzgan shaxs belgilangan muddat mobaynida o'zi sodir etgan qonun hujjatlari buzilgani uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyalar summasini ixtiyoriy ravishda to'lamasa monopoliyaga qarshi organ tegishli moliyaviy sanksiyalar belgilash to'g'risida sudga murojaat qiladi.

Agar raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ygan yuridik yoki jismoniy shaxs jarima solish to'g'risidagi qarorni darhol bajarish uning moliyaviy ahvolini yomonlashtirishi mumkinligini isbot qilsa, monopoliyaga qarshi organ ushbu shaxsga undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida jarimani kechiktirib yoki har oylik to'lovlar bilan bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berishga haqlidir;

Xo'jalik yurituvchi subyektning oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining jami 20 foizidan ortiq bo'lgan moliyaviy sanksiyalarni undirish undiriladigan summani to'lovchiga undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 6 oy mobaynida har oyda bo'lib-bo'lib to'lash imkonini bergan holda amalga oshiriladi.

Moliyaviy sanksiyalarni to'lash monopoliyaga qarshi organning qarorini yoki ko'rsatmasini bajarish yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish qatnashchilari monopoliyaga qarshi organning qarori (ko'rsatmasi)ga qo'shilmagan taqdirda qaror (ko'rsatma) qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda qaror (ko'rsatma)ni to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga yoki yoxud qaror (ko'rsatma)ni bekor qilish yoki o'zgartirish haqidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga murojaat qilishga haqlidir.

Ariza berilganligi monopoliyaga qarshi organning qarori (ko'rsatmasi) ijrosini ariza ko'rib chiqiladigan vaqt mobaynida to'xtatib turadi.

Nazariy uchun savollar:

1. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ishlarni ko'rishga doir huquqiy asoslarni yoritib bering.

2. Raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq ishlarni qo'zg'ash va ko'rib chiqishda monopoliyaga qarshi organning vakolatlari va roli nimalardan iborat?

3. Monopoliyaga qarshi organ tomonidan raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni qo'zg'ash tartibini tushuntiring.

4. Monopoliyaga qarshi organ tomonidan raqobat qonunchiligi buzilishiga doir ishlarni ko'rib chiqish tartibini yoritib bering.

1-kazus

Sotib olingan kompyuterda nuqsonlar borligi uchun firma tomonidan to'langan pul qaytarilmadi. Natijada Monopoliyaga qarshi organga murojaat qilindi. Monopoliyaga qarshi organ murojaatni belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun hududiy organga yubordi. Hududiy organ rahbari tomonidan buyruq chiqarilib, unda kompyuter uchun to'langan pul qaytarilishi va kompyuterni sotgan firmaga nisbatan moliyaviy jarima, uning rahbariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash lozimligi ta'kidlandi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

“Otaxon” xususiy korxonasi hududidan o'tgan sovuq suv quvuri yorildi, tuzatib berish uchun tegishli “Suvsoz”ga murojaat qilindi. “Suvsoz” xodimi 2 kun davomida yorilgan suv quvurlari o'rmiga yangisini qo'yib berdi va bajarilgan xizmat uchun 200 000 so'm to'lash kerakligini ta'kidladi. “Otaxon” xususiy korxonasi rahbari bu xizmat davlat hisobidan amalga oshirilishini, agar boshqa tashkilotga murojaat qilganda ham

xizmat haqi 100 000 dan oshmasligini bildirdi. “Suvsoz” xodimi suv quvurlari va kanalizatsiya xizmati tabiiy monopoliya hisoblanishini, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida narxlarni tartibga solish vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishini, narxni o‘zi belgilamaganini ta’kidladi. Shundan keyin korxonah rahbari aytilgan 200.000 so‘mni to‘ladi. 10 kundan keyin qo‘yilgan sovuq suv quvurlari yana yorildi, bajarilgan xizmatning belgilangan narxi 100 000 so‘m ekanligi aniqlandi. Ushbu holat yuzasidan “Otaxon” xususiy korxonasi rahbari monopoliyaga qarshi organga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

X BOB. RAQOBAT QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

10.1. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tushunchasi

Bozor iqtisodiyotini rivojlanishning beshta tamoyilidan biri bo'lgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Yildan yilga tadbirkorlik subyektlari soni ortib, ular tomonidan tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish kabi ish turlari kengayib bormoqda. Bu, o'z navbatida, rivojlangan bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan biri bo'lib, tovar bozorida raqobat muhitini qaror toptirishda so'z yuritilayotgan tamoyilni qaror toptirishning asosiy sharti hisoblanadi.


Ushbu sohada raqobat munosabatlarini tartibga solish mavjud normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar raqobat munosabati ishtirokchilarining xatti-harakatlarini yo'naltirish va huquqiy baholashdagi huquqiy ta'sir choralari o'zida mujassam etadi. Zero, munosabat ishtirokchilarining har qanday daromad topishga qaratilgan ijtimoiy holatga zid bo'lgan xatti-harakatlari tegishli qonun hujjatlarida belgilangan u yoki bu huquqiy ta'sir choralari qo'llash orqali tartibga solib turishni nazarda tutadi.

Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning xatti-harakatlariga nisbatan qonunlarda belgilangan huquqiy ta'sir choralari qo'llash – bu ularning faoliyatiga to'siq bo'lish emas, balki u bilan raqobatlashayotgan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ish muomalasi odatlariga dahil qilishning oldini olishdan iborat.

Raqobat munosabatlarini buzganlik uchun shaxsga huquqiy ta'sir chorasini qo'llash shaxs yoki shaxslar guruhining raqobatni cheklash va to'xtatish bilan bog'liq huquqqa xilof xatti-harakatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Huquqiy ta'sir chorasini raqobat qonunchiligini buzgan shaxsga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik chorasini qo'llashdan iborat.

Raqobat qonunchiligini buzganlik holati shaxsning atayin ongli ravishda tovar va moliya bozorida bir shaxsga yoki shaxslar guruhiga uning ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Mazkur xatti-harakatlarning boshqa huquqbuzarliklardan o'ziga xos farqli jihati shaxs raqobat qonunchiligini biron-bir shaxsga nisbatan qanday ijtimoiy xavf

keltirishini biladi hamda atayin ushbu insofsiz harakatlarini sodir etadi. Bunda huquqni buzgan shaxs yoki shaxslar guruhining qonunga zid harakatlari o'zining iqtisodiy daromad ko'rish imkoniyatini yanada kengaytirish yoki o'zi bilan raqobatlashayotgan shaxsning sindirish maqsadi ko'zlanadi. Insofsiz raqobat sifatida qaraladigan har qanday raqobat qonunchiligini buzganlik bilan bog'liq holatning obyektivi, subyektivi, obyektiv tomoni hamda subyektiv tomonlarini o'zida mujassam etgan bo'lishi talab etiladi.



Raqobat munosabatlari subyektivi deganda tadbirkorlik faoliyati sifatida tovar ishlab chiqaruvchi va moliya xizmatini ko'rsatuvchi, o'zaro bir-biriga raqobatdor bo'lgan shaxs yoki shaxslar guruhini tushunish mumkin.

Subyektiv tomon deganda tovar va moliya bozorida shaxsning yoki shaxslar guruhining o'ziga raqobatchi bo'lgan bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga ongli ravishda sodir etadigan, buning natijasida huquqiy oqibatni keltirib chiqaradigan insofsiz xatti-harakatlarini tushunish mumkin.

Raqobat qonunchiligini buzganlikning obyektiv tomoni shaxsning yoki shaxslar guruhining insofsiz xatti-harakatlari natijasida kelib chiqqan oqibat va uni keltirib chiqaruvchi sabab bilan o'zaro bog'liqligidir.

Tovar va moliya bozorida shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning insofsiz raqobatga olib keluvchi xatti-harakatlarni odatda ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh: xo'jalik yurituvchi subyektning bir tomonlama harakatlarni sodir etish orqali amalga oshiradigan harakatlari. Bularga quyidagilar kiradi:

bozorda taqchillikni keltirib chiqarish va narxlarni oshirish maqsadida tovarlarni muomaladan olib qo'yish;

tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish imkoniyatlari mavjud bo'lganda shartnoma tuzishdan bosh tortish;

monopol qiymat yoki monopol arzon narxlarni belgilash;

boshqa tadbirkorlik subyektlarining bozorga kirishiga to'sqinlik qilish.

Ikkinchi guruh xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnoma tuzishida namoyon bo'ladi. Bular quyidagilar:

kontragentga shartnoma mohiyatiga taalluqli bo'lmagan shartlarni majburan kiritish;

kontragentni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan teng bo'lmagan vaziyatga solib qo'yadigan kamsituvchi shartlarni shartnomaga kiritish;

kontragent tomonidan boshqa tovarlarni sotib olish yoki sotish, yoxud kontragentning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan tovarlar sotib olishidan yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga tovarlar sotishidan tiyish sharti bilan shartnoma tuzishga rozilik berish.

Raqobat qonunchiligini buzish bilan bog'liq yuqorida sanab o'tilgan holatlar ro'yxati qat'iy tugal xususiyatga ega emas.

Raqobat qonunchiligini buzganlik holatini o'rganish va unga huquqiy baho berishda maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hisoblanadi. Mazkur davlat organi tovar va moliya bozorida o'zaro raqobatlashish munosabatlarini kuzatib boradi. Agar raqobat buzish holati aniqlanadigan bo'lsa, tegishli huquqiy ta'sir chorasini qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llash vakolatiga ega.

Raqobat qonunchiligiga ko'ra huquqbuzarlik turlarini quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin bo'ladi:

– bozorda shaxsning ustun mavqeyini suiiste'mol qilish shaklida hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan bitim va kelishilgan xatti-harakatlari ko'rinishidagi;

– raqobatlashish munosabatlariga zid bo'lgan metodlardan foydalanish bilan bog'liq huquqbuzarlik (insofsiz raqobat).

– davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari.

10.2. Ayb – javobgarlikka tortish asosi sifatida

Raqobat qonunchiligi bo'yicha shaxsning harakatlarini insofsiz raqobat sifatida baholash va tegishli huquqiy ta'sir chorasini qo'llashda ushbu shaxsning yoki shaxslar guruhining aybi mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlashtirilishi lozim bo'ladi. Chunki har qanday holatda ham shaxsning xatti-harakatlarini raqobatga zid bo'lgan holat sifatida baholab bo'lmaydi.

Shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning xatti-harakatlarida raqobat qonunchiligini buzganlik uchun unga javobgarlik chorasini qo'llash uchun, eng avvalo, huquqni buzgan shaxsning ayblilik darajasini aniqlash lozim bo'ladi. Chunki aybning darajasini aniqlash ushbu shaxsga qonun hujjatlarida belgilangan u yoki bu darajadagi javobgarlik chorasini qo'llashda ahamiyati kattadir.

Raqobat munosabatlarida shaxsning aybdorligini namoyon etuvchi jihat – bu uning tovar va moliya bozorida insofsiz raqobatga olib keluvchi har qanday xatti-harakatlari yoki harakatsizligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi birinchi qismining ikkinchi bandiga ko'ra, insofsiz raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari tushuniladi.

Shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning raqobat qonunchiligiga zid bo'lgan xatti-harakatlarida aybning mavjudligini aniqlashda unda insofsiz raqobat faktlari, xususan, shartnomada kamsituvchi shartlarning kiritilishi, kelishib olingan harakatlar, raqobatga qarshi harakatlarning mavjudligidan kelib chiqiladi.

Raqobat munosabatlarida shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning insofsiz raqobatga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar doirasi juda keng bo'lib, uning chegarasini belgilash va tegishli qonun hujjatlarida mustahkamlashning imkoni yo'q. Chunki bozor munosabatlari sharoitida shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxsga nisbatan qonunga zid bo'lgan turli ta'sir choralari qo'llash mumkin. Masalan, tovarning monopol yuqori narxi yoki tovarning monopol past narxini belgilash. muomalada bo'lgan tovarlarning hajmini tovar yoki moliya bozorida taqchillikni keltirib chiqarish yoki saqlab turish maqsadida narxlarning oshishiga olib keladigan tarzda qisqartirish;

– shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirish;

– shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar) tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni olish yoki realizatsiya qilishni taqiqlash yoxud cheklash;

– kontragent tomonidan boshqa tovarlarni olish yoki realizatsiya qilish yoxud kontragentning tovarlarni o'zga xo'jalik yurituvchi subyektlardan olishdan yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga realizatsiya qilishdan o'zini tiyishi sharti bilangina shartnoma tuzishga rozilik berish;

– tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo'la turib, shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortish;

– tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga to'siqlar qo'yish;

– sun'iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlarni yoki ustama narxlarni belgilash yoki saqlab turish;

– narxlarni sun'iy ravishda oshirgan yoki pasaytirgan holda erkin bozor narxlarining qaror topishiga to'sqinlik qilish;

– ishlab chiqarish ustidan, mahsulot sotish bozorlari va kapital qo'yilmalar ustidan nazorat o'rnatish;

– taklif hajmini sun'iy ravishda o'zgartirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olish;

– shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatni cheklovchi boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirish;

– auksionlarda, birjalarda va boshqa savdolarda narxlarni oshirish, pasaytirish yoki saqlab turish;

– shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritish;

– tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olish kabi va boshqa holatlarni sanab o'tish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, raqobatga zid bo'lgan mazkur xatti-harakatlarning tugal ro'yxati mavjud emas.

Raqobat munosabatlarida nafaqat shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning, balki davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining ham raqobat qonunchligini buzganlik uchun javobgarlikka tortish holati raqobat qonunchiligida belgilanib o'tiladi. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasida Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining raqobatga zid xatti-harakatlari ro'yxati keltirib o'tilgan, jumladan:

- faoliyatning biror bir sohasida yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga cheklovlar joriy etishi;

- shartnomalar tuzishda ustunlik berish, sotib oluvchilarning muayyan doirasiga tovarlarni birinchi navbatda realizatsiya qilish, moliyaviy mablag'larning manbalarini tanlash va ulardan foydalanish yo'nalishlarining afzalligi to'g'risida xo'jalik yurituvchi subyektga ko'rsatmalar berishi;

- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi;

• o‘z vazifalarini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan qo‘shib bajarishi kabi shu va boshqa holatlarni sanab o‘tish mumkin. Davlat hokimiyati organlari xodimlarining mazkur harakatlarga yo‘l qo‘yishi ularni aybdor sifatida tan olish va tegishli javobgarlik chorasini qo‘llashga asos bo‘ladi.

Shaxs (yoki shaxslar guruhi)ni raqobatga zid xatti-harakatlarining xususiyatidan kelib chiqib turli javobgarlik chorasini qo‘llashni o‘zida namoyon etadi. Jumladan, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, ma‘muriy-huquqiy javobgarlik hamda jinoiy-huquqiy javobgarlik turlariga bo‘lish mumkin.

10.3. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik

Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun shaxsga (yoki shaxslar guruhiga) nisbatan fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini qo‘llash huquqi buzilgan shaxsga yetkazilgan zararni moddiy ko‘rinishda qoplab berishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1-moddasi birinchi qismida belgilangan xususiy ishlarga biron-bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi, fuqarolik huquqlari to‘sqinliksiz amalga oshirilishi, mulkning daxlsizligi, munosabat ishtirokchilarining tengligini e‘tirof etish prinsiplari bozor munosabatlari sharoitida uning ishtirokchilar tomonidan amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalarni o‘zida mustahkamlaydi. Mazkur qoidalar bozor munosabatlari ishtirokchilarining amal qilishi lozim bo‘lgan qat‘iy qoidalarni o‘zida ifodalaydi.

Shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning raqobat qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligining o‘ziga xosligi zarar yetkazuvchi tomonidan zarar ko‘rsatilgan shaxsga yetkazilgan moddiy zararni qoplashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, shaxs FKning 6-moddasida belgilangan ish muomalasi odatlariga zid xatti-harakatlarni amalga oshirganlik, xususan, uni bozorda o‘ziga raqobatchi bo‘lgan shaxslar hamda iste‘molchilar oldida yolg‘on haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumotlarni tarqatishi natijasida obro‘sizlantirganlik uchun ham tegishli fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Lekin zarar yetkazganlik shaxsni-fuqarolik huquqiy javobgar sifatida e‘tirof etish o‘zida ayrim holatlarni namoyon qilishi lozim. Jumladan, kimningdir qonun bilan qo‘riqlanadigan moddiy manfaatlarini poymol qilish;

shaxsning zarar yetkazish bilan bog'liq huquqqa zid xatti-harakatlari; zarar yetkazgan shaxsning aybdorlik darajasi, zarar ko'rgan shaxsning o'ziga yetkazilgan zararni huquqni buzgan shaxs tomonidan yetkazilganligini isbotlab berishi va h.k.

Shaxs (yoki shaxslar guruhi)ning raqobat qonunchiligiga zid holda o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxs (yoki shaxslar guruhi)ga zarar yetkazganlik uchun yuqorida sanab o'tilgan holatlar mavjud bo'lganda tegishli fuqarolik qonunchiligida belgilangan javobgarlik chorasini qo'llaniladi.

Raqobat qonunchiligini buzgan shaxsga nisbatan fuqarolik javobgarlik chorasini qo'llashda huquqni buzgan shaxs o'zi tomonidan raqobat qonunchiligini buzgan holda insofsiz harakat qilgan yoki qilmaganlik holatini isbotlab berishi, insofsiz raqobat natijasida zarar ko'rgan shaxs esa o'ziga nisbatan zarar yetganlik faktini ko'rsatib berishi lozim bo'ladi.

Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq raqobatga zid xatti-harakatlar natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga ko'ra amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga ko'ra zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.

Shaxs (yoki shaxslar guruhi) tomonidan raqobat qonunchiligini hamda qonunchilikda belgilangan tegishli javobgarlik chorasini qo'llash odatda turli qonunga zid xatti-harakatlar natijasida, xususan, birovga tegishli tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomida ruxsatsiz ishlab chiqarish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish, tijorat siridan insofsiz ravishda foydalanish, xususan, uning egasini ruxsatsiz boshqa shaxsga berish yoki uni oshkor etish, shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritish, tovarning xususiyati, ishlab chiqarish usuli va joyi, iste'mol xossalari, narxi, sifati, ishlab chiqaruvchining (bajaruvchining) kafolat majburiyatlari xususida iste'molchilarni chalg'itish, xo'jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarni,

uning tashqi bezatilishini, nomini, tamg'alanishini, tovar belgisini va yuridik shaxsni shaxsiylashtirishning boshqa vositasini takrorlash, reklama materiallaridan, tovarning firma o'rovi va shaklidan nusxa ko'chirish orqali qalbakilashtirish, reklama yoki raqobatchini obro'sizlantirish bilan bog'liq ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish kabi shu va boshqa holatlarni sanab o'tish mumkin.

Shaxsga tegishli tijorat sirini oshkor qilish ham insofsiz raqobatni keltirib chiqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligida tijorat sirini huquqiy muhofaza qilishning ikki xil shakli, ya'ni ro'yxatdan o'tkazilgan va ro'yxatdan o'tkazilmagan holda muhofaza qilish belgilangan. Tijorat sirini u ro'yxatdan o'tkazilmasdan huquqiy muhofaza qilish ushbu nomoddiy obyektga nisbatan egasi atamasi qo'llaniladi. Agar tijorat sirining egasi ushbu sirni tegishli vakolatli davlat organidan ro'yxatdan o'tkazilgan holda egalik qilsa, u holda tijorat siriga nisbatan ushbu tijorat sirining egasi emas, balki mutlaq huquqi egasi tushunchasi qo'llaniladi. 2014-yil 11-sentabrda qabul qilingan "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonun matnida esa "ega" atamasi o'rniiga tijorat siriga nisbatan "mulkdor" atamasi qo'llanilgan. Vaholanki, FKning 98-moddasida tijorat siriga nisbatan uning egasi sifatida belgilangan. Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra mulkdor atamasi moddiy ashyolarga nisbatan uning egasini huquqlarini ifodalovchi tushuncha sifatida qo'llaniladi. Mazkur tartibni Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1465-moddasida ham tijorat siriga nisbatan mulkdor atamasi emas, balki ega tushunchasi qo'llaniladi. Ushbu holatni Belarus davlati FKning 1010-moddasida, Qozog'iston davlati Fuqarolik kodeksining 1017-moddalarida ko'rishimiz mumkin.

Tijorat siridan foydalanish bilan bog'liq huquq buzish holatlarini huquqiy baholash yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquqi, jinoyat huquqi hamda mehnat huquqi normalariga muvofiq tartibga solinadi. Xususan, tijorat siri qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik boshqa javobgarlik turlaridan farqli o'laroq, tijorat siridan noqonuniy foydalanyotgan shaxsga nisbatan moddiy javobgarlik (xususan, haqiqiy zarar hamda boy berilgan foyda undirish) shaklidagi javobgarlik chorasi qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Tijorat sirini fuqarolik-huquqiy muhofaza qilish hamda huquqni buzgan shaxsga nisbatan fuqarolik ta'sir chorasini qo'llash FKning 98-moddasida belgilangan shartlar mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi. Bunday belgilar jumladan:

- ushbu sir uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lishi;
- uning egasiga nisbatan haqiqiy va nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lishi;

– tijorat siri egasi uning boshqa shaxslar tomonidan erkin foydalanish imkoniyatini cheklash maqsadida ushbu sirning maxfiyligini saqlashga doir choralarni ko'rgan bo'lishi asos bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar qat'iy ahamiyatga ega bo'lib ularning mavjud emasligi zarar yetkazuvchidan zarar ko'rgan shaxs zararni talab qilish huquqdan mahrum bo'lishiga olib keladi.

Bunda:

– birinchidan, uchinchi shaxs ushbu tijorat siridan haqiqiy ma'noda manfaatdor bo'lgan tadbirkorlar, ushbu sir egasi bo'lgan shaxs bilan raqobatchi bo'lgan shaxslar, tijorat sirining egasi tomonidan taklif etayotgan mahsulotga kontragent bo'lgan subyektlar hisoblanadi;

– ikkinchidan, tijorat sirining egasiga undan o'zi tomonidan bevosita tovar ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat bo'lsa yoki bilvosita foydalanish esa ushbu sirni litsenziya shartnomasiga muvofiq vaqtinchalik boshqa shaxsga berishi tushuniladi.

– uchinchidan, ushbu sir egasi tijorat siri bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlash choralarni ko'rgan bo'lishi lozimligi yuqorida ta'kidlab o'tildi. Bunday himoya qilish uning egasi yoki huquqni qabul qilgan shaxs tomonidan turli texnik, tashkiliy hamda yuridik vositalardan foydalanish orqali amalga oshirilishini tushunish mumkin. Lekin shuni nazarda tutish mumkinki, ushbu sir egasi yoki undan foydalanishga ruxsat olgan litsenziat har doim ham barcha himoya qilish choralari ko'rish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Tijorat siridan foydalanish bilan bog'liq holat ko'rib chiqilayotganda tijorat sirining egasi haqiqatdan ushbu sirni himoya qilish xohishi ochiq-oydin ko'rinib turgan bo'lishi talab etiladi. Mazkur talab tijorat sirini huquqiy muhofaza qilishning muhim sharti hisoblanadi. Lekin ushbu sir egasi uni himoya qilish chorasini ko'rgan bo'lishiga qaramay uchinchi shaxslarning ushbu sirdan erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligi tijorat sirini huquqiy muhofaza qilishni istisno etadi hamda hech qanday fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Masalan, tijorat sirining egasi ushbu sirni huquqiy muhofaza qilish choralari ko'rgan, lekin o'zi bilmagan holda ommaviy axborot vositalarida va nashrlarda e'lon qilgan, internet sahifalarida mahsulotning tarkibi to'g'risida ushbu sirni o'zida aks ettirgan ma'lumotlarni joylashtirib qo'yishi tijorat sirini ommaga oshkor etish sifatida tushunish mumkin.

Tijorat siridan foydalanish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq uni egasining roziligi bilan amalga oshiriladigan fuqarolik-huquqiy munosabat hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, qonunchilik nuqtayi nazaridan shaxsning tijorat siridan foydalanish uni

ro'yxatdan o'tkazmasdan amalga oshirilib, uning egasi ushbu sirga nisbatan insofli egallovchi sifatida talqin etiladi. Bunda tijorat siri egasi undan amalda foydalangan bo'lishi talab etiladi. Tijorat sirining egasi ushbu sirni FKning 1097-moddasiga muvofiq oshkor etilmagan ma'lumotning mazmunini tashkil etuvchi axborotning hammasini yoki bir qismini litsenziya shartnomasi asosida berishi mumkinligi ta'kidlanadi. Mazkur shartnoma qoidalariga ko'ra tijorat sirini taqdim etuvchi litsenziar ushbu sirni qabul qiluvchi esa litsenziat sifatida qaralib, shartnoma taraflari tijorat siriga nisbatan insofli egallovchilar hisoblanadi. Agar bir shaxsga tegishli tijorat sirini boshqa shaxs uning roziligisiz olgan bo'lsa, unga nisbatan esa insofsiz egallovchi sifatida qaralib tegishli tartibda huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Tijorat siridan foydalanish qoidalarini buzish shartnoma asosida ushbu tijorat sirini o'z tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun olgan shaxs, ya'ni insofli egallovchi hamda shartnomadan tashqari holatda ushbu tijorat siri egasining tegishli tartibda roziligini olmagan holda shaxsning, ya'ni insofsiz egallovchining ham ushbu tijorat siridan foydalanish holatlarini qayd etish lozim. Bir shaxsga tegishli bo'lgan tijorat sirini boshqa shaxs tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatida foydalanayotganligi, lekin ushbu shaxs mazkur tijorat sirini birinchi shaxs tomonidan oldinroq o'z faoliyatidan qo'llayotganligini bilmagan va bilishi lozim bo'lmagan hollarda ushbu shaxs mazkur tijorat siriga nisbatan insofli egallovchi sifatida qaraladi. Lekin, Fuqarolik kodeksining tegishli moddalariga muvofiq nizo kelib chiqqan taqdirda ushbu sirning boshqa shaxsga tegishli ekanligini isbotlab berish majburiyati har doim ikkinchi shaxs zimmasi bo'ladi. Agar tijorat sirini ikkinchi shaxs noqonuniy foydalangan, ya'ni boshqa shaxsga litsenziya shartnomasiga muvofiq berganlik fakti isbotlanadigan bo'lsa, bunday holda javobgarlik ikkinchi shaxs zimmasida bo'ladi. Agar tijorat sirining egasiga yetkazilgan zararni qoplashda ikkinchi shaxsning mablag'i yetishmasa, uchinchi shaxs ham tijorat siri egasining oldida javobgar bo'ladi.

FKning 1096-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, tijorat siridan noqonuniy foydalanayotgan shaxs ushbu sirni tarqatishga huquqi bo'lmagan shaxsdan olgan bo'lsa, ushbu sirni qo'lga kiritgan shaxs bundan bexabar bo'lsa va buni bilmasligi kerak bo'lsa, ushbu tijorat sirining qonuniy egasi ushbu sirdan noqonuniy foydalanayotganligini bilib qolgandan so'ng ushbu sirdan noqonuniy foydalanganligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilishga haqli hisoblanadi.

Tijorat siridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni huquqiy baholash hamda uning egasiga yetkazilgan zararni hisoblash o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Insofsiz egallovchi bir tijorat sirini boshqa shaxsga tovar ishlab chiqarish munosabatlarida foydalanayotganligini bilgan va bilishi lozim bo'lgan hollarda olgan va o'z ishlab chiqarish munosabatlarida qo'llash insofli egallovchiga nisbatan ma'lum moddiy zarar yetishiga olib keladi. Tabiiyki, FKning 11-moddasiga muvofiq zarar ko'rgan shaxs zarar yetkazuvchidan o'z huquqini himoya qilish usuli sifatida yetkazilgan zararni to'lashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Lekin shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xo'sh, zarar ko'rgan shaxs sudga zarar yetkazuvchidan o'ziga tegishli tijorat siridan noqonuniy foydalanganligi uchun o'ziga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash va uni qoplashni talab qilishning huquqiy tartibi qanday belgilanadi?

Bunda zarar ko'rgan shaxsning taxminiy hisoblab chiqilgan zarar miqdori inobatga olinmaydi. Balki tijorat siri egasi o'ziga tegishli tijorat siridan foydalangan vaqtdan boshlab qancha daromad ko'rganligi hamda ushbu ko'rgan daromadini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lab borganligi fakti asosida hisoblanadi. Lekin har doim ham shaxs ushbu sirdan foydalanganligi natijasida olingan foyda miqdorini hammasini ham taqdim etavermaydi. Bunga soliqdan yashirish, olingan foyda miqdorini kam qilib ko'rsatish kabi huquq buzilish holatlari to'siq bo'lib nizoli holatni yetarli darajada zarar ko'rgan shaxs foydasiga hal etilmasligiga olib keladi. Demak, huquqni qo'llash amaliyotida tijorat siridan noqonuniy foydalangan shaxsdan ushbu sir egasiga nisbatan yetkazilgan zararni hisoblab chiqishda olingan daromadi to'g'risidagi soliq organiga taqdim etgan ma'lumotiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

10.4. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy-huquqiy javobgarlik

Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun huquqni buzgan fuqaroga va mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy-huquqiy ta'sir chorasini qo'llash qonun hujjatlarida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibat ma'muriy-huquqiy ta'sir chorasini qo'llashga

asos bo'ladi. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy-huquqiy ta'sir chorasini qo'llash odatda huquqi buzilgan shaxsning raqobat qo'mitasiga o'z huquqlari buzilganligi to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, raqobat qo'mitasining tashabbusi bilan ham mansabdor shaxsга yoki fuqaroga raqobat qonunchiligi to'g'ri qo'llanilishi bilan bog'liq tekshirilishi natijasida aniqlangan kamchilik yuzasidan tegishli ma'muriy-huquqiy ta'sir chorasini qo'llash tartibi belgilab o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari:

- faoliyatning biron-bir sohasida yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga cheklovlar joriy etishi, shuningdek faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishni yoki muayyan tovarlar ishlab chiqarishni man etishi;

- shartnomalar tuzishda ustunlik berish, sotib oluvchilarning muayyan doirasiga tovarlarni, birinchi navbatda, realizatsiya qilish, moliyaviy mablag'larning manbalarini tanlash va ulardan foydalanish yo'nalishlarining afzalligi to'g'risida xo'jalik yurituvchi subyektga ko'rsatmalar berishi;

- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi;

- o'z vazifalarini xo'jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan qo'shib bajarishi;

- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash kabi shu va boshqa holatlarni sanab o'tish mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining tovar yoki moliya bozorining normal faoliyat ko'rsatishiga, raqobatni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi hamda iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsituvchi harakatlariga, shu jumladan:

- narxlarni yoki tariflarni oshirishga, pasaytirishga, saqlab turishga;

– tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi bo'yicha, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;

– xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirishini cheklashga yoki ularni bozordan chetlatishga olib keladigan kelishib olingan harakat va bitimlariga yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan kelishib olingan harakatlari va bitimlari uchun, shuningdek tovar yoki moliya bozoridagi ustun mavqeni suiiste'mol qilganlik, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishda, qo'shib olishda va ustav fondidagi aksiyalarni hamda boshqa mulkiy huquqlarni olish bo'yicha bitimlar tuzishda raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini tugatish haqidagi, dastlabki holatni tiklash to'g'risidagi ko'rsatmalarni bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik, monopoliyaga qarshi organga axborotni taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik, noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etganlik, tanlov (tender) yoki birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablarni buzganlik uchun ham tegishli ravishda ma'muriy javobgarlik chorasini qo'llashga asos bo'ladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi xo'jalik yurituvchi subyektni monopoliyaga qarshi organing qarorini (ko'rsatmasini) bajarish yoki raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod etmaydi.

Raqobatni cheklovchi va raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yo'l qo'yib bo'lmaydigan bitimlar tuzganligi hamda kelishib olingan harakatlar sodir etganligi haqida monopoliyaga qarshi organga birinchi bo'lib ixtiyoriy ravishda ma'lum qilgan shaxs ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish holati qonunchilikda belgilab o'tiladi.

10.5. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobatning muhofaza etilishi hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobat muhitining adolatli hamda teng imkoniyatli deb e'tirof etishlari nihoyatda muhimdir.

Raqobat huquqiy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda normal rivojlanishi, o'zaro musobaqalashuvchi subyektlarning raqobatchilariga nisbatan o'zaro hurmat, halol, adolatli munosabatda bo'lishlarini ta'minlovchi tartibga soluvchi reguliyativ normalarning mavjudligi sog'lom

raqobat orqali bozor ishtirokchilarining faolligini ta'minlasa, raqobat huquqiy munosabatlarning normal rivojlanishiga daxl qiluvchi xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ta'sir choralarni qo'llovchi, jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar ham mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Raqobat huquqiy munosabatlarning iqtisodiyot asoslari hamda xo'jalik faoliyatidagi ahamiyatini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida raqobat huquqiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishlarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan.

Xususan, "Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XII bobda 183-modda "Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" hamda "Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar" deb nomlangan XIII bobda 192-modda "Raqobatchini obro'sizlantirish" jinoyatlariga nisbatan javobgarlik choralari belgilangan.

Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati aks etgan 183-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasiga ko'ra mazkur jinoyat monopoliyaga qarshi organga axborot taqdim etmaslik yoki bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etishda ifodalanadi.

Birinchi holatda ijtimoiy xavfli qilmish xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan monopoliyaga qarshi organga axborot taqdim etmaslik shaklidagi harakatsizlikda namoyon bo'lsa, ikkinchi holatda bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etishda namoyon bo'ladi. Ikkinchi holatning o'ziga xosligi shundaki, bunda xo'jalik yurituvchi subyekt monopoliyaga qarshi organga ma'lumot taqdim etadi, ammo ushbu ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 183-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishning o'ziga xos xususiyati shundaki, mazkur jinoyat elementlarini o'zida ifodalagan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan ma'muriy preyuditsiyaning mavjud bo'lishi talab etiladi.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasiga ko'ra monopoliyaga qarshi organning ko'rsatmasi unda belgilangan muddatda ijro etilishi lozim. Ko'rsatmani muddatida ijro etmaganlik ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.


Monopoliyaga qarshi organning ko'rsatmasini unda belgilangan muddatda ijro etmaganlik deganda ko'rsatmani ijro etishni rad qilish yoki qisman ijro etish yoxud o'z vaqtida ijro etmaslik tushuniladi.

Monopoliyaga qarshi organ tomonidan ko'rsatma berilgan shaxslar ko'rsatmani ijro etish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma berishi mumkin. Iltimosnomada ko'rsatilgan holat uzrli deb topilgan taqdirda monopoliyaga qarshi organ ko'rsatmani ijro etish muddatini uzaytirishga haqli.

Monopoliyaga qarshi organ o'z ko'rsatmalarini ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 183-moddasi ikkinchi qismida monopoliyaga qarshi organning qoidabuzarlikni tugatish to'g'risidagi, dastlabki holatni tiklash haqidagi ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlash yoki o'z vaqtida bajarmaslik holatlariga nisbatan jinoiy javobgarlik nazarda tutiladi. Mazkur holatlarda ham ma'muriy preyuditsiyaning mavjud bo'lishi zaruriy talab hisoblanadi.

**RAQOBAT TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI VA
TABIIY MONOPOLIYALAR TO'G'RISIDAGI QONUN
HUJJATLARINI BUZISH
(JK 183-m.)**




Hozirgi paytda tadbirkorlik subyektlarining ishchanlik obro'si, ularning iste'molchilar va raqobatchilar oldidagi nufuzi tadbirkorning daromadiga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Bundan kelib chiqib qonunchiligimizda raqobatchini obro'sizlantirishga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 192-moddasiga ko'ra raqobatchini obro'sizlantirish, ya'ni bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

RAQOBATCHINI OBRO'SIZLANTIRISH
(JK 192-m.)



Nazorat uchun savollar:

1. Javobgarlik tushunchasini yoritib bering.
2. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi va uning huquqiy tabiatini yoritib bering.
3. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun kelib chiqadigan huquqiy oqibatni yoritib bering.
4. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering
5. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy-huquqiy javobgarlikni o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
6. Raqobat qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy-huquqiy javobgarlikni o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.

1-kazus

“Baraka”, “Omad” va “Sifat-sut” aksiyadorlik jamiyatlari Andijon viloyati tovar bozorida sut va sut mahsulotlariga o'zlari uchun ma'qul narxlarni ushlab turishga o'zaro og'zaki ravishda kelishib olishdi.

Monopoliyaga qarshi kurashish organi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari xatti-harakatlarini va mavjud materiallarni tahlil qilib, O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi me'yorlari buzilganligi fakti yuzasidan ish qo'zg'atish haqida qaror qabul qildi.

Monopoliyaga qarshi kurashish organi hududiy boshqarmasi mazkur ishlab chiqaruvchilarni aynan qaysi qonun hujjatlari va qaysi me'yorlarini buzgan deb topgan bo'lishi mumkin?

2-kazus

Monopoliyaga qarshi kurashish organi hududiy boshqarmasiga Olmazor tumanida aholiga kommunal xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxonaga tomonidan qonun buzilishi holatlari sodir etilayotganligi haqida ariza kelib tushdi.

Muayyan xizmatlar bozorini 100 foiz egallagan holda mazkur korxonaga ko'rsatilgan kommunal xizmatlar uchun to'lovalarni aholidan maxsus belgilab qo'yilgan tariflar bo'yicha emas, balki erkin narxlarda undirganligi ma'lum bo'ldi.

Monopoliyaga qarshi kurash organi hududiy boshqarmasi bu holatda qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak?

Korxonaga O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurash qonun hujjatlari talablarini buzganmi?

Agar buzgan bo'lsa, aynan qaysi me'yorlarni?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва иқтисодийтимизни барқарор ривожлантириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. Т.16. – Б. 235-236.

2. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза, 2010 йил 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

3. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 360 б.

4. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.

5. Каримов И.А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. Мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза, 2014 йил 17 январь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.

6. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислох этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Ҳалқ сўзи. – 2015. – 7 декабрь.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘zbekiston, 2014. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 3-4-son, 27-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-y., 12-son, 343-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 15-son, 152-modda; 2008-y., 52-son, 510-modda; 2011-y., 16-son, 159-modda; 2014-y., 16-son, 176-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2014. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-son, 1-modda; 1997-y., 2-son, 56-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 234-modda; 1998-y., 5-6-son, 102-modda; 2001-y., 1-2-son, 11-modda; 2002-y., 9-son, 165-modda; 2003-y., 9-10-son, 149-modda; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 28-29-son, 261-modda; 2007-y., 31-32-son, 315-modda; 2008-y., 40-41-son,

406-modda; 52-son, 513-modda; 2009-y., 3-son, 9-modda; 2010-y., 22-son, 174-modda; 2011-y., 16-son, 162-modda; 2012-y., 38-son, 433-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 41-son, 543-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda; 36-son, 452-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 52-son, 645-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1995-y., 3-son; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2015-y., 23-son, 301-modda; 32-son, 425-modda; 33-son, 439-modda; 52-son, 645-modda; 2016-y., 3(1)-son, 32-modda; 17-son, 173-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 144-modda; 2015-y., 23-son, 301-modda; 32-son, 425-modda; 33-son, 439-modda; 52-son, 645-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 52 (1)-son; 2008-y., 52-son, 512-modda; 2016-y., 1-son, 2-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda.

7. "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 1-son, 5-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 19-son, 210-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 52-son, 645-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 1998. – №9. 170-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007-y., 31-32-son, 315-modda. 2011-y., 51-son, 542-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 50-son, 587-modda.

11. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 14-modda; 2002-y., 9-son, 164-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2005-y., 51-son, 374-modda; 2006-y., 14-son, 110-modda; 41-son, 405-modda; 2008-y., 14-15-son, 93-modda; 2010-y., 37-son, 317-modda; 40-41-son, 343-modda; 44-45-son, 380-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 41-son, 543-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda

12. O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 212-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2006-y., 41-son, 405-modda; 2007-y., 50-51-son, 499-modda; 2010-y., 40-41-son, 357-modda; 50-son, 470-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 41-son, 543-modda; 2014-y., 50-son, 588-modda.

13. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 148-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2005-y., 49-50-son, 365-modda; 2009-y., 37-son, 403-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda.

14. O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 142-modda; 2003-y., 1-son, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 14-son, 110-modda; 41-son, 405-modda; 2011-y., 36-son, 363-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2014-y., 50-son, 588-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 52-son, 645-modda.

15. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 22-son, 287-modda.

16. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 8-modda; 2000-y., 5-6-son, 153-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2006-y., 12-13-son, 100-modda; 2007-y., 50-51-son, 506-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda; 2010-y., 37-son, 314-modda; 51-son, 485-modda; 2011-y., 37-son, 374-modda; 2013-y., 1-son, 1-modda; 41-son, 543-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda

17. "Tijorat siri to'g'risida"gi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 37-son, 463-modda

18. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 178-modda; 2002-y., 9-son, 165-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 37-38-son, 379-modda; 2011-y., 52-son, 555-modda; 2013-y., 1-son, 1-modda

19. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 18-son, 201-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 41-son, 543-modda; 2014-y., 49-son, 579-modda. 50-son, 588-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 52-son, 645-modda.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-iyundagi PF-3622-sonli "Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi Farmoni // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2005-yil, 25-26-son, 178-modda.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 239-sonli Qarori

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 29-son, 328-modda.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 230-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 34-son.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 46-47-son, 521-modda.

25. "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // «Xalq so'zi» gazetasining 2015-yil 16 maydagi 98 (6281)-soni.

26. "Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 17(1)-son, 216-modda

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" PF-5016-son Farmoni

III. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar:

1. Окюлов О., Мансуров К., Ходжаев Б. Ракобат ҳуқуқи. – Тошкент, ТДЮИ, 2008. – 174 б.

2. Окюлов О., Мансуров К., Ходжаев Б. Конкурентное право. – Ташкент: ТГЮИ, 2009. – 154 с.

3. О.Окюлов., К.Мансуров, Б.Ходжаев. Ракобат ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТГЮИ, 2008. – 106 б.

4. Окюлов О. Тадбиркорликни ривожлантириш ва унга нисбатан тўсиқларни бартараф қилишнинг ҳуқуқий муаммолари. / Тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш муаммолари / Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2002. – Б.36–39.

5. Тадбиркорлик субъектлари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш муаммолари./ Илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 264 б.

6. Файбуллаев Р. Тадбиркорлик тузилмаларининг ракобатбардошлик стратегиясини белгиловчи шарт-шароитлар // Олий ҳўжалик суди ахборотномаси. – 2005. – №10.

7. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi:Darslik; i.f.d., prof. J.T.Ro'ziyev. – T., 2005.

8. Рўзиназаров Ш. Тадбиркорлик субъектлари мулкӣ ҳуқуқларини ҳимоя қилиш кафолатлари./Олий ҳўжалик суди ахборотномаси. – 2006. – №11-12.

9. Нурмухамедова М. Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида реклама: ҳуқуқ ва мажбуриятлар // Олий ҳўжалик суди ахборотномаси. – 2006. – №5.

10. Бурханходжаева Х., Мансуров К. Аҳолига савдо хизмати кўрсатишда ракобат ва уни тартибга солишнинг конституциявий ҳуқуқий асослари // ТДЮИ Ахборотномаси. 2007 й. №5.

11. Азизов Х. Хусусий мулк дахлсизлиги ва уни таъминлашнинг айрим масалалари // Олий ҳўжалик суди ахборотномаси. – 2007. – №12.

12. Нарзиев О. Фонд биржалари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш методлари // ТДЮИ Ахборотномаси. – 2007. – №2.

13. Ходжаев Б. Реклама тушунчаси: киёсий-ҳуқуқий ёндашувлар таҳлили // ТДЮИ Ахборотномаси. – 2007. – №2.

14. Ходжаев Б. Реклама хизмати ва реклама хизмати кўрсатишнинг фуқаролик ҳуқуқий тавсифи // ТДЮИ Ахборотномаси. – 2008. – №4.

15. Холиқов К.О., Дўсанов Р.Ҳ. Рақобат: назарияси, шакллари ва усуллари. Илмий рисола. – ТермДУ, “Молия” кафедраси, 2009.

16. “Тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишда эркин рақобатни таъминлашнинг ҳуқуқий муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т.: ТДЮИ, 2010. – 392 б.

17. Ибротова Ф.Б. Айрим тоифадаги қарздорлар банкротлигининг ҳуқуқий муаммолари. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. 405 б.

18. Азизов Х.Т. Ўзбекистонда суд-ҳуқуқ соҳасидаги ислохотлар ва уларни такомиллаштириш. “Ўзбекистон демократик ислохотлар ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш йўлида” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: Академия, 2012. – Б.60–62.

19. Тотьев К.Ю. Конкуренция и монополия. Правовые аспекты регулирования. – М.: Юрист, 1996. 261 с.

20. Князева И.В. Антимонопольная политика в России. Учебное пособие. – М., 2006. 17 с.

21. Древалъ Л.Н. Антимонопольное регулирование предпринимательское деятельности. Лекция. – Хабаровск, 2002. – С.3.

22. Даниленко В.Н. Гражданско-правовая ответственность за злоупотребление доминирующее положение на товарных рынках. – Новороссийск: Издательство СГУПС, 2005. – С.27-28.

23. Таланцев В.И. антимонопольное регулирование за рубежом: учебное пособие. – Владивосток: Издательство ТГЭУ, 2004. – С.7-8.

24. Парижская Конвенция по охране промышленное собственности. Публикация № 201 (R). – Женева: Всемирная организация интеллектуальной собственности, 1990.

25. Ярочкин В.И. Бузанова Я.В. Системы защиты предпринимательства: Защита от недобросовестное конкуренции. – М.: Академический проект; Фонд «Мир», 2005. – С. 40-41.

26. Гукасян Л.Е. Правовое регулирование защиты от недобросовестное конкуренции в России: законодательство, правоприменение, комментарии. – М., Информационно-издательское центр Роспатента (ИНИЦ), 2005. – С.9.

27. Кондратовская С.Н. Правовые проблемы пресечения недобросовестное конкуренции на товарных рынках: Дис. канд. юрид. наук: 12.00.03. – Москва: ПроСофт – М, 2005. – С.22.

28. Adam Smith, The Wealth of Nations 1776. Book 4, Chapter 2: Of restraints upon importation from foreign countries of such goods as can be produced at home TFEU – Treaty on the Functioning of the European Union (consolidated version), OJNo. C 115 of 9 May 2008, p. 47], EU Merger Regulation.

29. Moritz Lorenz, An introduction to EU competition law, 2013, Chapter 7: The limitations of the market mechanism, p.23. Smith and King, "Does Competition Law Adequately Protect Consumers?". European Competition Law Review, 28 (2007).

30. Moritz Lorenz. An introduction to EU competition law. Cambridge University Press, 2013.

31. United Nations conference on Trade and Development: UNISTAD Research Partnership Platform – Competition Law and the State. Volume 1: Summary of answers to the questionnaire, UNISTAD publication series, 2015, – p.67.

32. Competition Law in Japan. Abstract of Doctoral Thesis by Simon Vande Walle and Tadashi Shiraishi. University of Tokyo, 2015. – p.34.

33. Competition Law in Germany. Watson, Farley and Williams 2014. Guide book. Published by Hamburg Publishing house.

34. Competition law and policy in the United States. Department of Justice. Federal Trade Commission publishing house, 2002. Textbook. – P.18.

IV. Elektron ta'lim resurslari:

1. <http://www.lex.uz>.
2. <http://www.legislature.ru>.
3. <http://www.law.uk.edu>.
4. <http://www.flexa.ru>.
5. <http://www.law.harvard.edu>.
6. <http://www.juristlib.ru>.
7. <http://www.pravoznaves.com.ua>.
8. <http://www.pravo.eup.ru>.

RAQOBAT HUQUQI

Darslik

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
"Yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalarga darslik
sifatida tavsiya etilgan

*Muharrirlar: S.Tosheva, K.Abduvaliyeva,
X.Yuldasheva.*

Musahhah: R.Yunusova.

Texnik muharrir: N.Niyazova.


Kompyuterda sahifalovchi: D.Rajapov.

Bosishga ruxsat etildi: 24.07.2018.

Hajmi: 11,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 24.

Toshkent davlat yuridik universiteti
"Tipografiya" bo'limida chop etildi.
Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy.

ISBN: 978-9943-380-88-2



9 789943 380882